rivojlantirish va vorislarga yetkazishda samarali mehnat qilmoqda. Ustalar idishlar tubiga hayvonlarning soddalashtirilgan shakli yoki ayrim qismlarini joylashtiradilar ("dumi burgut", "murg‘i safid", "boyqush", "guli tovus" va boshqalar), bu shakllar gulsimon naqshga o‘xshab ketishi bilan diqqatga sazovor. Narzullayevlar yaratgan buyumlarda yangilikni his qilish, an’anaviy shakllarga erkin munosabatda bo‘lish kabi xususiyatlar aniq ko‘zga tashlanadi. Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi boshqa maktablardan sopol xushtak o‘yinchoйlar ishlanadigan markazining borligi bilan ajralib turadi. H. Raximova an’analarini uning o‘g‘illari va shogirdi K.Boboyeva davom ettirmokda, ularning ijodida an’anaviylikni saqlagan holda o‘ziga xos mahorat ham kuzatiladi, bu ranglarda, shakl mujassamotida, yechimning mukammalligi va o‘lchamlarning barqarorligida namoyon bo‘ladi.[10]

Usta A. Muxtorov ishidan namuna (1978, Samarqand).Xorazm kulolchilik maktabi o‘ziga xos badiiyligi, bezaklar rangi va ishlanish uslubi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi; uning milliy shaklli o‘ziga xos buyumi bodiyadir; naqsh mujassamoti handasiy va o‘simliksimon naqshlardan iborat, buyumning markaziy qismiga arabeska girih tushirish ushbu maktabga xos uslublardan. Usta R. Matchonov (Madir qishlog‘i)

[9] Pugachenkova G. A., Rem pel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982; O‘zbekiston san’ati, T., 2001.
[10] *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan*.

buyumlarga to‘q rang ishlatgan, buyum bezagida havo rang yoki rangning o‘ziga xos to‘q tusi ustunlik qiladi. S.Otajonov (Kattabog‘ qishlog‘i) oq angobdan ko‘proq foydalanadi.

20-asrning 80-yillarida kulolchilik markazlarida ishlar birmuncha susaydi. 1990-yillarda O‘zbekistonda an’anaviy qadriyatlarga e’tiborni qaratilishi bu sohaning rivojlanishini ta’minladi. O‘zbekiston Respublikasida an’anaviy amaliy san’at asarlari ko‘rgazmasi (Respublika yarmarkasi)ga asos solindi. 1995-yildagi 1-Respublika yarmarkasida (BMTning 50 yilligiga bag‘ishlandi) barcha kulolchilik maktabining vakillari ishtirok etdi. Ustalardan R. Zuhurov (Denov),M. Turopov (G‘urumsaroy), I. Komilov (Rishton), Alisher va Abdulla Narzullayevlar (G‘ijduvon),Namoz va No‘mon Oblokulovlar (Urgut), R. Matchonov (Xorazm), A. Raximov (Toshkent) maxsus tayyorlangan "Usta guvohnomasi"ga sazovor bo‘ldi.1997-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atni yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoni barcha sohalar qatorida kulolchilik an’analarini rivojlanishiga samarali turtki bo‘ldi.[11]

Islimiy — o‘simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan asosiy naqsh turi. Naqsh asosini tanob, band, barg , butalar tashkil etadi. Bir-biriga uzluksiz ulanib, o‘ralib ketadigan chirmoviqsimon, o‘simliksimon naqshlarning takrorlanishidan tashkil topadi. Shuning uchun ba’zan ustalar uni o‘rama yoki o‘simliksimon naqsh deb ham ataydilar. Naqshning xillari ko‘p, u qaysi shakl bilan to‘ldirilsa, naqsh shu shaklning nomi bilan ataladi: 1. barg , 2. bar-gak, 3. bofta, 4.gul, 5. zanjira, 6. madohil, 7. mehrob va b. yuzdan ortiq sodda va murakkab turlari mavjud. Bu naqsh turlari yanada ko‘payib bormoqda. I. naqshlarning hunarmandlik rivojlangan shaharlar nomlari bilan atalgan xillari ham bor: Isfahoni Islimiy Arabi, Mashhadi va b. Turli davrlarda yashagan xalq ustalari yangi-yangi I. xillarini yaratgan va buyumlar be-zagi (ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, miskarlik, zardo‘zlik, kulolchilik, gilamchilik, kashtado‘zlik va b.)da keng qo‘llagan. Shuningdek, uni yanada jozibali qilish maqsadida naqshlarda qo‘shimcha materiallardan foydalanilgan. Mas, zargarlik, kan-dakorlik, miskarlikda qimmatbaho toshlar, qahrabo va b. qadalgan.O`rta asr Xorazmning sirlangn kulol idishlarida xalq etnografiyasiga xos bo`lgan san`at bezaklari, ialimiy uslubdagi naqshlari,jonzodlarning ts`virlari tushirilgan.[12] Bu uslub O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq, Hindiston, Eron, Turkiya, Afg‘oniston ustalari tomonidan keng foydalanilgan. I. naqshning naqqoshdan katta tajri-ba va mahorat harlarida yog‘och uymakori (A. Abdurahimov va b.), miskar (Abdulla hoji vtalab qiladigan murakkab xillari ham bor. Xiva (Paxlavon Mahmud maqbarasi gumbaz osti bag‘allari),Buxoro, Samarqand (Registon ansambli, Sherdor Madrasa ravog‘i, mehrobi), Toshkent, Qo‘qon,Marg‘ilon, Andijon sha va b.), zardo‘z (N. Aminov va b.),

[11] Pugachenkova G. A., Rem pel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982; O‘zbekiston san’ati, T., 2001.
[12] O`zbekiston muzeylarining dolzarb muammolari(Xalqaro anjuman materiallari) Shahrisabz -2024.

ganchkor, kashtado‘z ustalar ishlarida keng qo‘llangan, hozir ham I.naqshlardan keng foydalaniladi.Ayniqsa,Samarqandnig Urgut, Denov hududlarida ustalar islimiy chizma naqshlardan foydalangan.

Naqsh san’ati Markaziy Osiyo madaniyati tarixida juda qadimdan bo‘lib, o‘ziga xos namunalari bilan ajralib turadi. Arxeologik topilmalar naqshning xilma-xil va rang-barang namunalaridan Markaziy Osiyoda darak beradi. Me’moriy yodgorliklarda naqshning ancha mukammal, o‘ziga xos va yuksak san’atkorlik bilan yaratilgan nusxalarini uchratish mumkin. Xalq amaliy san’atining har bir turida (xususan, kashtado‘zlik, gilamchilik, o‘ymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik kabi) naqshning shakily imkoniyatlari naqadar keng va boy ekanligi yaqqol kuzatiladi. O‘rta Osiyoda naqshlar keng tarqalgan bo‘lib, ular, asosan, 2 turga bo‘lina-di: handasiy shakl va chiziqlardan iborat eng murakkab naqsh turi — girih, keng tarqalgan o‘simliksimon naqsh — islimiy.[13] Har bir naqshning o‘z qonun-qoidalari bor: taqsim va bo‘laklar aniq o‘lchamda, uyg‘un bo‘lishi, ranglar did bilan tanlangan, o‘zaro mutanosib bo‘lishi lozim. Bu naqqosh ustadan katta maxorat, malaka talab qiladi. O‘rta Osiyoda eng qadimiy naqsh namunalar, asosan, me’moriy inshootlarda saqlangan; naqshning ajoyib namunalari ganch.

O’zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalarda topilgan asori-atiqalar kulolchilik o’zbek amaliy san’atining eng qadimiy va yuksak darajada taraqqiy etgan tarmoqlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. O’zbekistonning asosiy kulolchilik maktablari bir necha yuz yillar davomida shakllangan bo’lib, ular orasida uchtasi asosiy hisoblanadi: Farg’ona kulolchilik maktabi — Rishton, G’urumsaroy, Andijon va Qo’qonda markazlari bor; Samarqand-Buxoro kulolchilik maktabi — Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, G’ijduvon, Urgut va Kattaqo’rg’onda markazlari bor; shuningdek Xorazm kulolchilik maktabi — Xivada, Kattabog’da va Chimboyda markazlari bor. Hozirgi kungacha faoliyat yuritib kelayotgan kulolchilik ishlab chiqarish markazlari Rishton, G’ijduvon, Xiva, Samarqand, G’urumsaroy, Shahrisabz, Kasbi, Urgut va Toshkentda mavjud. Yetakchi markazlarga oid quyma va noquyma kulolchilik shu hududning o’zigagina xos bo’lgan shakl, naqsh-bezaklar va koloritga ega. G’urumsaroy kulol ustalarining ishlarida sopol biroz qo’polroq bo’lsa-da, ular naqsh kompozitsiyalaridagi yaxlitlik va buyum chekkasi bo’ylab bir-biriga qaratib ishlangan juft naqshlar bilan e’tiborni tortadi.

G’urumsaroy kulollik buyumlariga moviy rangda bezak berilsa, albatta asosiy tagrang oqish ranglar bo’ladi, agar kishi diqqati oq rangdagi naqshlarga qaratilsa, unda moviy rang o’z-o’zidan asosiy tagrangga aylanadi. Yog‘och va toshni o‘yib, ba’zan bo‘yab ishlangan. Naqsh hisobiga keng taraqqiy etdi, naqqoshlik jadal

[13] O.N.Shomurodov. “Tas`viriy san`at tarixi”. “Durdona” nashriyoti. Buxoro-2021.

rivojlandi. Bino, buyum, idish, kiyim, qurollar aksariyat naqsh bilan bezatildi; masjid, madrasa, maqbaralarni xashamdor qilishda naqsh muqim o‘rin egalladi. Shu davrda me’morlikda g‘ishtni turlicha qalab naqsh hosil qilish san’ati yuksak darajaga ko‘tarildi. Binolarning yog‘in tushmaydigan joylari ganch va yog‘och o‘ymakorligi,bo‘yama naqshlar bilan bezatildi. Jumladan, me’moriy yodgorliklardan O‘zgandagi maqbaralar(interyer, devor, peshtoq, ravoqlar) g‘ishtin nafis naqshlangan. XIV—XV-asrlarda koshinkoriy naqshlar yaratildi (Ko‘hna Urganchdagi To‘rabekxonim ko‘shki, Samarqanddagi Shohizinda ansambli, Dilkusho ko‘shki — Ishratxona va boshqalar). Xiva, Buxoro, Qo‘qon xonliklari davrida xalq ustalari san’ati ayniqsa shaharlarda o‘sdi, naqsh, naqqoshlik ham yanada rivojlandi.

Xudoyorxon o‘rdasi (Qo‘qon), Sitorai Mohi Xosa (Buxoro), Toshhovli (Xiva) va boshqa binolar mohir ustalar tomonidan nafis naqshlar bilan bezatildi. Bu esa O‘rta Osiyoda naqshning o‘ziga xos uslublari vujudga kelganligini ko‘rsatadi.

Buxoro naqshi eng murakkab, mukammal va jozibador bo‘lib, ko‘p asrlik ijodiy mehnat an’analari samarasidir; Naqsh bezak bo‘lish bilan birga binokorlikning ajralmas qismiga aylangan. Juda murakkab girihlar puxta o‘lcham bilan ishlangan, gul naqshlari o‘ziga xosligi bilan (gul naqshda vaza, kosa, guldonlar uslublashtirilib, ularda gul butalari aks ettirilgan, yaproq, mevalar tasvirlari bir maromda berilishiga alohida e’tibori bilan) ajralib turadi. Xiva naqshi (yulduzlar hosil qiluvchi girihlar orasida o‘simliksimon gullarni mahorat bilan joylashtirilishi, barg shaklidagi bezaklarning ko‘pligi, o‘simliksimon tasvirlar zich, ko‘p va turli-tumanligi bilan mashhur. Farg‘ona naqshi Marg‘ilon, Xo‘jand, Qo‘qon, Farg‘ona, Namangan va boshqa shaharlarda vujudga kelgan uslublardan iborat. Me’moriy yodgorliklar (Qo‘qondagi Modarixon daxmasi va Daxmai shohon),XIX asrda yaratilgan naqshlarda sodda rang-baranglik (sariq, qizil, yashil, qora, oq, ko‘k,pushtirang), naqsh qismlarining ancha jo‘nligi ko‘zga tashlanadi. Farg‘ona naqshining o‘ziga xos jihatlari: bino devorlariga mehrobi namoyonlar ishlanib, ular hoshiya naqsh bilan bir-biridan ajratiladi, hoshiyalar orasiga girih, qolgan qismlarga o‘simliksimon gullar ishlanadi. Ularda Buxoro, Xiva naqshlarining ta’siri seziladi. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi naqshlarda yevropanaqshlarining ham ta’siri bor.

Xulosa: Xulosa o`rnida shuni aytib o`tish kerakki, yurtimizning madaniyat va ma`riftini yuksaltirishga hissa qo`shish, qadriyatlarimiz, tarixiy manbaalarimizni asrab- avaylash maqsadida madaniyat maskanlarini ko`paytirish,kulolchilik maktablarini rivojlantirish va yoshlarga san`atdan boxabar etish zarur. Kulolchilik ham san`atning bir bo`lagi hisoblandi

“San`at bu tizim emas,balki bir organizmdir”- egan edi Osvald Shpengler.[14]San`at jamiyat hayotining boshqa hodisalari (fan, mafkura, axloq) bilan ma`lum darajada bog`liqlikdir.

[14] Akbar Hakimov.”Moziydan sado “ “Tarixiy ong ;uyg`unlik yoxud parchalanish”№ 3/87 2020. B 1-7

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbar Hakimov.”Moziydan sado “ “Tarixiy ong :uyg`unlik yoxud parchalanish”№ 3/87 2020. B 1-7

2. O`zbekiston muzeylarining dolzarb muammolari(Xalqaro anjuman materiallari) Shahrisabz -2024.

3. O.N.Shomurodov. “Tas`viriy san`at tarixi”. “Durdona” nashriyoti. Buxoro-2021.

4. Pugachenkova G. A., Rempel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982; O‘zbekiston san’ati, T., 2001.

5. Pugachenkova G. A., Rempel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982; O‘zbekiston san’ati, T., 2001.

6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.

THE ROLE OF HOMEWORK IN TEACHING ENGLISH IN SECONDARY SCHOOL

Akramova Gulhayo Ikromjon qizi
Student of Fergana State Unversity English

Abstract. *In this article, the place and role of homework in teaching English, the advantages and disadvantages of homework will be highlighted.*

Key words. *Homework, Benefits of homeworks, disadvantages of homeworks, English language teaching, effectivenes*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda uy vazifasining o‘rni va roli, shuningdek, uy vazifasining afzalliklari va kamchiliklari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar. *Uy vazifasi, uy vazifasining foydalari, uy vazifasining kamchiliklari, ingliz tilini o‘qitish, samaradorlik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются место и роль домашних заданий в преподавании английского языка, а также их преимущества и недостат*

Ключевые слова. *Домашнее задание, преимущества домашних заданий, недостатк домашних заданий, преподавание английского языка, эффективность.*

Homework plays a crucial role in teaching English as a second language. It provides students with the opportunity to practice and reinforce the language skills they have learned in class. Homework assignments can help students improve their reading, writing, listening, and speaking skills, as well as their grammar and vocabulary.The advantage of homework as an informative device has been a topic of banter for a really long time. Understudies, instructors, standard ents, and administrator shave both positive and negative opinions about the frequency and length of homework tasks, the purpose of assignments,and whether or not homework should beassigned by any stretch of the imagination. [7,155]

One of the main benefits of homework in teaching English is that it is the best way to practice what they have learned in class at their own pace. This gives them the opportunity to review and consolidate their understanding of the material, which can lead to improved retention and comprehension. Homework also provides students with the chance to apply the language skills they have learned in real-life situations, such as writing emails, reading news articles, or listening to podcasts. Homework gives understudies the potential chance to apply the language abilities they have learned, in actuality, settings. For instance, they might be approached to compose a short paper, read a paper article, or pay attention to a digital recording and answer cognizance questions. These tasks assist understudies with fostering their perusing,

composing, and talking abilities, and become more certain about involving English in various circumstances.[8,52]

Homework may have nonacademic benefits. Certain nonacademic benefits of homework have been shown, especially for younger students. Indeed, some primary-level teachers may assign homework for such benefits, which include learning the importance of responsibility, managing time, developing study habits, and staying with a task until it is completed (Cooper, Robinson and Patall 2006; Corno and Xu 2004; Johnson and Pontius 1989; Warton 2001).

Homework assignments can also be tailored to address the specific needs of individual students. For example, students who struggle with grammar or vocabulary can be given targeted exercises to help them improve in these areas. Similarly, students who need extra practice with speaking and listening can be assigned tasks that focus on these skills.Home assignment additionally permits instructors to survey understudies' advancement and recognize regions for development. By auditing understudies' written work, tasks, and activities, educators can acquire understanding into their assets and shortcomings and designer their guidance likewise.This criticism circle is urgent for offering customized help to every understudy and assisting them with arriving at their language learning objectives.

In addition, homework can help teachers assess students' progress and identify areas where they may need additional support. By reviewing students' homework assignments, teachers can gain insight into their strengths and weaknesses and adjust their teaching strategies accordingly. Homework can also be used as a tool for providing feedback to students, allowing them to see where they are excelling and where they need to improve. [52,358] However, it is important for teachers to strike a balance when assigning homework in English language classes. Assigning too much homework can overwhelm students and lead to burnout, while assigning too little homework may not provide students with enough practice to truly master the language. It is important for teachers to carefully consider the amount and type of homework they assign, taking into account the needs and abilities of their students. Schoolwork assumes an essential part in showing English as a subsequent language. It gives understudies the chance to survey and unite what they have realized in class, apply their language abilities, in actuality, settings, foster free review propensities, and get customized criticism from their educators. By integrating significant and connecting with schoolwork tasks into their examples, educators can improve their understudies' language growth opportunity and assist them with accomplishing familiarity with English.

Some potential disadvantages of homework at school include:

1. Stress and burnout: Excessive amounts of homework can lead to stress, anxiety, and burnout in students, especially when they have multiple assignments from different classes to complete.2. Lack of family time: Homework can cut into

valuable family time, causing students to miss out on important bonding and relaxation time with their families.

3. Reduced physical activity: Spending hours on homework can limit the amount of time students have for physical activity and exercise, which is important for their overall health and well-being.4. Limited free time: Homework can leave students with little time for hobbies, extracurricular activities, or simply relaxing and unwinding after a long day of school.

5. Unequal access to resources: Some students may not have access to the resources needed to complete homework assignments, such as internet access, materials for projects, or a quiet space to work. 6. Negative impact on mental health: For some students, the pressure to complete homework assignments can contribute to feelings of inadequacy, low self-esteem, and mental health issues such as depression and anxiety.

7. Potential for academic dishonesty: With the prevalence of online resources, some students may be tempted to cheat or plagiarize when completing homework assignments. [12,625] It's important for educators to consider these potential disadvantages and strive to strike a balance between assigning meaningful homework and ensuring that students have time for rest, relaxation, and other important aspects of their lives. Homework plays a vital role in teaching English as a second language. It provides students with the opportunity to practice and reinforce their language skills, allows teachers to assess students' progress, and can be tailored to address individual students' needs.

REFERENCES:

1.Smith, J. (2021). The Role of Homework in Teaching English. Journal of Language aEducation, 10(2), 45-58.

2.Cooper, H., Robinson, J. C., & Patall, E. A. (2006). Does Homework Improve Academic Achievement? Review of Educational Research, 76(1), 1-62.

3.Corno, L., & Xu, J. (2004). Homework as the Job of Childhood. Theory Into Practice, 43(3), 227-233.

4.https://etalpykla.lituanistikadb.lt/object/LT-LDB-0001:J.041510587723924/

5.https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.cambridge.org/elt/blog/2023/07/09/the-pros-and-cons-

6.https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.readinrockets.org/topics/curriculum

i

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI HAYKALTAROSHLIK ORQALI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI VA TAMOYILLARI

Panayeva Maloxat Muminovna
Urganch davlat pedagogika instituti “San’atshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: panayevamalohat@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini haykaltaroshlik mashg‘ulotlari orqali rivojlantirishning pedagogik asoslari va tamoyillari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari hamda haykaltaroshlik fanining ta’lim jarayonidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, haykaltaroshlik mashg‘ulotlarining bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy tafakkur, fazoviy tasavvur va estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada haykaltaroshlik asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda ilmiylik, amaliy yo‘naltirilganlik, ijodiylik, tizimlilik va individuallashtirish tamoyillariga amal qilish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari tasviriy san’at yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirishda metodik ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi, haykaltaroshlik, ijodiy faoliyat, fazoviy tafakkur, estetik tarbiya, pedagogik tamoyillar, tasviriy san’at ta’limi.*

Bugungi globallashuv va ta’lim tizimidagi islohotlar sharoitida bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga qo‘yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Xususan, tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki tasviriy san’at fanini o‘qitish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ijodiy faoliyatni, estetik tafakkurni va san’atni chuqur idrok etishni talab etadi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy yetukligi uning san’at turlarini mukammal egallaganligi, badiiy tafakkurining rivojlanganligi va pedagogik mahorati bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, haykaltaroshlik san’ati tasviriy san’at ta’limining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Haykaltaroshlik mashg‘ulotlari talabalarni shakl va hajmni idrok etishga, fazoviy tasavvurini rivojlantirishga hamda ijodiy mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi bo‘lajak o‘qituvchilardan faqat bilim egallashni emas, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olishni ham talab etadi. Haykaltaroshlik mashg‘ulotlari aynan shu jihatdan kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ushbu san’at turi orqali talabalar nafaqat badiiy-amaliy ko‘nikmalarni, balki sabr-toqat,

aniqlik, mas’uliyat, estetik did va ijodiy tashabbus kabi shaxsiy sifatlarni ham egallaydilar.

Shu bois, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini haykaltaroshlik orqali rivojlantirishning pedagogik asoslari va tamoyillarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Kasbiy kompetensiya pedagogning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorlik darajasini ifodalaydi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi uchun kasbiy kompetensiya nafaqat san’atga oid bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki ularni ta’lim jarayonida maqsadga muvofiq qo‘llay olish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Kognitiv komponent – tasviriy san’at va haykaltaroshlik nazariyasi, san’at tarixi, shakl va hajm qonuniyatlariga oid bilimlar;

2. Amaliy-faoliyat komponenti – haykaltaroshlik texnikalarini egallash, materiallar bilan ishlash, badiiy obraz yaratish ko‘nikmalari;

3. Ijodiy komponent – mustaqil badiiy fikrlash, yangicha yondashuv va ijodiy tashabbus ko‘rsatish qobiliyati;

4. Kommunikativ-pedagogik komponent – bilimlarni o‘quvchilarga tushunarli yetkazish, ta’lim jarayonini

Haykaltaroshlik tasviriy san’atning eng murakkab va mas’uliyatli turlaridan biri bo‘lib, u fazoviy shakllarni hajmda ifodalashni talab etadi. Ushbu fan bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda keng pedagogik imkoniyatlarga ega.

-Haykaltaroshlik mashg‘ulotlari jarayonida talabalar:

shakl, hajm va nisbatlarni to‘g‘ri idrok etishni; kompozitsion yechimlarni topishni; plastika va ritm qonuniyatlarini qo‘llashni; turli materiallar (loy, gips, plastilin va boshqalar) bilan ishlashni o‘rganadilar.

Bundan tashqari, haykaltaroshlik mashg‘ulotlari talabalarning diqqat-e’tiborini jamlash, sabr-toqat bilan ishlash va ijodiy muammolarni mustaqil hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu jihatlar kelgusida ularning pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini haykaltaroshlik orqali rivojlantirish jarayoni quyidagi tamoyillar asosida tashkil etilishi lozim:

1. Ilmiylik tamoyili – mashg‘ulotlar san’at va pedagogika nazariyalariga asoslanishi;

2. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili – o‘rganilgan bilimlarning amaliy faoliyatda mustahkamlanishi;

3. Ijodiy faollik tamoyili – talabalarning mustaqil ijodiy ishlarga undalishi;

4. Tizimlilik va izchillik tamoyili – mashg‘ulotlarning bosqichma-bosqich tashkil etilishi;

5. Individuallashtirish tamoyili – har bir talabaning qobiliyati va ijodiy salohiyatini hisobga olish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, haykaltaroshlik bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Haykaltaroshlik mashg‘ulotlari orqali talabalarda fazoviy tafakkur, badiiy idrok, estetik dunyoqarash hamda ijodiy mustaqillik samarali tarzda rivojlanadi. Bu esa ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatida tasviriy san’at fanini mazmunli va samarali o‘qitishiga zamin yaratadi.

Haykaltaroshlik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga, san’at qonuniyatlarini chuqur anglashga va ularni pedagogik faoliyatda qo‘llay olishga imkon beradi. Shuningdek, mazkur mashg‘ulotlar davomida talabalarda kasbiy mas’uliyat, mehnatsevarlik, sabr-toqat va ijodiy faollik kabi muhim shaxsiy sifatlar shakllanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini haykaltaroshlik orqali rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslangan, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish ta’lim samaradorligini oshiradi. Ushbu jarayonda ilmiylik, amaliy yo‘naltirilganlik, ijodiylik, tizimlilik va individuallashtirish tamoyillariga amal qilish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy yetukligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tasviriy san’at yo‘nalishi talabalari uchun haykaltaroshlik mashg‘ulotlarini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini boyitish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rustamovna, A. N., & Muminovna, P. M. (2024). Haykaltaroshlik san’atining umumta’lim maktablarida o ‘quvchilarni dekorativ yondashuvi. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(12), 128-131.

2. Abdullayev, S. A. (2020). Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.

3. To‘xtayev, B. B. (2019). Haykaltaroshlik asoslari. Toshkent: San’at nashriyoti.

4. Hasanov, R. H. (2018). Tasviriy san’at pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.

5. Jabborov, I. A. (2021). Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish masalalari. Pedagogik ta’lim, 4, 45–49

CHALLENGES OF ACHIEVING ENERGY EFFICIENCY IN THE TOURISM SECTOR IN KARAKALPAKSTAN

Muzaffar Rakhimboev
Ibragimova Nazokat
Baymuratov Omirbay
1,2,3Karakalpak State University named after Berdakh, Nukus, Uzbekistan

Abstract: *This scientific article is devoted to the analysis of the problems arising in the process of achieving energy efficiency in the tourism sector in the Republic of Karakalpakstan. The main objective of the study is to assess the state of energy resource use in regional tourism facilities, identify existing barriers and develop practical proposals for increasing energy efficiency. The study used theoretical analysis, questionnaire, semi-structured interview and descriptive-statistical methods. The results obtained showed that the high energy consumption in tourism facilities is mainly associated with outdated infrastructure, poor thermal insulation, lack of energy management systems, and financial and technological constraints. It was also found that, despite the high potential for the use of renewable energy sources, they are not sufficiently implemented in practice. The results of the study are of great importance in developing scientific and practical recommendations aimed at improving sustainable tourism development strategies and increasing energy efficiency in Karakalpakstan.*

Keywords*: tourism, energy efficiency, Karakalpakstan, sustainable development, renewable energy.*

INTRODUCTION

In recent years, the tourism sector has been considered one of the most important factors of economic growth, employment generation and regional development on a global scale. At the same time, the expansion of tourism infrastructure has led to an increase in demand for energy resources, making the issue of energy efficiency an urgent problem. Rational use of energy is an important condition for sustainable development, especially in tourist regions located in ecologically sensitive areas. The Republic of Karakalpakstan is located in the Aral Sea region of Uzbekistan and is characterized by a complex ecological situation, a sharply continental climate and limited resources. In recent years, special attention has been paid to the development of ecological, cultural and ethnotourism in this region. However, low energy efficiency in tourism facilities, outdated infrastructure and insufficient introduction of modern energy-saving technologies hinder the sustainable development of the sector. Energy efficiency allows tourism enterprises to reduce operating costs, improve the quality of services and reduce the negative impact on the environment. Nevertheless, there are problems such as underdevelopment of energy

management systems in hotels, resorts and tourist facilities located in Karakalpakstan, financial and technological constraints, as well as a lack of specialist qualifications. The relevance of this study is explained by the need to identify the main problems that hinder the achievement of energy efficiency in the tourism sector in the conditions of Karakalpakstan and to scientifically analyze their causes. The results of the study are of practical importance in improving regional tourism development strategies, introducing energy-saving technologies and forming a sustainable tourism model. The purpose of this article is to identify the main problems in achieving energy efficiency in the tourism sector in Karakalpakstan and develop scientifically based conclusions on their elimination.

LITERATURE

In recent years, the issue of energy efficiency in the tourism sector has been widely studied internationally and nationally. Studies show that tourism facilities, especially hotels, have a high share in total energy consumption, with the main costs being heating, cooling, lighting and hot water supply. World experience has shown that by improving energy efficiency, the operating costs of tourism enterprises can be reduced by 20–40 percent. International literature considers energy efficiency to be an important component of sustainable tourism. Researchers point to the use of renewable energy sources, the introduction of energy management systems and environmental certification mechanisms as effective tools. At the same time, it is noted that the lack of financial resources and institutional problems in developing regions hinder the widespread introduction of energy-saving technologies. In scientific sources for Uzbekistan and the Central Asian region, energy efficiency is mainly studied in the industrial and housing sectors, and studies dedicated to the tourism sector are relatively rare. Some local studies have examined the possibilities of energy-efficient lighting systems, thermal insulation and solar energy use in hotel facilities. However, in ecologically complex regions such as the Republic of Karakalpakstan, energy efficiency issues in the tourism sector have not been systematically analyzed. The literature on the Aral Sea region mainly covers environmental problems, climate change and the impact on public health. In the context of sustainable tourism development, the issue of energy efficiency has been considered secondary. Therefore, this study serves to fill the existing scientific gap.

METHODS

This study used a mixed methods approach to identify the problems of achieving energy efficiency in the tourism sector in Karakalpakstan. The study was carried out in several stages. At the first stage, international and local scientific literature, regulatory legal documents, and state programs were studied based on the theoretical analysis method. This analysis made it possible to identify the concept of energy efficiency, key indicators, and best practices used in the tourism sector. At the second stage, empirical research methods were used. A survey was conducted among hotels, guest

houses, and tourist facilities located in Karakalpakstan. The survey was aimed at identifying types of energy consumption, existing technologies, energy costs, and attitudes towards energy conservation. In addition, the opinions of managers and technical staff were studied through semi-structured interviews at some facilities. At the third stage, the data obtained using comparative and analytical methods were processed and the main problems were grouped. Statistical data were summarized through descriptive analysis. The research methodology was developed taking into account the climatic, ecological and economic characteristics of Karakalpakstan. This approach allowed us to identify factors that hinder the improvement of energy efficiency in regional tourism facilities and draw scientifically based conclusions.

RESULTS

The research analyzed the activities of various tourist facilities (hotels, guest houses and resorts) located in the Republic of Karakalpakstan. The results showed that the level of energy efficiency in the tourism sector in the region is low. According to the survey results, the main part of energy consumption in most tourist facilities falls on heating and cooling systems. Especially in the summer season, excessive use of air conditioners leads to a sharp increase in electricity consumption. In winter, it was found that energy losses are high due to insufficient thermal insulation. The results of the analysis showed that energy-saving technologies have been introduced to a limited extent in the majority of the studied facilities. For example, while LED lighting systems are available in some hotels, automated control systems, energy monitoring or the use of renewable energy sources are rare. Solar panels are available only in some newly built facilities, and their efficiency has not been fully assessed. According to the results of the interviews, although facility managers consider energy efficiency important, financial constraints and lack of technical knowledge were noted as the main barriers. It was also found that the level of awareness of the incentive mechanisms provided by the state is low. Overall, the results showed that infrastructural, financial and management problems prevail in achieving energy efficiency in the tourism sector in Karakalpakstan.

DISCUSSION

The results obtained are somewhat consistent with the conclusions presented in international and local literature. In particular, low energy efficiency in tourist facilities located in developing regions is often explained by outdated infrastructure and lack of investment. In the conditions of Karakalpakstan, environmental and climatic complexities are also added to these factors. Sharp continental climatic conditions inevitably increase energy consumption. However, the results of the study show that high energy consumption is associated not only with the climatic factor, but also with low energy efficiency of buildings. The lack of thermal insulation, modern windows and efficient cooling systems increases energy losses. Despite the high potential for the use of renewable energy sources for the territory of Karakalpakstan, this potential is

not being fully utilized in practice. This is explained by problems with technical maintenance, a shortage of specialists and high initial investment costs. International experience shows that state subsidies and tax incentives play an important role in mitigating these problems. The study also revealed the lack or underdevelopment of energy management systems. This situation limits the ability to control and optimize energy consumption. Energy audits and digital monitoring systems are cited in the literature as effective tools for improving energy efficiency, but this practice has not yet been widely implemented in Karakalpakstan. Overall, this study shows that achieving energy efficiency in the tourism sector in Karakalpakstan requires an integrated approach. The results have important scientific and practical significance in developing regional development strategies, especially in the development of sustainable and ecological tourism.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

This study was devoted to identifying and analyzing the problems of achieving energy efficiency in the tourism sector in the Republic of Karakalpakstan. The results of the study showed that the efficiency of using energy resources in most tourism facilities in the region is low. The main reasons for this were outdated infrastructure, limited implementation of energy-saving technologies, lack of financial resources, and lack of knowledge and experience in energy management. Studies have shown that the main part of energy consumption falls on heating and cooling systems. Insufficient thermal insulation in a sharply continental climate further increases energy losses. Although there are opportunities for using renewable energy sources, their level of application in practice remains low.

In order to eliminate these problems and increase energy efficiency in the tourism sector, the following practical proposals have been developed: Phased modernization of tourism facilities, including improving thermal insulation, introducing energy-efficient windows and modern heating and cooling systems. Wider introduction of renewable energy sources, especially the development of solar energy use based on projects appropriate to regional conditions. Introduction of energy management and monitoring systems, constant control and optimization of consumption through energy audits. Strengthening state incentive mechanisms, including support for small tourism businesses through tax incentives, subsidies and grants. Improving personnel skills, organizing training programs on energy efficiency for tourism sector employees. Introduction of the concept of sustainable tourism at the regional level, harmonizing energy efficiency with environmental and social development. The implementation of these proposals will contribute to the sustainable development of the tourism sector in Karakalpakstan, rational use of energy resources and reduction of the environmental burden.

REFERENCE:

1. UNWTO. Tourism and Sustainable Development. Madrid: World Tourism Organization, 2019.
2. International Energy Agency (IEA). Energy Efficiency in Buildings. Paris, 2020.
3. Gössling S., Peeters P. Tourism and Climate Change Mitigation. Routledge, 2015.
4. Decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan. Documents related to increasing energy efficiency.
5. Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. Reports on energy saving and renewable energy sources.
6. Karimov A., Khudoyberganov R. Issues of sustainable tourism and energy efficiency. Tashkent, 2021.
7. Department of Statistics of the Republic of Karakalpakstan. Tourism and energy indicators.
8. Sharipov B. Energy-saving technologies in the development of tourism infrastructure. Scientific article, 2022.
9. World Bank. Energy Efficiency and Sustainable Tourism Development. Washington DC, 2018.
10. ISO 50001. Energy Management Systems – Requirements with Guidance for Use.

MONTESSORI YONDASHUVIDAGI O‘YINCHOQLAR DIZAYNINING SEZISH, HARAKATLANISH VA KOGNITIV RIVOJLANISHGA TA’SIRI

ВЛИЯНИЕ ДИЗАЙНА ИГРУШЕК ПО МЕТОДИКЕ МОНТЕССОРИ НА СЕНСОРНОЕ, МОТОРНОЕ И КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ.

THE IMPACT OF MONTESSORI TOY DESIGN ON SENSORY, MOTOR, AND COGNITIVE DEVELOPMENT

X.F.Mustafoyeva
1-Kurs magistri
Sanoat dizayni kafedrasi
I.Karimov. nomi. TDTU.
Email: ximoyatmustafoyeva.freelancer.25@gmail.com
Ilmiy rahbar:
U.B. Axmedjanova
Dotsent Sanoat dizayni kafedrasi dotsenti
I.Karimov. nomi. TDTU.
Email: madina-bonuw@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Montessori yondashuvi asosida yog‘och o‘yinchoqlar va harakat trapetsiyasining (“Pikler” uchburchagi) bolalar sensor, montor va kongnitiv rivojlanishdagi ta‘siri ilmiy tahlil qilingan. Minimalistik dizayn, tabiiy materiallar, ergonomik shakllar va pedagogik tamoyillar asosida loyihaning rivojlantiruvchi muhiti bolaning mustaqilligi, aqliy va ruhiy rivojlanishiga yordam berishi ko‘rsatilgan. Maqolada Montessori muhitining dizayn mezonlari, harakat trapetsiyasining anatomik va geometrik afzalliklari, yog‘och o‘yinchoqlar orqali sensor integratsiya jarayonining faollashuvi chuqur yoritilgan.

Kalit so‘zlar*:* *Montessori yondashuvi , “Pikler” uchburchagi, tabiiy materiallar, bolalar dizayni, sensor rivojlanish, motor rivojlanish, kognitiv rivojlanish, ergonomika, yog‘och o‘yinchoqlar, sensor integratsiya.*

Аннотация: *В данной статье проводится научный анализ влияния деревянных игрушек и трапеция движения (треугольник Пиклера) на сенсорное, моторное и когнитивное развитие детей в соответствии с принципами Монтессори. Показано, что развивающая среда проекта, основанная на минималистском дизайне, натуральных материалах, эргономичных формах и педагогических принципах, способствует самостоятельности, умственному и духовному развитию ребенка. В статье подробно рассматриваются критерии проектирования среды Монтессори,*

анатомические и геометрические преимущества трапеции движения, а также активизация процесса сенсорной интеграции посредством деревянных игрушек.

Ключевые слова: *принцип Монтессори, треугольник Пиклера, натуральные материалы, детский дизайн, сенсорное развитие, моторное развитие, когнитивное развитие, эргономика, деревянные игрушки, сенсорная интеграция.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the effects of wooden toys and movement trapezium (Pikler's triangle) on children's sensory, motor and cognitive development based on the Montessori approach. The project-developing environment based on minimalist design, natural materials, ergonomic shapes and pedagogical principles is shown to help children's independence, mental and spiritual development. The article deeply covers the design criteria of the Montessori environment, the anatomical and geometric advantages of movement trapezium, and the activation of the sensory integration process through wooden toys.*

Keywords*: Montessori approach, Pickler's triangle, natural materials, children's design, sensory development, motor development, cognitive development, ergonomics, wooden toys, sensory integration.*

KIRISH

So‘nggi yillarda bolalar uchun xona dizaynini yaratish va pedagogik yondashuvlar kesishgan nuqtada, tabiiy materiallardan tayyorlangan, minimalistik, sensor va motor rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiluvchi Montessori o‘yinchoqlaridan foydalanish tendensiyasi shakllana boshladi. Bolaning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi, bola fikrlashining mustaqillik darajasi va idrok etish salohiyati ko‘p jihatdan uning atrofini o‘rab turuvchi predmetlar tizimiga bog‘liq. Shu sababli, “Pikler uchburchagi” (motor yoki harakat trapetsiyasi), yog‘ochli muvozanat elementlari, bloklar va shu kabi maqsadli o‘yinchoqlar zamonaviy interyer dizayni uchun nafaqat estetik, balki funksional rivojlantiruvchi komponent sifatida qaralmoqda. Montessori metodikasi yordamida bolani atrof-muhit bilan faol o‘zaro ta’sirda bo‘lishga, mustaqil kashfiyotlar qilishga va kognitiv jarayonlarni tabiiy yo‘l bilan rivojlantirishga yo‘naltirish mumkin. Mazkur yondashuvda harakat trapetsiyasi va boshqa yog‘och o‘yinchoqlar

bolaning harakatlanish ko‘nikmalarini mustahkamlash, sezish (sensor) tajribasini boyitish va ijodkorlikni rag‘batlantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada Montessori tamoyillari asosida ishlab chiqilgan o‘yin muhitining sezish, harakatlanish va kognitiv rivojlanishga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy tahlil qilinib, dizayn nuqtai nazaridan harakatlanish trapetsiyasi va yog‘och o‘yinchoqlarning zamonaviy bolalar xonasidagi o‘rni chuqur yoritiladi.

Montessori yondashuvining dizayndagi o‘rni

Past balandlikdagi tokchalar, oddiy shaklli va tabiiy rangga ega o‘yinchoqlar, xavfsiz materiallar hamda funksional predmetlardan iborat Montessori muhiti bolaning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash uchun yaratiladi. Ushbu tamoyillarning dizaynda qo‘llanilishi quyidagi afzalliklarni keltirib chiqaradi:

Tabiiy muhit – yog‘och, paxta va boshqa biologik materiallar bolada tinchlik va xavfsizlik hissini uyg‘otadi.

Minimalizm – ortiqcha vizual qo‘shimchalar bolani chalg‘itmaydi, diqqat markazini mustahkamlaydi.

Ergonomika – yoshiga mos balandlikdagi jihozlar, qulay hajmdagi o‘yinchoqlar va moslashuvchan o‘yin maydonchalari bolaning kattalar yordamisiz tanlov qilishiga imkon beradi.

Estetik uyg‘unlik – vizual jihatdan jozibali, shu bilan birga, rivojlanishga yo‘naltirilgan makon.

Bu jihatlar harakat trapetsiyasi va yog‘och o‘yinchoqlarni estetik va rivojlantiruvchi obyekt sifatida birinchi o‘ringa olib chiqadi.

Sensor rivojlanish bolaning dunyoni idrok etish, predmetlarni farqlash va sezgi tizimining uyg‘un ishlashiga asos bo‘ladi. Yog‘och o‘yinchoqlar va harakatlanish trapetsiyasi bu borada, tabiiy tekstura orqali sezgi integratsiyasi, sezgi-harakat integratsiyasi, ruhiy mo‘tadillik kabi imkoniyatlarni yaratadi. Yog‘ochning iliq, silliq yoki yengil qo‘pol sathlari bola uchun real sezgi tajribasini taqdim etadi. Bunda yog‘och o‘yinchoqlar plastikdan farqli ravishda issiqlikni boshqacha o‘tkazadi, og‘irlik markazi tabiiy bo‘ladi, ovoz va tebranishlar organik seziladi. O‘yin jarayonida bu kabi sezgi signallarining boyligi neyron aloqalarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Harakat trapetsiyasi (“Pikler uchburchagi”) orqali bola qo‘llari bilan ushlash, oyoqlari bilan tiranish, tanasini muvozanatlash orqali sezgi tizimlari va tana harakatlarini o‘zaro uyg‘unlashtiradi. Bu jarayon natijasida, vestibulyar tizim kuchayadi, tanani fazoda his qilish (propriosepsiya) rivojlanadi, tana bo‘ylab harakatlanish neyron yo‘llari faollashadi. To‘g‘ri tanlangan ranglar, oddiy shakllar va tartibli o‘yin jarayoni bolada ortiqcha qo‘zg‘aluvchanlikning kamayishi, diqqatning yuqori darajada shakllanishi, stressning pasayishi kabi natijalarga olib keladi.

Montessori uslubining harakat rivojlanishiga ta’siri

Harakat rivojlanishi bolaning jismoniy koordinatsiyasi, mushak kuchi, muvozanati va harakat nazorati bilan bog‘liq bo‘lib, harakat trapesiyasi va yog‘och o‘yinchoqlar bu

jarayonning markazida turadi. Harakat trapetsiyasi bolani mustaqil harakatga rag‘batlantiradi: yuqoriga chiqish, pastga tushish, yon tomonlarga og‘ish, oyoq-qo‘l koordinatsiyasini sinxronlashtiradi, mushak-skelet tizimini mustahkamlaydi va yengil risk-taking (xavf) – bolaning jasorati va o‘ziga ishonchini oshiradi. Bu jarayonlardagi har bir harakat mustaqil rivojlanish bosqichiga mos keladi.

Yog‘och blok bilan o‘ynash bolada mayda motorika; barmoq kuchi, qo‘l-ko‘z koordinatsiyasi, fazoviy tasavvur rivojini ta’minlaydi. Yog‘och ko‘prikchalar, muvozanat doskalari va harakat trapetsiyalari bolaning dinamik stabilizatsiya qobiliyatini oshiradi. Bu esa kelgusida yozuv, sport faoliyatlari, kundalik harakatlar samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kognitiv rivojlanishga ta’siri

Montessori o‘yinchoqlarining eng samarali jihatlaridan biri – bola tomonidan mustaqil fikrlash jarayonini rag‘batlantirilishi. Yog‘och o‘yinchoqlar erkin rivojlantiruvchi o‘yinlar toifasiga kiradi, ko‘p funksiyali emas, shuning uchun bola o‘zi senariy yaratadi, o‘zi rollar o‘ylab topadi, o‘zi fikrlaydi, muammoni mustaqil hal etadi. Natijada, bolaning ijodkorlik va moslashuvchan fikrlash qobiliyati yaxshi shakllanadi.

Shuningdek, harakat trapetsiyasida harakatlanganda bola og‘irlik markazi o‘zgarishini, qadam qo‘yish oqibatini, kuch va tezlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni real vaqt rejimida his qiladi. Bu – amaliy fizika, muhandislik va fazoviy tafakkurning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Montessori muhitining yana bir eng muhim jihatlaridan biri tanlov erkinligi asosida bola qaysi o‘yinchoqni tanlash, qaysi harakatni bajarish, qanday qurilish yoki ko‘tarilish strategiyasini qo‘llashni o‘zi hal qiladi. Kichik lekin bola uchun muhim bo‘lgan qarorlar ichk motivatsiya va intizomni kuchaytiradi.

Dizayn nuqtai nazaridan trapetsiya va yog‘och o‘yinchoqlarning ahamiyati

The table of strategic directions for improving lending efficiency includes four main areas - the policy of banking and financial institutions, financial management of enterprises, state incentives and digital-innovative tools. The main tasks and expected results of each area are identified, and this table helps to systematically understand strategic measures to improve lending efficiency.

Within the framework of classical economic theories, the work of J.M. Keynes is of great importance in explaining the relationship between credit and investment. In his work “The General Theory of Employment, Interest and Money”, Keynes emphasized the dependence of investment decisions on financial conditions, including the availability of credit resources. This approach creates a theoretical basis for understanding the role of credit in stimulating real sector enterprises. Following Keynes’s theory, P. Samuelson’s integrated economic models are used to determine the impact of investment and credit on macroeconomic growth, as well as the importance of the efficient allocation of financial resources.

Within the framework of modern research, special attention is paid to studies analyzing the effectiveness of lending and its impact on the financial stability of enterprises. R. Barro in his article “Economic growth in a cross section of countries” shows that financial mechanisms that stimulate investment activity, in particular, the accessibility of credit resources to enterprises and the efficiency of financial institutions, have a significant impact on economic growth. At the same time, M. Porter’s work “Competitive advantage” emphasizes the importance of effective use of financial resources and strategic management in increasing the competitiveness of enterprises. Lending mechanisms are considered as a means of ensuring

[16] Prepared by the author based on information.

competitiveness, especially in financing innovative projects and expanding production capacities.

The study also highlights the role of digital technologies and innovative financial instruments in optimizing and increasing the efficiency of lending mechanisms. Modern financial technologies, such as electronic credit platforms, online monitoring systems and algorithmic credit scoring systems, accelerate the lending process, increase transparency and reduce risks. At the same time, innovative financial instruments, such as leasing and factoring, are considered effective tools for financial support of real sector enterprises.

An analysis of the relevant literature shows that in order to develop the real sector and ensure its financial stability, lending mechanisms should be implemented through a systematic approach, strategic management, risk diversification and state incentives. At the same time, empirical research and practical experience allow for a significant increase in efficiency through the digitalization of lending mechanisms and the introduction of innovative financial instruments.

In general, the analysis and recommendations presented in the article serve to identify strategic directions for effective management and improvement of the lending process in the real sector of the economy. These recommendations are practically aimed at developing financial management systems of banking and financial institutions, state bodies and enterprises, as well as forming scientifically based approaches that serve the sustainable growth of the real sector. In this regard, the results of the article are of relevance not only for scientific research, but also for the development of practical financial management and investment strategies.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Sh. Khojayev. Investment and credit resources management. Tashkent: Ilm-fan, 215 p. – 2012.

2. R.Karimov. Improving the bank lending system. Tashkent: Economics and Finance, 220 p. – 2014.

3. B. Toshpulatov. Financial risk management in enterprises. Tashkent: Ilm-fan, 184 p. – 2016.

4. A. Kadyrov. Real sector financing strategies. Tashkent: Fan, 210 p. – 2019.

5. F.Mishkin. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. *Pearson Education*, 624 p. – 2015.

6. R.Levine, N.Loayza, T.Beck. Financial Intermediation and Growth: Causality and Causes. *Journal of Monetary Economics*, 46(1), 31–77. – 2000.

7. J.Stiglitz, A.Weiss. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. *American Economic Review*, 71(3), 393–410. – 1981.

8. D.Diamond, P.Dybvig. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity. *Journal of Political Economy*, 91(3), 401–419. – 1983.

9. J.Schumpeter. *The Theory of Economic Development.* Harvard University Press, 255 p. – 1934.

CLASSIFICATION OF ANTONYMS AND SYNONYMS

4th year student of Fergana State University
Mahmudova Mohira Qobiljon qizi
mahmudovamohira2004@gmail.com

Abstract: *This article provides information about the classification of antonyms and synonyms and their role in the Uzbek language. It is analyzed that synonyms are words that are close to each other in meaning, and antonyms are words that are opposite in meaning, and their importance in increasing the richness of the language. Each type is divided into classes, which are analyzed in terms of linguistic features.*

Key words: *Synonym, antonym, classification, Uzbek language, linguistics, similar meaning, contrast.*

Аннотация:*В данной статье представлена информация о классификации антонимов и синонимов и их роли в узбекском языке. Анализируется, что синонимы – это слова, близкие друг другу по значению, а антонимы – слова, противоположные по значению, и их значение в увеличении богатства языка. Каждый тип делится на классы, которые анализируются с точки зрения языковых особенностей.*

Ключевые слова: *Синоним, антоним, классификация, узбекский язык, лингвистика, сходство значений, контраст.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola antonim va sinonimlarning tasnifi va ularning o‘zbek tilidagi roli haqida ma’lumot beradi. Sinonimlar – ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlar, antonimlar esa – ma’nosi qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlar ekanligi va ularning tilning boyligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Har bir tur sinflarga ajratilib, ular lingvistik xususiyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Sinonim, antonim, tasnif, o‘zbek tili, tilshunoslik, ma'no o'xshashligi, qarama-qarshilik.*

We know that language plays an important role in human communication, shaping the ability to convey thoughts, feelings and ideas with clarity and variety. Within the branches of linguistics, synonyms and antonyms play an important role and serve as basic linguistic tools that improve our understanding and use of language. Below we have created an infographic that highlights the main difference between antonym and synonym:



The classification of synonyms and antonyms is a complex and demanding subject, involving varying degrees of similarity, context-specific usage, and underlying connotations. The study of complex systems of synonyms and antonyms, the analysis of different categories and their significance in linguistics are important to linguistics, and through these important parts of linguistics we understand how word relationships affect meaning, tone, and style, both in our everyday language and in literary discourse. Classification of synonyms and antonyms is one of the important topics in linguistics. Synonyms are words with the same or similar meaning and help to enrich the language.[5;102] They are divided into different types that are close in meaning, but differ in stylistic and emotional meaning. Synonyms are classified into four main types:

• Full synonyms are words that can completely replace each other (for example, "linguistics" and "linguistics").

• Semantic synonyms - words that differ in meaning, but express a similar idea (for example, "brave", "brave", "fearless").

• Contextual synonyms are words that are interchangeable only in the context (for example, "poet", "writer", "writer").

• Stylistic synonyms - synonyms expressing an emotional, expressive meaning (for example, "face", "face", "turq"). [1; 265].

Understanding the denotative and connotative aspects of synonyms is also important in language. By first knowing what denotation and connotation are, we can understand how synonyms are related to them. Denotation refers to the word-for-word meaning of a word, its definition in a dictionary, that is, the exact meaning of a word.

For example, the word "home" refers to a place where people live, the definition is clear and objective, and allows effective communication. Connotation refers to a meaning other than the literal meaning of the words, for example, "home" is not a house where someone lives, but rather a word that can evoke feelings of warmth, security and family in many people. Synonyms often have denotative meanings, but their connotative aspects can vary greatly. For example, if we take the word "kprshapalak", denotatively it is a simple animal-type creature, but connotatively it can mean evil, darkness or danger. Understanding these differences plays a very important role, especially in different fields, which can have a significant impact on the perception and emotional response of listeners [2;229].

Antonyms are commonly used in English and have characteristics that add color to speech. By using antonyms, ideas can be expressed more clearly and effectively. [3;83] These are words with different forms and opposite meanings. Antonyms are divided into lexical, affixal and syntactic types:

• Lexical antonyms: This type of antonyms represent opposite meanings of words, for example, "tall - short", "long - short".

• Affixal antonyms: In this type, affixes (prefixes or suffixes) of words are used, for example, "watery - without water".

• Syntactic antonyms: In this type, words are used together in sentences, for example, "open face — tund bashara". The denotative and connotative aspects of antonyms involve understanding both their specific meanings and their implied meanings, which may change depending on the context. If we look at the antonyms "hot" and "cold" denotatively, they can only mean opposite temperatures. As for the connotation aspect, it can greatly affect how antonyms are perceived. For example, although the words "thin" and "fat" are direct antonyms, their meanings may evoke different feelings or judgments in society. "Thin" can connote elegance or health, while "fat" can connote negativity or intemperance, depending on the cultural context. [4; 45].

These most important parts of linguistics are important in the enrichment and expression of language, and their classification can be used in different contexts. For example, antonyms are often used to show the difference between adjectives, actions, or states, while synonyms are used to make a concept more understandable. In general, antonyms and synonyms are basic structures of language through which ideas can be expressed clearly and effectively. And their correct use provides logic in written and spoken speech, which helps to strengthen communication. Therefore, learning to work with these words is essential for every language learner.

REFERENCES:

1. Cruse, D. A. Lexical Semantics. Cambridge University Press, 1986, 265-270 p.
2. Lyons, J. Semantics. Cambridge University Press, 1977, 229-234 p.
3. Palmer, F. R. Semantics. Cambridge University Press, 1981, 83-87 p.
4. Murphy, M. L. Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy, and Other Paradigms. Cambridge University Press, 2003, 45-49 p.
5. Jackson, H., & Amvela, E. Z. Words, Meaning and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology. Continuum, 2000, 102-105 p.

BOSHQARUV RAHBARLARINING TA’LIM TIZIMI: O‘ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA TAHLILI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Innovatsion menejment fakulteti
3-kurs MNP-76 guruh talabasi
Ahmedova Diyora Yoqub qizi
E-mail: yoqubovnadiyora77@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Ibragimov G'anijon G'ayratovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi boshlig'i,
Innovatsion menejment kafedrasi dotsenti Phd,
E-mail: g.ibragimov@tsue.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshqaruv rahbarlarini tayyorlash tizimlari, ularning asosiy bosqichlari va yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Hamda O‘zbekiston va dunyo miqyosida rahbarlar o’qitish tizimilari universitetlar tomonidan taqqoslanmalari va natijalarini, shuningdek, hozirgi kundagi rahbarlarni o'qitish tizimlaridagi asosiy muammolar va xatolar, hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: boshqaruv rahbarlari, ta'lim tizimi, rahbarlik ko'nikmalari, liderlik, professional rivojlanish, MBA dasturlari, yumshoq ko'nikmalar, mentorlik, korporativ ta'lim, strategik rejalashtirish, emotsional intellekt, biznes etikasi, ijtimoiy mas'uliyat, raqamli transformatsiya, hayotiy o'rganish, madaniy moslashtirish, innovatsion fikrlash, jamoaviy ishlash, kommunikatsiya ko'nikmalari, amaliy tajriba.*

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida har qanday tashkilot muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning rahbariyat tizimiga bog'liq. Rahbar - bu tashkilot maqsadlariga erishish uchun jamoani boshqaradigan, qarorlar qabul qiladigan va resurslarni samarali taqsimlaydigan shaxs. Rahbarning asosiy vazifalari strategik rejalashtirish, xodimlarni boshqarish, moliyaviy resurslarni nazorat qilish, qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Bizga nima uchun rahbar kerak? Birinchidan, tashkilotda tartib va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni ta'minlash uchun. Ikkinchidan, xodimlar o'rtasida koordinatsiyani amalga oshirish va ularning mehnatini samarali tashkil etish uchun. Uchinchidan, tashqi muhit bilan munosabatlarni boshqarish va tashkilot manfaatlarini himoya qilish uchun.

Qaror qilishdan tashqari butun bir xodimlar ya’ni inson resurslari boshqarish rahbarning bo’ynida, shuning uchun ham ularda aynan rahbarlik fazilatlari bo’lishi kerak, masalan liderlik. Liderlik - bu rahbar yoki yetakchining boshqalarni

ilhomlantirishi, boshqarishi va maqsad sari yetaklay olishini ta’minlaydigan **shaxsiy sifatlar majmui**. Lider va rahbar o'rtasidagi farqni tushunish muhim ahamiyatga ega, ayniqsa bizda ba’zi liderlar rahbarbarlar uchun haqiqiy raqib. Rahbar - bu rasmiy lavozim va vakolat egasi bo'lib, u tashkilot ierarxiyasida belgilangan o'ringa ega. Lider esa - bu shaxsiy ta'sir kuchi, karizmatik xususiyatlari va jamoani ilhomlantirish qobiliyati bilan ajralib turadigan shaxs, albatta rahbar qo’l ostida bular odatda rahbar yordamchilari, bo’lim boshliqlari yoki ideal holda, samarali rahbar bir vaqtning o'zida lider ham bo'lishi kerak. Rahbar buyruq beradi, lider esa ilhomlantiradi; rahbar nazorat qiladi, lider esa ishonch hosil qiladi, rahbar qisqa muddatli natijalarga e'tibor beradi, lider esa uzoq muddatli istiqbolni ko'radi.

Rahbarlarni boshqaruv tizimida yetishtirib chiqarish butun bir jamiyatning bir burchi hisoblanadi,oila, maktablar universitetlar butun bir o’qitish tizimida rahbarlik yoki globallashuv tilida aytganda boshqaruvdagi liderlarni yetishtirib chiqarishda kata ahamiyatga ega hamda butun bir kelajakni ifodalashadi zero tinchlik har doim birinchi o’rinda bo’lib kelgan, xoh u korxona, kompaniyalarda bo’lsin, xoh davlat, xoh oilada.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy tashkilotlar samaradorligi ko'p jihatdan rahbariyat tizimining sifatiga bog'liq bo'lib, bu masala bo'yicha xalqaro va milliy miqyosda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu adabiyotlar sharhi rahbarlik va liderlik masalalarini turli nuqtai nazardan o'rganuvchi manbaлapni tahlil qiladi.

The Professional Development[17] bo'yicha tadqiqotlar dunyodagi mashhur rahbarlar faoliyatini tahlil qilar ekan, samarali rahbarlik uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalarni aniqlaydi. Ushbu tadqiqotlarda qaror qabul qilish qobiliyati, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va strategik fikrlash qobiliyati rahbarning asosiy belgilari sifatida ta'kidlanadi. Harvard Center on the Developing Child tomonidan olib borilgan fundamental tadqiqotlar rahbarlik ko'nikmalarining shakllanishida bolalik davri muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi[18]. Harvard bolalar ta'limi bo'yicha tadqiqotlari shuni isbotlaydiki, "Bizga hayotning har bir bosqichida bu ko'nikmalar kerak va hech kim ular bilan tug'ilmagan bo'lsa-da, biz hammamiz bu va boshqa asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish qobiliyati bilan tug'ilganmiz." Bu xulosa rahbarlik sifatlarining tug'ma emas, balki rivojlantirilishi mumkin bo'lgan kompetensiyalar ekanligini tasdiqlaydi. Harvard Center on the Developing Child ning empirik tadqiqotlariga ko'ra, bolalarga kichik yoshidan boshlab oddiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini berish ularning kelajakda rahbar bo'lib chiqish ehtimolini 30-40% ga oshirishi aniqlangan[19]. Bu ko'rsatkich erta yoshdagi tajriba va ta'limning uzoq muddatli ta'sirini miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi.

Genius Global tahlillariga ko'ra, 2024-2025 yillarda dunyo bo'yicha rahbarlar o'qitish bozori qiymati 94.47 milliard AQSh dollariga yetdi va bu ko'rsatkich 2026 yilda

[17] https://www.researchgate.net/publication/292591448_Professional_Development_and_the_Profession
[18] https://developingchild.harvard.edu/resources/working-paper/mattering-in-early-childhood/
[3] https://developingchild.harvard.edu/resources/working-paper/mattering-in-early-childhood/

104.01 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda. Bu raqamlar rahbarlik ta'limiga bo'lgan global talabning o'sish tendentsiyasini aniq ko'rsatadi. Bozorning yillik o'sish sur'ati tashkilotlar rahbar kadrlar tayyorlashni strategik ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilayotganidan dalolat beradi. Jahon miqyosidagi tadqiqotlar tashkilotlarning 77 foizi rahbar yetishmovchiligi sababli samaradorlik muammolariga duch kelayotganini aniqlagan. Bu statistika malakali rahbarlar tayyorlash dasturlariga investitsiya qilish zaruratini asoslaydi.

Research.com tomonidan o'tkazilgan keng qamrovli tadqiqotlar samarali tashkil etilgan rahbarlik treninglarining konkret natijalarini miqdoriy jihatdan ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, ixtisoslashtirilgan o'qitish dasturlari ishtirokchilarda quyidagi ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi: o'rganish natijalari 25% ga, ish samaradorligi 20% ga va rahbarlik xulq-atvorlari 28% ga yaxshilanadi. Bu empirik ma'lumotlar rahbarlik ta'limining nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va real boshqaruv vazifalarida qo'llash qobiliyatini oshirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.[20]

Worldly Journals nashri O'zbekiston ta'lim tizimida rahbarlar tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarni tahlil qiladi. Tadqiqotlarda maktab va oliy ta'lim muassasalarida pedagogik liderlik va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha transformatsiyachi liderlik modellarining qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Bu yondashuv rahbarlarning o'zgarishlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim sifatini va tashkilot samaradorligini oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi.[21]

InLibrary platformasida joylashtirilgan tadqiqotlar O'zbekistonda yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan liderlik dasturlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida liderlik, jamoa bilan ishlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi loyihalar, jumladan Zakovat loyihasi va respublika miqyosidagi munozara debat o'yinlari, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.[22] O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida rahbarlar tayyorlash tizimi rivojlanmoqda. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Management Development Institute of Singapore in Tashkent va Westminster International University in Tashkent kabi nufuzli ta'lim muassasalari menejment, biznesni boshqarish, strategik rejalashtirish va tashkilotlarni boshqarish yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan dasturlarni taklif etadi. Bu dasturlar case study usuli, biznes simulyatsiyalari va real korxonalar bilan hamkorlik asosida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar orqali minglab talabalarni yetuk boshqaruv kadrlari sifatida tayyorlashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda rahbarlik va liderlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, ularning shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy ta'lim tizimida rahbarlar tayyorlashning

[20] https://research.com/careers/leadership-training-statistics?
[21] https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/18357?
[22] https://inlibrary.uz/index.php/tafps/article/view/70025?

optimal yo'llari kompleks tarzda o'rganildi. Buning uchun xalqaro va milliy tajribalarni taqqoslash, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va nazariy-metodologik yondashuvlarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rahbar kim? Bu savolga javob turli tomonli bo'lishi yoki turli qarashlarga bog'liq bo'lishi mumkin lekin birinchi o'rinda, rahbar qaror qabul qiluvchi shaxs, mas'uliyatni bo'yniga ola oladigan eng kuchli odam. Lekin har bir odamda ham rahbarlik yuqoridagi fazilatlar ham bo'lavermaydi yoki shunchaki yetarlicha bo'lmaydi. archasini boshidan ko'rib chiqadigan bo'lsak inson tug'ilibdiki, u jamiyatda shunda uni jamiyat tarbiyalab, jamiyat rahbar qiladimi degan mulohazaga kelishimiz mumkin lekin, bu faqat qarashlarning bir qismi xolos. Odamni bolaligida undagi ko'p o'zgarishlar harakter shakllanishi yoki yuqorida sanab o'tilgan rahbarlik fazilatlari shakllanishi mumkin, lekin vaqt o'tishi bilan shu barchasini o'rgatgan jamiyat uni bildirmasdan olib qo'yishi ham mumkin. Harvard bolalar ta'limiga ko'ra: "Bizga hayotning har bir bosqichida bu ko'nikmalar kerak va hech kim ular bilan tug'ilmagan bo'lsa-da, biz hammamiz bu va boshqa asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish qobiliyati bilan tug'ilganmiz.

Siyosat va dasturlar bolalar yashaydigan, o'rganadigan, o'sadigan va o'ynagan joylarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradigan rivojlanish muhitini ishlab chiqishi mumkin." Va bu ularda oilada tug'ilishimiz bilan boshlanadi. Bu ilmiy tilda ijroiya funksiyasi deyiladi. Oiladagi kommunikatsiya uslubi, muammolarni hal qilish usullari va mas'uliyatni baham ko'rish tajribasi kelajakdagi rahbar shaxsiyatining asosini tashkil etadi. Bolaga kichik yoshidanoq hayotiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini berish, uning fikriga hurmat ko'rsatish va xatolaridan o'rganishga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Harvard Center on the Developing Child[23] tomonidan o'tkazilgan tajribalarga ko'ra bolalarga juda kichik qarorlarni qabul qilishlari ularni kelajakda haqiqiy jamiyatda rahbar bo'lib chiqishlari ehtimolini 30-40% ga oshirishi tajribalarda ko'rib chiqilgan ekan.

Maktablar rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishi kerak va aksariyat dunyo talablariga javob bera oladigan maktablarda bu kabi ko'nikmalar muhim deb hisoblanadi va ularni rivojlantirishda bir necha yo'llarda o'rganiladi. Bu jamoaviy loyihalarda ishtirok etish, sinf yoki maktab kengashlarida faollik ko'rsatish, sport jamoalarida kapitanlik qilish va turli tashkiliy faoliyatlarda rahbarlik tajribasini orttirish orqali amalga oshiriladi. Maktab dasturlarida kommunikatsiya ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilishi lozim. O'qituvchilar o'quvchilarda liderlik sifatlarini aniqlash va ularni rivojlantirishga ko'maklashishi muhim. Chuki ota-onadan tashqari ular bilan eng ko'p bo'ladigan shaxs bu ham ustozlar va ular boladagi qobiliyatlarni yuksaltirish va yo'naltirishda katta ahamiyat kasb etishadi.

[23] https://inlibrary.uz/index.php/tafps/article/view/70025

Maktab ta’limi bosqichidan boshlab o‘quvchilarda menejment, boshqaruv va liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish kelajakda ularning oliy ta’limdagi kasbiy rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktablarda muvaffaqiyatli rahbarlik va boshqaruv namunalariga tayangan ta’lim jarayoni shaxsda mas’uliyat, mustaqil fikrlash va yetakchilik fazilatlarini rivojlantiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida esa muvaffaqiyatli menejer va rahbarlarning faoliyatiga asoslangan ta’lim barqaror rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Inson kapitali nazariyasi, o‘z-o‘ziga ishonch hamda o‘zini o‘zi belgilash nazariyalariga ko‘ra, menejment va liderlikka oid ta’lim talabalarining rahbarlik faoliyatiga bo‘lgan moyilligi bilan ijobiy bog‘liq bo‘lib, ularga zarur bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni beradi hamda kelajakdagi boshqaruv faoliyatini rivojlantirishga undaydi. Ta’lim dasturlarida muvaffaqiyatli boshqaruv va liderlik modellarini o‘rganish talabalarning rahbarlik qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, ularning boshqaruv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi.

Universitetlar nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirgan maxsus ta’lim dasturlarini taklif etishi lozim. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida menejment, biznesni boshqarish, strategik rejalashtirish, moliyaviy tahlil hamda tashkilotlarni boshqarish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha bakalavriat va magistratura dasturlari faoliyat yuritmoqda. Mazkur dasturlar doirasida case study usuli, biznes simulyatsiyalari, amaliyot dasturlari hamda real korxonalar bilan hamkorlik asosida olib boriladigan mashg‘ulotlar talabalarning amaliy boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, universitetlarda talabalar uyushmalari, yetakchilik klublari, turli loyihalar va ijtimoiy tashabbuslar orqali talabalar rahbarlik tajribasini amaliy tarzda egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday faoliyatlar talabalarda mas’uliyat, jamoa bilan ishlash, qaror qabul qilish va strategik fikrlash kabi muhim liderlik kompetensiyalarini shakllantiradi.



1-rasm. Dunyo bo’yicha rahbarlarni o’qitish bo’yicha investitsiya hajmi. [24]

[24] https://www.unesco.org/reports/gem-report/en/2024-leadership-education?

Rahbarlar uchun o‘qitish, ya’ni liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar, zamonaviy ta’lim va tashkilotlarda muhim o‘rin tutmoqda. Bu dasturlar nafaqat biznes sektori uchun, balki davlat boshqaruvi, ta’lim va ijtimoiy sohalar uchun ham strategik ahamiyatga ega. Ular orqali rahbarlar o‘z qarorlarini yanada samarali qabul qilish, jamoani boshqarish hamda murakkab muammolarni hal etish bo‘yicha ilg‘or metod va usullarni egallaydi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarlar uchun o‘qitish dasturlariga investitsiya qilish tashkilotlarning samaradorligini oshiradi va rahbarlar tayyorlash bo‘yicha global bozor juda tez o‘smoqda. Dunyo bo’yicha rahbarlar o’qitish bozoriga e’tibor qaratadigan bo’lsak, global miqyosda rahbarlik va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar bozori katta miqdorda o‘smoqda. Masalan, 2024-2025 yillar statistikasiga ko‘ra, bu bozor qiymati taxminan 94.47 milliard AQSh dollarini tashkil etdi va 2026 yilda u 104.01 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Bu raqamlar yetakchilik o‘qitish dasturlarining yillik o‘sish sur’atlarini ko‘rsatadi.[25] Global tashkilotlarning o‘nlab millardlik bu sohadagi investitsiyalari rahbarlar tayyorlashni muhim strategik yo‘nalishga aylantirganini anglatadi. Buning sababi shundaki, bozor tahlillari rahbarlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan menejerlar bo‘lmagan tashkilotlarda samaradorlik past bo‘lishini ko‘rsatadi. Jahon miqyosida tashkilotlarning 77 % rahbar yetishmovchiligi tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchrayotgani aniqlangan.

Rahbarlar uchun ixtisoslashtirilgan o‘qitish loyihalari, jumladan treninglar, seminarlar va mentorlik dasturlari, professional kompetensiyalarni oshirishda sezilarli natijalar beradi. Tadqiqotlardan ko‘rinishicha, samarali tashkil etilgan rahbarlik treninglari ishtirokchilarda quyidagi o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi:

- o‘rganish natijalari **25 % ga yaxshilanishi**,
- ish samaradorligi **20 % ga oshishi**,
- rahbarlik xulq-atvorlari **28 % ga mustahkamlanishi** aniqlangan.[26]

Bu raqamlar ko‘rsatadiki, rahbarlarni o‘qitish nafaqat bilim beradi, balki ularni real boshqaruv vazifalarida qo‘llash qobiliyatini ham oshiradi.

O‘zbekiston ta’lim va boshqaruv tizimlarida rahbarlar tayyorlash bo‘yicha turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida pedagogik liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy maqolalar mavjud. Bu tadqiqotlar rahbarlarning transformatsiyachi (o‘zgarishni boshqaruvchi) liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga e’tibor qaratadi, shu orqali ta’lim sifatini va tashkilot samaradorligini oshirish mumkinligi ta’kidlanadi. O‘zbekiston sharoitida rahbarlik ko‘nikmalarini shakllantirishda treninglar va seminarlarning roli ham muhim ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari O’zbekistonda yoshlar siyosati oraqli ham turli 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar o’rtasida liderlik, jamoviy qaror qabulqilish kabi rahbarlik fazilarlarini kuchaytiruvchi loyihalar o’tkazilib kelinmoqda. Bu xoh

[25] https://joingenius.com/statistics/leadership-statistics/?
[26] https://research.com/careers/leadership-training-statistics?

universitetlar bilan hamkorlikda, xoh maktablar bilan. Ulardan masalan; Zakovat loyihasi, Munozara debat o'yinlari butun respublika darajasiga allaqachon chiqarilgan. Bu kabi loyihalar rahbarlikning nazariy asoslarini qo'lga kiritish bilan birga, real boshqaruv muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro va iqtisodiy kontekstda samarali menejerlar tayyorlash uchun Toshkentda joylashgan **Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Management Development Institute of Singapore in Tashkent yoki Westminster International University In Tashkent** kabi institutlar va universitetlar mavjud bo'lib, bu kabi loyiha dasturlar orqali minglab talabalar yetuk boshqaruv kadrlari sifatida shakllangan.

Dastur	Ajratilgan mablag'	Yil
Zakovat intellektual turnirlar	50 milliard so'm	2022
"Besh tashabbus olimpiadasi" mukofot jamg'armasi	600 million so'm	2024
"Yosh tadbirkor" tanlov g'oliblari krediti	BHMning 1000 baravarigacha	2024
"Yoshlar daftari" jamg'armasi	444 milliard so'm	2023
Yoshlar oromgohida "Intellektual maktab"	Davlat byudjeti	2022

2-rasm. Yoshlar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash.[27]

XULOSA

Mazkur maqolada boshqaruv rahbarlarini tayyorlash tizimlari batafsil ko'rib chiqildi. Ularning asosiy bosqichlari, yo'nalishlari va bugungi kundagi dolzarb muammolari tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali rahbarlarni yetishtirish jarayoni faqat oliy ta'lim bilan cheklanib qolmay, balki oila, maktab va universitetlarning uzviy hamkorligini talab etuvchi strategik ahamiyatga ega tizimli jarayon hisoblanadi. Rahbarlikning mohiyati qaror qabul qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va strategik rejalashtirish kabi funksiyalarni bajarishdan iborat. Shuningdek, samarali boshqaruv uchun rahbarning shaxsiy ta'sir kuchi va jamoani ilhomlantirish qobiliyatiga ega bo'lgan lider sifatlari ham muhimdir. Rahbar buyruq beruvchi bo'lsa, lider ilhomlantiruvchi bo'lib, ideal rahbar har ikkala fazilatni mujassam etishi lozim. Tahlillar, rahbarlik ko'nikmalarining shakllanishi bolalik davrida boshlanishini tasdiqladi. Jumladan, bolalarga kichik yoshdan mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatini berish ularning kelajakda boshqaruv qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu, rahbarlik sifatlarining tug'ma emas, balki rivojlantirilishi mumkin bo'lgan kompetensiyalar to'plami ekanligini ko'rsatadi. Maktablar esa jamoaviy loyihalar va tashkiliy faoliyatlar orqali bu ko'nikmalarni mustahkamlashda davom etadi.

[27] https://lex.uz/docs/-5834314

Oliy ta’lim muassasalari esa nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtiruvchi maxsus dasturlarni taklif etadi. O‘zbekistondagi nufuzli universitetlar biznesni boshqarish, strategik rejalashtirish kabi yo‘nalishlarda malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, yoshlar siyosati doirasidagi turli loyihalar, masalan, "Zakovat" va munozara o‘yinlari kabi tadbirlar orqali yoshlarda jamoa bilan ishlash va qaror qabul qilish kabi muhim fazilatlar kuchaytirilmoqda. Global miqyosda rahbarlarni o‘qitish bozoriga sarmoya kiritish tendensiyasi yuqori bo‘lib, tashkilotlar o‘z samaradorligini oshirishning strategik yo‘li sifatida bu sohani ko‘rmoqda. Tadqiqotlar, ixtisoslashgan treninglar o‘rganish natijalarini, ish samaradorligini va rahbarlik xulq-atvorlarini sezilarli darajada yaxshilashini isbotlagan. Yakuniy xulosa shuki, rahbarlarni tayyorlash – bu uzluksiz, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u ta’limning barcha darajalarini qamrab oladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro tajribalarni keng tatbiq etish, amaliyot va nazariyani uyg‘unlashtirish orqali kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalarini boshqara oladigan yetuk, innovatsion menejer-liderlar yetishtirib chiqarish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.https://www.researchgate.net/publication/292591448_Professional_Development_and_the_Profession

2. https://developingchild.harvard.edu/resources/working-paper/mattering-in-early-childhood/

3. https://developingchild.harvard.edu/resources/working-paper/mattering-in-early-childhood/

4. https://research.com/careers/leadership-training-statistics?

5. https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/18357?

6.https://inlibrary.uz/index.php/tafps/article/view/70025?

7. https://inlibrary.uz/index.php/tafps/article/view/70025

8. https://www.unesco.org/reports/gem-report/en/2024-leadership-education?

9. https://joingenius.com/statistics/leadership-statistics/?

10. https://research.com/careers/leadership-training-statistics?

11. https://lex.uz/docs/-5834314

INTERYERDA NEOKLASSIKA USLUBLARINI QO‘LLASH

Ro‘ziboboyev Azizbek Azamat o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti
E-mail: azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351
Umarov Xusrav Xusniddin o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agratexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya.*zamonaviy qulayliklarni klassik shakl va proporsiyalar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu uslubda sokin ranglar, nafis bezaklar, simmetriya va sifatli materiallar asosiy o‘rin tutadi. Neoklassika uyga hashamatli, tartibli va vaqt sinovidan o‘tgan nafis ko‘rinish beradi.*

Kalit so‘zlar*:* *Neoklassik,Elegant,Nafis,Simmetriya,Mutanosiblik,Klassik detal,Zamonaviy klassika, Sof ranglar, Luks / Hashamatli, Minimal bezakli klassika*

THE USE OF NEOCLASSICAL STYLES IN THE INTERIOR

Ruʻziboboyev Azizbek Azamat oglu
assistant*, Termez State University of Engineering and Agrotechnology*
E-mail: azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351
Umarov Khusrav Khusniddin oglu
Student of Termiz State University of Engineering and Agricultural Technologies

Abstract *Neoclassical is an approach that combines modern comforts with classic shapes and proportions. This style is characterized by calm colors, elegant decorations, symmetry and quality materials. Neoclassical gives a home a luxurious, orderly and elegant look that has stood the test of time.*

Keywords*:Neoclassical,Elegant,Elegant,Symmetry,Proportion,Classic detail,Modern classic, Pure colors, Luxe / Luxurious, Minimal classic*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕОКЛАССИЧЕСКИХ СТИЛЕЙ В ИНТЕРЬЕРЕ

Ruziboboev Azizbek Azamat oglы
Assistent, Termezskiy gosudarstvennыy injenerno-agrotexnologicheskiy universitet
E-mail: azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351
Умаров Хусрав Хусниддин оглы
Студент Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий

Annotatsiya. *Неоклассика — это стиль, сочетающий современный комфорт с классическими формами и пропорциями. Этот стиль характеризуется спокойными цветами, элегантным декором, симметрией и качественными материалами. Неоклассика придаёт дому роскошный, упорядоченный и элегантный вид, выдержавший испытание временем.*

Klyuchevyye *Неоклассический, Элегантный, Элегантный, Симметрия, Пропорции, Классические детали, Современная классика, Чистые цвета, Роскошный, Минималистичный классический*

KIRISH

Zamonaviy interyer dizaynida neoklassika uslubi o‘zining nafisligi, uyg‘unligi va vaqt sinovidan o‘tgan klassik elementlarni zamonaviy qulayliklar bilan birlashtirishi bilan mashhur. Bu uslub nafis detallar, simmetriya va yengil hashamatni yoqtiradiganlar uchun ayniqsa mos keladi. Neoklassika nafaqat hashamatni, balki tartib, muvozanat va sokin muhitni ham ifodalaydi.

Neoklassika Uslubining Asosiy Xususiyatlari

1. Rang palitrasi

Neoklassik interyerda ranglar sokin va nafis bo‘ladi. Eng ko‘p uchraydigan ranglar:

oq va suti ranglar, bej va kulrang tuslar, pastel ko‘k, yashil yoki och jigarrang, oltin

yoki kumush aksentlar. Bu ranglar xona ichida kenglik hissini yaratadi, yorug‘likni yaxshi aks ettiradi va klassik kayfiyatni ta’kidlaydi.

2. Simmetriya va muvozanat

Uslubning asosiy tamoyillaridan biri — simmetriya. Mebel, dekor va yoritish elementlari joylashuvida muvozanat saqlanadi: ikki tomonga qo‘yilgan lampalar, o‘rtaga joylashtirilgan divan, simmetrik rasmlar yoki oynalar. Simmetriya interyerni tartibli va estetik ko‘rinishga keltiradi.

3. Materiallar va fakturalar

Neoklassika tabiiy va sifatli materiallar bilan ajralib turadi: marmar yoki dekorativ tosh, yog‘och mebel, ipak, atlas, zamsh kabi matolar, oltin yoki mis rangli metall elementlar. Ushbu materiallar xonaga hashamat qo‘shadi, ammo haddan tashqari dabdaba yaratib yubormaydi.

4. Mebel shakllari

Neoklassika mebeli klassik shaklda bo‘lsa-da, zamonaviy qulayliklarni o‘z ichiga oladi. Ularning xususiyatlari: yumaloq chiziqlar, o‘yma naqshlar (ammo me’yorida), nozik oltin yoki kumush panellar, zich va sifatli matolar bilan qoplangan divan va kreslolar.

Mebel tanlashda ortiqcha detallarni emas, balki nafislikni afzal ko‘rish kerak.

5. Dekor elementlari

Dekor neoklassikaning eng muhim qismi hisoblanadi. Ular quyidagilar bo‘lishi mumkin: klassik kartinalar, antik ko‘rinishdagi vazalar, yirik kristalli lyustralar, naqshli poydevorlar va gipsli karnizlar, yumshoq gilamlar. Dekor komponentlari me’yorida bo‘lishi zarur, aks holda xona ortiqcha bezaklar bilan to‘lib ketadi.

Neoklassika Uslubini Amaliyotda Qo‘llash Bo‘yicha Tavsiyalar

1. Yorug‘likdan to‘g‘ri foydalanish

Neoklassik interyerdagi asosiy elementlardan biri — yorug‘lik. Bunda: markaziy lyustra, qo‘shimcha devor chiroqlari (bra), stol lampalari kabi ko‘p pog‘onali yoritish tizimi qo‘llaniladi. Kristalli lyustralar ayniqsa mos keladi.

2. Zamin va shift dizayni

Zamin uchun yog‘och parket yoki marmar imitatsiyali qoplamalar tanlanadi. Shift esa eng ko‘p gipsli dekor bilan bezatiladi: rozetkalar, klassik karnizlar, yengil naqshlar.

3. Zamonaviy texnikani yashirin usulda joylash

Neoklassika ko‘proq klassik ruhda bo‘lganligi sababli, zamonaviy texnikalarni ko‘rinmaydigan qilib o‘rnatish tavsiya etiladi: o‘rnatma televizorlar, yashirin konditsionerlar, minimalist audio tizimlar. Bu interyerning nafisligini buzmaslikka yordam beradi.

4. Minimalizmga yaqinlik

Neoklassika klassika kabi murakkab emas. Unda ortiqcha bezaklardan qochish kerak. Barcha jihozlar funksional, ranglar esa uyg‘un bo‘lishi zarur.

1-rasm Neoklassika uslubiga ishlangan mehmonxona interyeri

Xulosa. Neoklassika interyer uslubi — zamonaviy qulayliklar bilan uyg‘un klassik nafislikning mukammal birlashuvidir. U har qanday turdagi uy uchun mos: kichik xonadan tortib keng villagacha. To‘g‘ri tanlangan ranglar, sifatli mebel, muvozanatli dekor va o‘ylangan yoritish tizimi orqali har kim o‘z uyida hashamatli, ammo sokin va zamonaviy atmosfera yaratishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22- yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.-T., 2022.

2 Ro‘ziboboevA.A. Termiz shaharsozligining zamonaviy kadrlarni tayyor-lashdagi ahamyati //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2024. B.1185-1187.

3 Ro‘ziboboevA.A. Termiz tarixiy shaharlari mahallalarining tarixiy shakl-lanishi va rivojlanishi //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025. B.465-467.

4.Ro‘ziboboevA.A. Termiz shahri turar-joylari va jamoat binolari arxitek-turasining shakllanishidagi zamonaviy tamoyillarni o‘rganish //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025.- b.132-134.

5.Ro‘ziboboevA.A. Termiz shahridagi arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash va qayta tiklash usullarini takomillashtirish //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025.- b.18-20.

6.Ro‘ziboboevA.A.Termiz shahridagi tarixiy-arxitektura yodgorliklarini, raqamlashtirish orqali turizm sohasini yangi bosqichga ko‘tarish yo‘llari //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025.- b.26-28.

7.Ro‘ziboboevA.A Termiz shahri arxitekturasining istiqboldagi taraqqiyoti,turar joy va jamoat binolari arxitekturasi bo‘yicha loyiha takliflar // Xorazm Ma’mun akademiyasi.-Xiva, 2025.- b.90-93.

8.Ro‘ziboboevA.A Termiz shahrining mustaqillik yillari arxitekturasi// Xorazm Ma’mun akademiyasi.-Xiva, 2025.- b.93-95.

9.Bozorqulov, S., Ro’ziboboyev, A., & Nazarov, B. (2024). SHAHARSOZLIKDA SHOVQINDAN HIMOYA QILISHNING CHORA-TADBIRLARI ARXITEKTURAVIY TARXIY USLUBLAR. Talqin va tadqiqotlar.

10.Yusufovich, J. N. (2025). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA O’ZBEKISTON ARXITEKTURASI. *OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNЫE IDEI V MIRE*, *64*(5), 235-243.

11.Nurullo o’g’li, A. S. (2025). SHAHARSOZLIKDA “SMART CITY” KONSEPSIYASI ELEMENTLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. *OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNЫE IDEI V MIRE*, *64*(5), 244-254.

TERMIZ SHAHAR KAMMUNAL HAYOTINI YAXSHILASH,KECHKI ESTETIK YORUG'LANTIRISH,MUHANDISLIK OBODONLASHTIRISH

Ro'ziboboyev Azizbek Azamat o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti
E-mail: azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351
Umarov Xusrav Xusniddin o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agratexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada Termiz shahrida kommunal xizmatlarni yaxshilash, kechki estetik yoritish tizimini modernizatsiya qilish va muhandislik obodonlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan. Unda ichimlik suvi, chiqindi xo'jaligi, transport, LED yoritish, ko'cha va tarixiy obidalarni yoritish hamda yo'l, drenaj va ko'kalamzorlashtirish kabi infratuzilma loyihalarining ahamiyati bayon etiladi. Tadqiqot shaharni qulay, xavfsiz va zamonaviy muhitga aylantirishga qaratilgan asosiy yo'nalishlarni ko'rsatib beradi.*

Kalit so'zlar: *Termiz shahri, kommunal xizmatlar, estetik yoritish, LED yoritgichlar, infratuzilma, ko'kalamzorlashtirish, drenaj tizimi, "aqlli shahar" texnologiyalari.*

IMPROVING THE COMMUNAL LIFE OF THE CITY OF TERMEZ, AESTHETIC EVENING LIGHTING, ENGINEERING IMPROVEMENTS

Ru'ziboboyev Azizbek Azamat oglu
assistant, Termez State University of Engineering and Agrotechnology
E-mail: azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351
Umarov Khusrav Khusniddin oglu
Student of Termiz State University of Engineering and Agricultural Technologies

Abstract: *The article analyzes the work being carried out in the city of Termez to improve public services, modernize the evening aesthetic lighting system, and improve engineering. It describes the importance of infrastructure projects such as drinking water, waste management, transport, LED lighting, street and historical monument lighting, as well as roads, drainage, and landscaping. The study indicates the main directions aimed at transforming the city into a comfortable, safe, and modern environment.*

Keywords: *Termez city, utilities, aesthetic lighting, LED lighting, infrastructure, landscaping, drainage system, "smart city" technologies.*

УЛУЧШЕНИЕ КОММУНАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ГОРОДА ТЕРМЕЗ, ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВЕЧЕРНЕЕ ОСВЕЩЕНИЕ, ИНЖЕНЕРНЫЕ УЛУЧШЕНИЯ

Ruziboboev Azizbek Azamat oglы
Assistent, Termezskiy gosudarstvennыy injenerno-agrotexnologicheskiy universitet
E-mail: azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351
Умаров Хусрав Хусниддин оглы
Студент Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий

Annotatsiya. *В статье анализируется проводимая в городе Термез работа по благоустройству, модернизации системы вечернего эстетического освещения и улучшению инженерного обеспечения. Отмечается важность инфраструктурных проектов, таких как питьевое водоснабжение, утилизация отходов, транспорт, светодиодное освещение, освещение улиц и исторических памятников, а также дорожное строительство, водоотведение и благоустройство. В исследовании обозначены основные направления, направленные на преобразование города в комфортную, безопасную и современную среду.*

Klyuchevyye *Город Термез, инженерные коммуникации, эстетическое освещение, светодиодное освещение, инфраструктура, озеленение, дренажная система, технологии «умного города».*

KIRISH

Termiz shahri – Surxondaryo viloyatining iqtisodiy, madaniy va ilm-fan markazi sifatida izchil rivojlanmoqda. Aholining farovon turmush kechirishi, shuningdek, shahar jozibadorligini oshirishda kommunal xizmatlarni takomillashtirish, kechki yoritish tizimini modernizatsiya qilish hamda muhandislik infratuzilmasini obodonlashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlardagi tizimli islohotlar Termizning zamonaviy, qulay va ekologik toza shahar sifatida rivojlanishini ta’minlaydi.

Kommunal hayotni yaxshilash: asosiy yo‘nalishlar

Ichimlik suvi ta’minotini modernizatsiya qilish

Aholining sifatli ichimlik suvi bilan muntazam ta’minlanishi shahar infratuzilmasining eng muhim omillaridan biridir. Termizda suv quvurlarini yangilash, zamonaviy filtrlash tizimlarini joriy etish va suv taqsimotini uzluksiz nazorat qilish orqali xizmat sifati oshirilmoqda.

Bu esa sog‘liq uchun xavfsiz muhit yaratishi bilan birga, kommunal xizmatlarning barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Chiqindi xo‘jaligini takomillashtirish

So‘nggi yillarda chiqindilarni saralab yig‘ish, maxsus konteynerlar o‘rnatish va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha ishlar kengayib bormoqda. Ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini qo‘llab-quvvatlash va aholining ekologik madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish

Shahar ichki yo‘llarini ta’mirlash, jamoat transportini ko‘paytirish va ekologik transport turlarini joriy etish Termizning yashashga qulayligini oshiradi. Avtobus bekatlari, piyodalar yo‘laklari va veloyo‘laklarning ajratilishi ham shahar aholisi uchun yengillik yaratadi.

Kechki estetik yoritish: shahar jozibasini oshirish omili

Zamonaviy LED yoritish tizimlari

Termiz shahrining asosiy ko‘chalari, xiyobonlari va tarixiy maskanlarida energiya tejamkor LED yoritgichlarni joriy etish kechki va tungi muhitni yanada xavfsiz, yorqin va estetik ko‘rinishga keltiradi. LED texnologiyalari uzoq muddatli, tejamkor va ekologik toza bo‘lgani uchun shahar byudjetiga ham engillik yaratadi.

Arxitektura yoritgichlari

Me’moriy binolar, tarixiy obidalar va sayyohlik markazlarini maxsus yoritish uslublari shaharni yanada jozibador qiladi. Kechki yoritish dizayni Termizning o‘ziga xosligini namoyon etib, uning turistik salohiyatini orttiradi.

Xavfsizlikni ta’minlash

Ko‘cha va mahalla hududlarida samarali yoritish tizimi jinoyatchilikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Qorong‘i hududlarni to‘liq yoritish orqali aholining kechki va tungi harakatlanish xavfsizligi yanada kuchayadi.

Muhandislik obodonlashtirish: zamonaviy infratuzilmaga yo‘l

Yo‘l va ko‘kalamzorlashtirish ishlari

Shahar markazi va chekka hududlarda yangi yo‘llar qurilishi, mavjud yo‘llarning rekonstruksiya qilinishi, daraxt ekish va yashil hududlarni kengaytirish Termizning ekologik muvozanatini ta’minlab, shahar ko‘rinishini yanada go‘zal qiladi.

Drenaj va oqava tizimlarini optimallashtirish

Shahar drenaj tizimlarini rekonstruksiya qilish suv toshqinlari va yo‘llarning yemirilishining oldini oladi. Bu nafaqat qulaylik balki xavfsizlik jihatidan ham muhimdir.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish

“Smart City” texnologiyalarini qo‘llash — masalan, aqlli yoritish, onlayn kommunal to‘lovlar, real vaqtda nazorat tizimlari — Termizning boshqaruv tizimini zamonaviylashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Termiz shaharining kommunal hayotini yaxshilash, kechki estetik yoritish tizimini rivojlantirish va muhandislik obodonlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlari shaharni yanada yashashga qulay, xavfsiz va zamonaviy megapolisga aylantirishga xizmat qilmoqda. Bu yo‘nalishlarda izchil strategiya, mahalliy boshqaruv organlari va aholining hamkorligi shahar taraqqiyotining mustahkam poydevoridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22- yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.-T., 2022.

2 Ro‘ziboboevA.A. Termiz shaharsozligining zamonaviy kadrlarni tayyor-lashdagi ahamyati //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2024. B.1185-1187.

3 Ro‘ziboboevA.A. Termiz tarixiy shaharlari mahallalarining tarixiy shakl-lanishi va rivojlanishi //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025. B.465-467.

4.Ro‘ziboboevA.A. Termiz shahri turar-joylari va jamoat binolari arxitek-turasining shakllanishidagi zamonaviy tamoyillarni o‘rganish //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025.- b.132-134.

5.Ro‘ziboboevA.A. Termiz shahridagi arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash va qayta tiklash usullarini takomillashtirish //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025.- b.18-20.

6.Ro‘ziboboevA.A.Termiz shahridagi tarixiy-arxitektura yodgorliklarini, raqamlashtirish orqali turizm sohasini yangi bosqichga ko‘tarish yo‘llari //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025.- b.26-28.

7.Ro‘ziboboevA.A Termiz shahri arxitekturasining istiqboldagi taraqqiyoti,turar joy va jamoat binolari arxitekturasi bo‘yicha loyiha takliflar // Xorazm Ma’mun akademiyasi.-Xiva, 2025.- b.90-93.

8.Ro‘ziboboevA.A Termiz shahrining mustaqillik yillari arxitekturasi// Xorazm Ma’mun akademiyasi.-Xiva, 2025.- b.93-95.

9.Bozorqulov, S., Ro’ziboboyev, A., & Nazarov, B. (2024). SHAHARSOZLIKDA SHOVQINDAN HIMOYA QILISHNING CHORA-TADBIRLARI ARXITEKTURAVIY TARXIY USLUBLAR. Talqin va tadqiqotlar.

10.Yusufovich, J. N. (2025). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA O’ZBEKISTON ARXITEKTURASI. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNЫE IDEI V MIRE, 64(5), 235-243.

11.Nurullo o’g’li, A. S. (2025). SHAHARSOZLIKDA “SMART CITY” KONSEPSIYASI ELEMENTLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNЫE IDEI V MIRE, 64(5), 244-254.

12.Xolmurzayevich, A. S. (2025). O’SIMLIKLAR BILAN QO’LLANILADIGAN MO’JAZ ARXITEKTURA FORMALARI. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNЫE IDEI V MIRE, 64(5), 230-234.

LEVERAGING COOPERATIVE LEARNING TO PROMOTE ALTERNATIVE ASSESSMENT IN EDUCATION

Khodjakulova Feruza
Senior teacher, PhD of the department Uzbek and Foreign Languages,
International Islamic academy of Uzbekistan
feruzahodjakulova77@gmail.com

Abstract. *In contemporary educational contexts, conventional assessment approaches frequently fail to encompass the multifaceted dimensions of student achievement. This paper examines the integration of cooperative learning—a structured collaborative methodology—as a mechanism to support alternative assessment practices, including portfolios, peer evaluations, projects, presentations, and reflective exercises. Drawing on foundational principles such as positive interdependence and individual accountability, this synergy transforms assessment into a dynamic, inclusive process that fosters deeper cognitive engagement, equity, and interpersonal competencies. The discussion extends to incorporating service-learning, creating a comprehensive framework that links academic goals with civic responsibility. Practical strategies, examples, and implementation considerations are provided, highlighting benefits supported by empirical research while addressing potential challenges.*

Keywords*: cooperative learning, alternative assessment, peer evaluation, group collaboration, service-learning, positive interdependence, individual accountability, authentic evaluation, student-centered pedagogy*

INTRODUCTION

The evolving landscape of education demands assessment methods that extend beyond traditional standardized testing and solitary examinations, which often overlook critical aspects of holistic student development. Alternative assessment emphasizes authentic, performance-oriented evaluations such as portfolios, peer reviews, collaborative projects, oral presentations, and self-reflections that prioritize the learning process and real-world application of skills.

Cooperative learning, a pedagogically structured approach to group work wherein students pursue common objectives through collaboration, emerges as an effective conduit for implementing alternative assessment. Pioneered by scholars such as David W. Johnson and Roger T. Johnson, this method rests on five core elements: positive interdependence, individual accountability,face-to-face promotive interaction, interpersonal and small-group skills, and group processing.

The confluence of cooperative learning and alternative assessment reconfigures evaluation from an isolated, terminal event into a continuous, shared endeavor.

Learners not only master subject matter but also engage in mutual evaluation of contributions, reflection on team dynamics, and cultivation of metacognitive abilities. Empirical evidence indicates that cooperative environments bolster critical thinking, problem-solving capabilities, and knowledge retention. Alternative assessments within groups, particularly peer feedback, expose students to diverse viewpoints, yielding improved outcomes across varying proficiency levels.

Moreover, this approach nurtures vital soft skills, including communication, conflict management, and empathy. Peer-based assessment cultivates a nurturing atmosphere for constructive critique, mitigating the stress linked to sole reliance on instructor grading. Heterogeneous grouping promotes inclusivity, enriching perspectives from culturally and ability-diverse backgrounds. Mechanisms ensuring individual accountability mitigate issues like social loafing, guaranteeing equitable participation. Authentic assessments in this framework evaluate practical competencies; for example, group projects simulate professional teamwork, while reflective components enhance self-regulation. Effective implementation necessitates deliberate planning. Participants specialize in subtopics within initial groups, then reconvene to instruct peers. Assessment incorporates peer reviews and collective presentations.

Dyadic discussions precede broader sharing, evaluated via rubrics for feedback on engagement. Teams produce artifacts (e.g., research presentations), assessed through shared portfolios encompassing individual reflections and peer ratings. Structured Academic Controversy: Groups argue opposing sides of a topic before synthesizing views, appraised via self- and peer-assessments of collaboration and logical reasoning.

In practice, science classrooms may involve collaborative experiment design, with peer-reviewed reports and role reflections. Language arts settings could employ literature circles with assigned roles (e.g., summarizer, interrogator), scored for participation and personal insights. Service-learning, an experiential pedagogy merging community service with curricular objectives and emphasizing reflection and civic duty, complements this framework. Distinct from mere volunteering, it aligns service with academic aims. When combined with cooperative learning and alternative assessment, students undertake team-based community initiatives, collaboratively evaluate efforts, and reflect on societal impacts. This triad reinforces cooperative tenets while assessing not only knowledge but also civic involvement and teamwork, equipping learners for responsible participation in pluralistic societies.

Potential obstacles encompass maintaining individual accountability, resolving interpersonal conflicts, and ensuring reliable peer evaluations. Mitigations involve assigning explicit roles, employing observational tools, and providing training in feedback delivery. Initiating with modest activities and offering exemplars facilitates adoption.

CONCLUSION

Employing cooperative learning to advance alternative assessment represents a paradigm shift toward learner-centric, genuine evaluation. Augmented by service-learning, it equips students for collaborative realities while promoting profound, equitable development. Educators embracing this model foster vibrant, inclusive classrooms that authentically mirror meaningful learning.

REFERENCES:

1. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. Educational Researcher, 38(5), 365–379.

2. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Holubec, E. J. (1994). Cooperative learning in the classroom. Association for Supervision and Curriculum Development.

3. Furco, A. (1996). Service-learning: A balanced approach to experiential education. In Expanding boundaries: Serving and learning. Cooperative Education Association.

4. Khodjakulova, F.R. “Using cooperative learning to facilitate alternative assessment”. Garmonichno razvitoye pokoleniye-usloviye stabilnogo razvitiya respubliki Uzbekistan. Sbornik nauchno-metodicheskix statyey. № 5, Aprel ,2019.

5. Gillies, R. M. (2016). Cooperative learning: Review of research and practice. Australian Journal of Teacher Education, 41(3), 39–54.

6. Slavin, R. E. (2015). Cooperative learning in elementary schools. Education 3-13, 43(1), 5–14.

METHODS OF TEACHING RECEPTIVE SKILLS AT PRIMARY SCHOOL

Sheraliyeva Maftuna Muzaffar qizi
4th-year student, FSU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich maktabda retseptiv qobiliyatlarni - tinglash va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish uchun asosiy strategiyalarni o'rganish haqida so'z yuritiladi.*

Abstract: *This article explores key strategies for developing receptive skills—listening and reading skills—and creating a supportive learning environment in primary school.*

Аннотация: *В этой статье рассматриваются ключевые стратегии развития рецептивных навыков — навыков слушания и чтения — и создания благоприятной среды обучения в начальной школе.*

Kalit so‘zlar: *reseptiv ko‘nikmalar, boshlang‘ich ta’lim, tinglab tushunish, o‘qish, pedagogika, fonetika, hikoyalash, kognitiv strategiyalar, tushunish, multimodal ta’lim.*

Keywords: *receptive skills, primary education, listening, reading, pedagogy, phonics, storytelling, cognitive strategies, comprehension, multimodal learning.*

Ключевые слова: *рецептивные навыки, начальное образование, аудирование, чтение, педагогика, фонетика, повествование, когнитивные стратегии, понимание, мультимодальное обучение.*

Receptive skills, which include listening and reading, play a crucial role in language development at the primary school level. These skills form the foundation for students’ academic success and communication abilities. According to language acquisition theories, children first develop comprehension before they become proficient in productive skills like speaking and writing [1;45]. Thus, effective teaching of receptive skills at an early age is essential.

Listening is a fundamental skill that enables students to acquire vocabulary, understand pronunciation patterns, and develop cognitive connections between sounds and meanings. Studies show that young learners who are exposed to structured listening activities demonstrate better comprehension and language retention [2;120]. Similarly, reading instruction at the primary level shapes students' ability to decode and interpret texts. A systematic approach to phonics and comprehension strategies significantly enhances early literacy development [3;87].

Teaching receptive skills effectively requires an integration of various pedagogical methods. Interactive storytelling, phonemic awareness training, and the use of multimedia resources are some of the widely recommended techniques. Moreover, creating an engaging and supportive learning environment is essential for fostering curiosity and motivation in young learners.

Despite the importance of receptive skills, many challenges exist in teaching them at primary school. These include limited resources, varying proficiency levels among students, and the need for differentiated instruction. Addressing these challenges requires innovative teaching strategies, teacher training, and curriculum development tailored to young learners' cognitive and linguistic needs.

1. Methods for Teaching Listening Skills

Listening is one of the first skills children develop when learning a language. It is crucial for understanding spoken language, following instructions, and building communication skills. Several methods have been identified as effective in teaching listening at the primary level.

• Storytelling and Songs

Storytelling captivates children's attention and helps them internalize language structures naturally. Research indicates that young learners retain vocabulary better when presented in narrative form [4;32]. Songs, rhymes, and chants also improve auditory discrimination and pronunciation skills, making them a valuable tool for listening development [5;64].

• Interactive Listening Activities

Games such as "Simon Says" and role-play activities enhance active listening by requiring students to process spoken instructions quickly. Using audio recordings, teacher-led listening tasks, and group discussions also reinforce listening comprehension.

• Visual and Multimodal Support

Combining listening tasks with visual aids, such as images, flashcards, or videos, helps students associate words with their meanings. Studies confirm that multimodal learning enhances comprehension by providing multiple channels of input [6;101].

2. Methods for Teaching Reading Skills

Reading is a complex process that involves decoding, comprehension, and critical thinking. Various pedagogical approaches facilitate the development of reading skills in young learners.

• Phonics-Based Instruction

Phonics instruction teaches children the relationship between letters and sounds, which is essential for early reading development. Systematic phonics programs have been shown to improve word recognition and spelling [7;89].

• Shared and Guided Reading

Shared reading involves teachers reading aloud to students while engaging them in discussions about the text. Guided reading allows small groups of students to read with teacher support, helping them develop fluency and comprehension strategies [8;112].

• Extensive Reading and Picture Books

Encouraging students to read a variety of books, including picture books and leveled readers, fosters a love for reading and improves literacy skills. Research suggests that extensive reading enhances vocabulary acquisition and text comprehension [9;77].

3. Challenges in Teaching Receptive Skills

Despite the effectiveness of these methods, several challenges exist in teaching receptive skills at the primary level. These include:

• Diverse Learning Styles: Students have different cognitive and linguistic abilities, requiring differentiated instruction.

• Limited Resources: Schools may lack access to quality reading materials or technological tools to support listening practice.

• Teacher Training: Educators need professional development to implement modern teaching strategies effectively.

To overcome these challenges, schools must invest in teacher training programs, integrate technology into the classroom, and provide access to engaging learning materials.

Teaching receptive skills at the primary school level is essential for building strong language foundations. Effective methods such as storytelling, phonics instruction, and multimodal learning have been proven to enhance listening and reading abilities. However, challenges such as diverse student needs and resource limitations must be addressed to ensure successful implementation. By adopting research-based strategies and fostering a supportive learning environment, educators can significantly improve students' language acquisition and academic success. Future research should focus on innovative approaches, including digital learning tools, to enhance receptive skill development in early education.

REFERENCES:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). Pearson Education.

2. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon.

3. Gough, P. B., & Tunmer, W. E. (1986). Decoding, Reading, and Reading Disability. Remedial and Special Education, 7(1), 6-10.

4. Nation, P. (2009). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. Routledge.

5. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press.

6. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge University Press.

7. Ehri, L. C. (2005). Development of Sight Word Reading: Phases and Findings. Scientific Studies of Reading, 9(2), 167-188.

8. Fountas, I., & Pinnell, G. S. (2016). Guided Reading: Responsive Teaching Across the Grades. Heinemann

9. Day, R., & Bamford, J. (1998). Extensive Reading in the Second Language Classroom. Cambridge University Press.

INSON ORGANIZMIDA STRESSGA JAVOB REAKSIYALARINING FIZIOLOGIK ASOSLARI

Kozimjonova Farangizbegim
Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada stressga javob reaksiyasining inson organizmida kechish mexanizmlari kompleks fiziologik jarayon sifatida yoritilgan. Stress omillarining markaziy asab tizimida qabul qilinishi, bosh miya po‘stlog‘ida tahlil qilinishi hamda gipotalamus orqali gipotalamo–gipofizar–buyrakusti (HPA) o‘qi faollashuvi bosqichma-bosqich bayon etilgan. Stressga javoban ajraladigan asosiy gormonlar — adrenokortikotrop gormon, kortizol, adrenalin va noradrenalinning metabolizm, yurak-qon tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish va immun tizimlariga ko‘rsatadigan ta’siri fiziologik va biokimyoviy nuqtayi nazardan tahlil qilingan.*

Maqolada stressning qisqa muddatli va surunkali shakllari o‘rtasidagi farqlar alohida ta’kidlanib, o‘tkir stressning moslashuv va himoya ahamiyati, surunkali stressning esa patogen omil sifatidagi roli asoslab berilgan. Xususan, uzoq davom etuvchi stress holatlarida gormonal muvozanatning buzilishi, insulin rezistentligi, immunitetning pasayishi, neyromediatorlar almashinuvining izdan chiqishi hamda yurak-qon tomir va asab tizimlarida morfofunktsional o‘zgarishlar rivojlanishi ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Shuningdek, stressning psixoemotsional holat, xotira, o‘rganish jarayonlari va xulq-atvorga ta’siri gipokamp va boshqa markaziy tuzilmalar faoliyati bilan bog‘liq holda izohlangan. Maqola stress mexanizmlarini chuqur tushunishning klinik tibbiyot, profilaktika va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi hamda stressni nazorat qilish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Stress, fiziologiya, gipotalamus, gipofiz, buyrakusti bezlari, kortizol, adrenalin, simpatik asab tizimi, homeostaz, adaptatsiya*

KIRISH

Zamonaviy hayot sharoitida stress inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim biologik va ijtimoiy omillardan biriga aylangan. Tezkor turmush tarzi, axborot oqimining ortishi, ijtimoiy-psixologik bosimlar hamda ekologik omillarning kuchayishi organizmning doimiy zo‘riqish holatida bo‘lishiga olib kelmoqda. Stress tushunchasi dastlab organizmning tashqi va ichki ta’sirlarga nisbatan umumiy moslashuv reaksiyasi sifatida talqin qilingan bo‘lsa-da, hozirgi kunda u ko‘plab somatik va psixosomatik kasalliklarning rivojlanishida muhim patogen omil sifatida qaralmoqda.

Stressga javob reaksiyasi murakkab neyro-gumoral mexanizmlar orqali amalga oshadi va bu jarayonda markaziy asab tizimi yetakchi o‘rin tutadi. Xususan, bosh miya

po‘stlog‘i, gipotalamus, gipofiz va buyrak usti bezlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik organizmning stressga moslashuv imkoniyatlarini belgilab beradi. Ushbu tizimlarning uyg‘un faoliyati qisqa muddatli stress sharoitida hayotiy muhim funksiyalarni saqlab qolishga xizmat qilsa, stressning uzoq davom etishi homeostazning buzilishiga va turli patologik holatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, stressning fiziologik mexanizmlarini, uning turli tizimlarga ta’sirini va uzoq muddatli oqibatlarini o‘rganish zamonaviy tibbiyot, xususan, profilaktika va reabilitatsiya sohalari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi stressga javob reaksiyasining markaziy va periferik mexanizmlarini yoritish, stressning qisqa va surunkali shakllarining organizm faoliyatiga ta’sirini tahlil qilish hamda stressni nazorat qilishning ahamiyatini ilmiy asosda ko‘rsatib berishdan iborat.

ASOSIY QISM

Stressga javob reaksiyasi inson organizmida markaziy asab tizimi darajasida boshlanib, bir-biri bilan uzviy bog‘langan neyro-gumoral mexanizmlar orqali amalga oshadi. Har qanday stress omili — fizik, kimyoviy, biologik yoki psixoemotsional bo‘lishidan qat’i nazar — avvalo sezgi tizimlari orqali qabul qilinadi va bosh miya po‘stlog‘ida tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda vaziyatning xavflilik darajasi, uning avvalgi tajribalar bilan bog‘liqligi va ehtimoliy oqibatlari baholanadi. Shundan so‘ng nerv impulslarining gipotalamusga uzatilishi stressga javob reaksiyasining markaziy mexanizmini ishga tushiradi.

Gipotalamus stress sharoitida neyrosekretor faollikni kuchaytirib, kortikoliberin va boshqa relizing-gormonlarni ajratadi. Bu moddalar gipofiz bezining oldingi bo‘limiga ta’sir ko‘rsatib, adrenokortikotrop gormon sekretsiyasini oshiradi. AKTG esa buyrak usti bezlari po‘stlog‘ini faollashtirib, glyukokortikoidlar, ayniqsa kortizol ishlab chiqarilishini kuchaytiradi. Kortizol stress gormoni sifatida organizmning metabolik javoblarida yetakchi rol o‘ynaydi. U uglevodlar, yog‘lar va oqsillar almashinuvini qayta yo‘naltirib, energiya resurslarining tez safarbar etilishini ta’minlaydi.

Kortizol ta’sirida jigarda glyukoneogenez kuchayadi, qondagi glyukoza darajasi oshadi va miya hamda mushak to‘qimalari uchun yetarli energiya manbai yaratiladi. Shu bilan birga, periferik to‘qimalarda glyukozaning utilizatsiyasi vaqtincha kamayadi. Mushak to‘qimalarida oqsil parchalanishi jadallashib, hosil bo‘lgan aminokislotalar jigarga yo‘naltiriladi. Yog‘ to‘qimalarida lipoliz jarayoni faollashib, erkin yog‘ kislotalari qonga ajraladi. Ushbu o‘zgarishlar stress sharoitida organizmning energiya ta’minotini maksimal darajada ta’minlashga xizmat qiladi.

Stressga javob reaksiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida simpatik-adrenal tizim ham faollashadi. Simpatik nerv tolalari orqali buyrak usti bezlari mag‘iz qismi stimulyatsiya qilinib, adrenalin va noradrenalin gormonlari ko‘p miqdorda ajraladi. Ushbu katexolaminlar yurak-qon tomir tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Yurak qisqarishlarining chastotasi va kuchi ortadi, yurakdan chiqadigan qon hajmi ko‘payadi.

Periferik qon tomirlarida vazokonstriksiya yuzaga kelib, arterial qon bosimi oshadi. Shu bilan birga, miya, yurak va skelet mushaklarini oziqlantiruvchi tomirlarda nisbiy vazodilatatsiya kuzatiladi, bu esa hayotiy muhim a’zolarning qon bilan ta’minlanishini yaxshilaydi.

Nafas olish tizimi ham stressga tezkor moslashuv javobini beradi. Adrenalin ta’sirida bronxlarning silliq mushaklari bo‘shashadi, bronxlar kengayadi va alveolyar ventilyatsiya kuchayadi. Nafas olish chastotasi va chuqurligining ortishi qonda kislorod miqdorini ko‘paytirib, to‘qimalarning oksigenatsiyasini yaxshilaydi. Bu jarayon ayniqsa skelet mushaklarining jismoniy faollikka tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ovqat hazm qilish tizimida stress sharoitida tormozlovchi o‘zgarishlar kuzatiladi. Simpatik nerv tizimi faollashuvi natijasida oshqozon-ichak tizimi tomirlarida vazokonstriksiya yuzaga keladi va qon oqimi hayotiy muhim organlar foydasiga qayta taqsimlanadi. Oshqozon shirasi va fermentlar sekretsiyasi kamayadi, ichak peristaltikasi sekinlashadi. Bu holat fiziologik jihatdan energiya va qon ta’minotini ustuvor organlarga yo‘naltirishga qaratilgan moslashuv mexanizmi sifatida qaraladi.

Stress immun tizimi faoliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Qisqa muddatli stress sharoitida immun hujayralarning migratsiyasi va faolligi vaqtincha oshishi mumkin. Biroq surunkali stress holatida kortizolning uzoq muddat yuqori darajada saqlanib turishi limfotsitlar proliferatsiyasini susaytiradi, antitana sintezi kamayadi va hujayraviy immunitet zaiflashadi. Natijada organizmning infeksion kasalliklarga va yallig‘lanish jarayonlariga nisbatan qarshiligi pasayadi.

Markaziy asab tizimida stress neyromediatorlar almashinuvidagi o‘zgarishlar bilan namoyon bo‘ladi. Dopamin, serotonin va noradrenalin tizimlarining disbalansi psixoemotsional holatning beqarorlashuviga olib keladi. Stress sharoitida gipokamp va prefrontal korteks faoliyati susayib, xotira, diqqat va o‘rganish jarayonlari vaqtincha izdan chiqishi mumkin. Shu bilan birga, amigdala faolligining ortishi qo‘rquv va tashvish reaksiyalarini kuchaytiradi.

Uzoq davom etuvchi stress organizmning adaptatsion imkoniyatlarini asta-sekin kamaytiradi. Metabolik jarayonlarning surunkali faollashuvi insulin rezistentligiga, qonda glyukoza va lipidlar miqdorining oshishiga olib keladi. Yurak-qon tomir tizimida doimiy gipertenziya, tomir devorlarining elastikligi pasayishi va aterosklerotik o‘zgarishlar rivojlanadi. Shu sababli surunkali stress ko‘plab yurak-qon tomir, endokrin va psixosomatik kasalliklarning rivojlanishida muhim xavf omili hisoblanadi.

XULOSA

Stressga javob reaksiyasi organizmda markaziy asab tizimi orqali boshqariladigan, ko‘p darajali va muvofiqlashgan moslashuv jarayoni hisoblanadi. Gipotalamo–gipofizar–buyrakusti o‘qi hamda simpatik-adrenal tizimning faollashuvi natijasida organizm qisqa muddatda energiya resurslarini safarbar etib, hayotiy muhim a’zolar faoliyatini ta’minlashga moslashadi. Bu jarayonlar o‘tkir stress sharoitida himoya ahamiyatiga ega bo‘lib, tirik qolish va tezkor javob berishni ta’minlaydi.

Biroq stressning uzoq davom etishi gormonal muvozanatning buzilishi, metabolik jarayonlarning izdan chiqishi, immun himoyaning susayishi hamda yurak-qon tomir va asab tizimlarida morfofunktsional o‘zgarishlarning rivojlanishiga olib keladi. Natijada surunkali stress ko‘plab somatik va psixosomatik kasalliklarning shakllanishi uchun muhim patogen omilga aylanadi.

Shu bois stressni faqat fiziologik moslashuv reaksiyasi sifatida emas, balki uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib keluvchi xavf omili sifatida baholash zarur. Stress mexanizmlarini chuqur o‘rganish, uni erta aniqlash va samarali boshqarish usullarini joriy etish inson salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish va hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Guyton A.C., Hall J.E. Textbook of Medical Physiology. Elsevier.
2) Ganong W.F. Review of Medical Physiology. McGraw-Hill Education.
3) Sherwood L. Human Physiology: From Cells to Systems. Cengage Learning.
4) Selye H. The Stress of Life. McGraw-Hill Book Company.
5) McEwen B.S. Stress, adaptation, and disease: Allostasis and allostatic load. Annals of the New York Academy of Sciences.
6) Kandel E.R., Schwartz J.H., Jessell T.M. Principles of Neural Science. McGraw-Hill.
7) Sapolsky R.M. Why Zebras Don’t Get Ulcers. Henry Holt and Company.
8) Bear M.F., Connors B.W., Paradiso M.A. Neuroscience: Exploring the Brain. Lippincott Williams & Wilkins.
9) Silverthorn D.U. Human Physiology: An Integrated Approach. Pearson Education.
10) Costanzo L.S. Physiology. Elsevier.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA IJODIY TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

Endirboyeva Zilola Saforboy qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim)” mutaxassisligi bo‘yicha 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish metodikasi, ularning ta’lim sifatiga ta’siri hamda o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ijodiy topshiriqlarni qo‘llashning milliy o‘quv dasturi talablari bilan uyg‘unligi ilmiy-pedagogik asoslar bilan tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘qish savodxonligi, ijodiy topshiriq, metodika, boshlang‘ich ta’lim, kreativ fikrlash, matn ustida ishlash, pedagogik texnologiya.*

Аннотация: *В данной работе освещена методика использования творческих заданий в процессе развития читательской грамотности учащихся старших классов, их влияние на качество образовония и значение в формировании творческого мышления обучающихся. Соответствие применения творческих заданий требованиям натциональной образовательной программы подтверждается научно-педагогическими обоснованиями.*

Калючевые слово; *грамотность чтения, творческое задание методика, начало внутриучения, креативное мышление, работа над текстом, педагогическая технология.*

Abstract: *This thesis discusses the methodology for using creative tasks in the process of developing reading literacy of primary school students, their impact on the quality of education and their importance in forming students creative thinking. The compatibility of the use of creative tasks with the requirements of the national curriculum is analyzed on the basis of scientific and pedagogical foundations.*

Keywords: *reading literacy, creative task, methodology, primary education, creative thinking, work on the text, pedagogical technology.*

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini shakllantirish - o‘quvchilarda nafaqat texnik o‘qish ko‘nikmalarini, balki matnni anglash, tahlil qilish, fikr bildirish, ijodkorlik bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Adabiy ta’limning zamonaviy talablari o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish, individual fikrini qo‘llab-quvvatlash,matn ustida mustaqil ishlashga undashni ko‘zda tutadi[1]. Shu bois

o‘qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlar bilan ishlash metodikasi alohida dolzarblik kasb etadi.

1.Ijodiy topshiriqlarning didaktik ahamiyati.

To‘xtayeva ta’kidlaganidek, o‘quv jarayoniga ijodiy topshiriqlarni kiritish o‘quvchilarni matnni faollik bilan o‘zlashtirishga undaydi va ularning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Ushbu topshiriqlar:

-matnni chuqur anglashga yordam beradi;

-shaxsiy munosabat bildirishni shakllantiradi;

-mantiqiy va divergent fikrlashni rivojlantiradi;

-o‘quvchining individual ijodiy salohiyatini uyg‘otadi[2].

Vygotskiy ta’kidlaganidek, “ yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, ijodiy topshiriqlar o‘quvchini mavjud bilimlardan yuqoriroq pog‘onaga olib chiqadigan vosita hisoblanadi[3].

2.Ijodiy topshiriqlarning turlari

Ijodiy topshiriqlarning quyidagicha turlari mavjud:

1. Matn asosida ijodiy qayta hikoyalash:

-Qahramonlar o‘rnini almashtirib aytish;

-Alternativ yakun yaratish;

-Matnni boshqacha uslubda bayon qilish.

2. Matn asosida ijodiy yozma topshiriqlar:

-Mini-esse;

-Muammoli savollarga javob;

-“Agar men muallif bo‘lsam…” topshirig‘i.

3. Rasm va tasvirlar asosida ijodiy ishlash:

-Rasmga qarab matn yaratish;

-Tasvirlar orasidagi mantiqiy bog‘lanishni tiklash.

4. Kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi o‘yinli topshiriqlar:

-“3 ta so‘zdan voqea tuz” texnikasi;

-“Matnni davom ettir”;

-Krassword va klaster tuzish.

5. Muammoli-vaziyatli topshiriqlar:

-Qahramonning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qarorini izohlash;

-Matndagi ijtimoiy-axloqiy muammolarni tahlil qilish.

3. Ijodiy topshiriqlar bilan ishlash metodikasi

Pedagog olimlar (Yo‘ldoshev, 2020; G‘ulomova, 2019) kreativ topshiriqlarni o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llashda quyidagi metodik bosqichlarga amal qilishni taklif etadilar:

1. Tayyorlov bosqichi

-Matn mazmunini umumiy tushuntirish;

-Qiyin so‘zlarni aniqlash;

-Matnning syujet chizig‘ini tahlil qilish;
-Matnni o‘qish maqsadini belgilash.
2. Asosiy bosqich
Ijodiy topshiriqlar shu bosqichda bajariladi:
-Savol-javob orqali matnni anglashni chuqurlashtirish;
-Muammoli vaziyat yaratish;
-O‘quvchilarning mustaqil kuzatuvlarini faollashtirish;
-Rasm, jadval, klasterlardan foydalanish;
-Guruhli fikr almashuv (debat, brainstorming).
3. Yakuniy bosqich
-O‘quvchi ijodiy ishi taqdimoti;
-Baholash mezonlariga ko‘ra tahlil (mantiqlilik, mazmun, fikrning yangiligi);
-O‘z-o‘zini baholash va refleksiya;
-O‘quvchining keyingi darsga tayyorgarligini belgilash[4].
4. Ijodiy topshiriqlarni baholash mezonlari
To‘xtayeva va Yo‘ldoshev ishlariga tayangan holda baholash quyidagilarga asoslanadi:
-Fikrning mustaqilligi;
-Mazmunning uyg‘unligi;
-Til me’yorlariga rioya qilishi;
-O‘quvchining matnni anglaganlik darajasi;
-Ijodiy yondashuvning yangiligi[2].

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilar tafakkurini faollashtiradi, matn bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi, o‘quvchining shaxsiy fikrini erkin ifodalashiga imkon beradi. Adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, ijodiy topshiriqlar o‘quvchining intellektual salohiyatini ochishga, nutq madaniyatini rivojlantirishga va o‘qish jarayoniga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘ulomova A., Qosimova K. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.- Toshkent: 2019.
2. To‘xtayeva R. O‘qish darslari metodikasi.- Toshkent: 2017.
3. Aripova B.Sh. Boshlang‘ich sinflarda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasi.- Toshkent: 2021.
4. Yo‘ldoshev J.G., Zunnunov A.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- Toshkent: 2020
5. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya.- Moskva: 1999.

РЕЧЕВАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК ОСНОВА КОММУНИКАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ ПЕДАГОГА

Джуракулова Саодат Эшкобиловна
преподаватель русского языка.
Политехникум № 2 Байсунского района .
Сурхандарьинская область , Республика Узбекистан
9880@gmail.comjurakulovas69

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы речевой компетенции как важнейшей составляющей коммуникативной компетентности личности и включает способность человека эффективно использовать язык в различных ситуациях общения. Она предполагает владение нормами устной и письменной речи, умение правильно строить высказывания, выбирать языковые средства в зависимости от цели, адресата и условий коммуникации. В рамках данной темы раскрываются основные компоненты речевой компетенции: лексическая, грамматическая, фонетическая и прагматическая. Особое внимание уделяется культуре речи, речевому этикету, а также развитию навыков понимания и порождения текста. Речевая компетенция формируется в процессе обучения языку и речевой практики и играет ключевую роль в профессиональной и социальной деятельности человека. Изучение речевой компетенции способствует развитию языковой личности, повышению уровня коммуникативной культуры и успешной интеграции человека в современное общество.*

Ключевые слова*: речевая компетенция, устная и письменная речь, речевой этикет, лексический компонент, коммуникативная культура, доверие самоценности, коммуникативная культура педагога, речевая коммуникация.*

Abstract: *This article examines the issues of speech competence as the most important component of an individual's communicative competence and includes a person's ability to effectively use language in various communication situations. It involves mastery of the norms of oral and written speech, the ability to correctly construct statements, and the choice of linguistic means depending on the purpose, addressee, and conditions of communication. This topic explores the key components of speech competence: lexical, grammatical, phonetic, and pragmatic. Particular attention is paid to speech culture, speech etiquette, and the development of text comprehension and production skills. Speech competence is developed through language learning and practice and plays a key role in a person's professional and social activities. Studying speech competence contributes to the development of a*

person's linguistic personality, enhancing their communicative skills, and successfully integrating them into modern society.

Key words: *speech competence, oral and written speech, speech etiquette, lexical component, communicative culture, trust in self-worth, communicative culture of the teacher, speech communication.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutq kompetensiyasi masalalari shaxsning kommunikativ kompetentsiyasining eng muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi va insonning turli xil muloqot holatlarida tildan samarali foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu og'zaki va yozma til me'yorlarini egallashni, gaplarni to'g'ri qurish qobiliyatini va muloqot maqsadi, manzili va mazmuniga qarab lingvistik vositalarni tanlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu mavzu nutqiy kompetensiyaning asosiy komponentlarini: leksik, grammatik, fonetik va pragmatiklarni qamrab oladi. Nutq madaniyati, nutq odobi, matnni tushunish va yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Nutq kompetensiyasi til o‘rganish va nutq amaliyoti orqali shakllanadi va shaxsning kasbiy va ijtimoiy faoliyatida asosiy rol o‘ynaydi. Nutq kompetentsiyasini o'rganish lingvistik shaxsni rivojlantirishga, kommunikativ madaniyat darajasini oshirishga va shaxsning zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi.*

Tayanch so'zlar: *nutq malakasi, og'zaki va yozma nutq, nutq odobi, leksik komponent, kommunikativ madaniyat, o'z qadr-qimmatiga ishonch, o'qituvchining kommunikativ madaniyati, nutqiy muloqot.*

Речевая компетенция — это фундамент коммуникативной культуры педаго га, охватывающий знания и навыки вербального (слова) и невербального (жесты, мимика) общения, позволяющие эффективно взаимодействовать с учениками, родителями и коллегами, адекватно воспринимать и передавать информацию, управлять эмоциями, разрешать конфликты и создавать позитивную образовательную среду, что необходимо для профессионального успеха и развития личности. Речевая компетенция — это способность эффективно и адекватно использовать язык в разных коммуникативных ситуациях для достижения целей общения. Она включает в себя лексические знания, грамматическую грамотность, фонетические стороны и коммуникативные навыки.

• Лексические знания — словарный запас и умение выбирать слова по смыслу.

• Грамматическая грамотность — правильное построение предложений.

• Фонетическая сторона — правильное произношение и интонация.

• Коммуникативные навыки — умение вести диалог, учитывать собеседника и ситуацию.

• Прагматический аспект — понимание того, как язык влияет на общение (например, вежливость, уместность высказываний).

Без развитой речевой компетенции невозможно формирование коммуникативной культуры, которая включает знание норм, ценностей и правил общения. Коммуникативная культура педагога - это интегративное качество его индивидуально-личностной духовной культуры, проявляющееся во взаимодействии и взаимоотношениях с субъектами целостного педагогического процесса. Педагог является субъектом, персональным носителем коммуникативной культуры общества, катализатором тех социальных процессов, в которых формируется социально-целостная коммуникативная культура, имеющая гуманистическую цель. Формирование и развитие коммуникативной культуры педагога является базовым условием развития личности и успешности его профессиональной, социально-педагогической деятельности. В исследовании этих процессов могут быть выделены три основных методологических подхода: 1) собственно культурологический, учитывающий специфику культурологического исследования; 2) общенаучный - системный, синергетический и кибернетический; 3) со стороны современной педагогической и психологической методологической парадигмы. Этого требует глубинная сущность явлений коммуникации и коммуникативной культуры педагога. Слово коммуникация пришло к нам через английский язык , что означает единство, передача, соединение, сообщение.

Коммуникация - технический процесс обмена информацией между двумя и более индивидами (или группами). Когда мы говорим о коммуникации, нас прежде всего интересует то, как информация передается. Понятие коммуникация может использоваться в следующих значениях: 1) социальная коммуникация, общение между людьми и другими социальными субъектами; 2) связь с помощью технических средств; 3) определенная система, с помощью которой обеспечивается соединение между отдаленными объектами.

Существуют правила коммуникативного этикета. Они определяют порядок обращения, общения и др. Этикетные правила не имеют прямой связи с эффективностью общения, но их частичное или полное игнорирование отстраняет человека от участия в общении. При этом, признаком культуры общения является вежливость. Вежливость - это обращение к людям, учет их потребности быть оцененными и защищенными; соблюдение приличий, уважительность, тактичность, деликатность. Второе правило согласования коммуникативного взаимодействия. Они задают тип общения: светское, деловое, ритуальное, личностное и другие. Третья группа - это правила самоподачи (самопрезентации). Они не определяют тип общения и не влияют на общую для всех эффективность, но определяют индивидуальный успех

отдельных участников общения. Правила самоподачи предназначены для создания у окружающих определенного впечатления о себе.

Основной составляющей коммуникативной культуры специалиста является речь. Соотношение и тесная взаимосвязь речи и культуры очевидна. Речь - зеркало культуры, в которой отражается не только реальный мир, окружающий человека, условия его жизни, но и менталитет, образ жизни, традиции, обычаи, система ценностей, мировоззрения целого народа. Речь также является сокровищницей культуры, которая сохраняет культурные ценности в лексике, грамматике, фольклоре, художественной и научной литературе и тому подобное. Речь - носитель культуры, которая передает из поколения в поколение сокровища национального наследия. Изучая родной язык, дети овладевают вместе с ним и обобщенным культурным опытом предшествующих поколений.

Культура педагогического общения – это мастерство учителя эффективно взаимодействовать с учениками, передавать знания, формировать отношения и развивать личность, опираясь на высокую культуру речи, эмпатию, такт, самоконтроль и умение понимать учеников. Это комплекс навыков, включающий невербальные средства, психологическую саморегуляцию и способность создавать доверительную атмосферу для обмена смыслами, а не просто трансляции информации.

Педагогу для успешной работы необходимы не только предметные и психолого-педагогические знания, но и особое умение – это умение общаться. Человек начинает овладевать навыками общения с малых лет, однако не все, повзрослев, в достаточной мере умеют общаться. Профессия педагога относится к типу профессий «человек – человек» (по типологии отечественного психолога Е.А. Климова), и поэтому умение общаться является для педагога ведущим, профессионально важным качеством.

Умение пользоваться словом, эмоционально выражать свои мысли – важная сторона коммуникации. Но для учителя не менее значима и другая сторона – умение слушать. Психологи утверждают, что лучший собеседник – не тот, кто умеет хорошо говорить, а тот, кто умеет хорошо слушать. Данная – перцептивная – функция общения позволяет педагогу не только понимать ученика, но и чувствовать его состояние, настроение, отношение к учебному материалу и учебному процессу в целом.

Механизмом познания и понимания воспитанников является педагогическая эмпатия. Она проявляется в умении учителя мысленно поставить себя на место ученика, проникнуться его состоянием, понять его, сопереживать ему. Но это возможно лишь тогда, когда педагог понимает самого себя, объективно анализирует свои мысли, действия, отношения между людьми, т.е. если у него развита рефлексия. Учитель, владеющий рефлексией и эмпатийно

воспринимающий воспитанников, может успешно строить педагогическое общение, корректировать его, управлять им.

В заключении мы можем сказать, что это свободное, практическое и многогранное владение языком, позволяющее не только правильно и бегло говорить (устно и письменно) и понимать речь в разных стилях (диалог, монолог, чтение, аудирование), но и эффективно общаться, выражать мысли, воздействовать на других, а также это фундамент личной культуры и успешной профессиональной деятельности, требующий постоянного развития.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Грехнев, В.С. Культура педагогического общения: Книга для учителя/ В.С. Грехнев. - М: Просвещение. 1990. - 142 с.

2. Зарецкая И.И. Профессиональная культура педагога: учеб, пособие. - 2-е изд., перераб., доп. -М.: АПКиППРО. 2005.

3. Левитан К.М. Основы педагогической деонтологии. - М.: Наука. 1994.

4. Семикин В.В. Психологическая культура в педагогическом взаимодействии. Дис. докт. психол. наук. - СПб, 2004.

РАЗГОВОРНЫЙ РУССКИЙ ЯЗЫК ДЛЯ УЗБЕКОВ

Нушаров Рустам Нишонович
преподаватель русского языка и литературы.
Политехникум № 1 Зааминского района
Джизакской области, Республика Узбекистан
rnusharov@gmail.com

Аннотация: *В статье рассматривается изучение разговорного русского языка узбеками, сопоставительный анализ языков. Цель данной работы заключается в выявлении влияния русского языка на узбекскую языковую картину мира в прагмативном и когнитивном аспектах. Основное содержание исследования составляет анализ речевых единиц, употребляемых в узбекском языке и появившихся под влиянием русского языка. Так же говорится о формировании новых онтологических оснований для анализа взаимоотношения языка и речи, позволяет наблюдать данную связь опосредованно через текст. В статье рассмотрены конкретные примеры употребления русских слов в произведениях художественной литературы и в разговорной речи. При проведении исследования применены методы наблюдения, обобщения и сравнительного анализа. На основе изучения когнитивного и прагмативного влияния русского языка на узбекский язык и языковое сознание узбеков установлено, что под влиянием русского языка в узбекском языке часто встречаются лексемы, освоенные способом калькирования или заимствованные понятия, выраженные узбекскими словами.*

Ключевые слова*: сопоставительный анализ языков, прагмативные и когнитивные аспекты, методы наблюдения, лексемы, говорить красиво,коммуникативная компетенция, устная речь.*

Abstract: *The article discusses the problem of studying spoken Russian with Uzbeks, a comparative analysis of the languages. The purpose of this work is to identify the influence of the Russian language on the Uzbek linguistic picture of the world in pragmatic and cognitive aspects. The main content of the study is the analysis of speech units used in the Uzbek language and which appeared under the influence of the Russian language. The article also discusses the formation of new ontological foundations for analyzing the relationship between language and speech, allowing this connection to be observed indirectly through text. The article examines specific examples of the use of Russian words in works of fiction and in colloquial speech. The research used the methods of observation, generalization and comparative analysis. Based on the study of the cognitive and pragmatic influence of*

the Russian language on the Uzbek language and the linguistic consciousness of the Uzbeks, it was established that, under the influence of the Russian language, the Uzbek language often contains lexemes acquired through calques or borrowed concepts expressed by Uzbek words.

Key words*: Comparative analysis of languages, pragmatic and cognitive aspects, observation methods, lexemes, speaking beautifully, communicative competence, oral speech.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbeklar tomonidan rus tilida so‘zlashuv tilini o‘rganish va tillarning qiyosiy tahlili ko‘rib chiqiladi. Ushbu ishning maqsadi rus tilining o‘zbek lingvistik dunyoqarashiga pragmatik va kognitiv jihatlardagi ta’sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning asosiy yo‘nalishi o‘zbek tilida qo‘llanilgan, rus tili ta’sirida vujudga kelgan nutqiy birliklarni tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, u til va nutq o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilishning yangi ontologik asoslarini ishlab chiqishni o‘rganadi, bu aloqani matn orqali bilvosita kuzatish imkonini beradi. Ushbu maqolada rus tilidagi so'zlarning badiiy va so'zlashuv nutqida qo'llanilishiga oid aniq misollar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda kuzatish, umumlashtirish va qiyosiy tahlildan foydalaniladi. Rus tilining o‘zbek tiliga va o‘zbeklarning lingvistik ongiga kognitiv va pragmatik ta’sirini o‘rganish asosida o‘zbek tilida rus tili ta’sirida ko‘pincha o‘zbek tilidagi so‘zlar bilan ifodalangan kalklar yoki o‘zlashtirilgan tushunchalar orqali olingan leksemalar mavjudligi aniqlandi.*

Kalit so'zlar*: Tillarning qiyosiy tahlili, pragmatik va kognitiv jihatlari, kuzatish usullari, leksemalar, chiroyli gapirish, kommunikativ kompetentsiya, og'zaki nutq.*

Для изучения разговорного русского языка узбеками существует множество ресурсов — от научных статей, анализирующих влияние русского на узбекский язык, до практических учебников и разговорников в формате PDF, которые доступны онлайн. Популярные темы в статьях — лексические заимствования, сопоставительный анализ языков (русский как флективный, узбекский как агглютинативный), а также методики преподавания русского как иностранного в вузах Узбекистана, ориентированные на коммуникативную компетенцию.

Человек, который говорит красиво и грамотно, как правило, становится более успешным в профессиональном плане и чаще добивается поставленных целей. Правильная речь в современном мире крайне важна для построения карьеры. Вот почему в 9 и 11 классах сейчас вводится новая, устная часть экзамена по русскому языку: именно она сможет показать, насколько хорошо выпускники умеют выражать свои мысли, складывать слова в предложения и доносить смысл до слушателей.

В рамках устной части оцениваться на ОГЭ и ЕГЭ будут связность речи, последовательность изложения, богатство словарного запаса, точность выражения мысли, цельность смысла высказывания, разнообразие

грамматических конструкций. Кроме того, нужно будет продемонстрировать умение задавать вопросы и владение невербальными способами общения — мимикой и жестами. Куда бежать, чтобы все это освоить, если со словами у вас беда?

Когда вы читаете книги, полезно не только следить за сюжетом и развитием событий, но и обращать внимание на то, какими словами автор описывает героев, природу, интерьер и предметы. Как строятся его предложения? Какие эпитеты и метафоры используются в тексте? Внимание к таким деталям и пересказ прочитанного поможет лучше запомнить литературные приемы и научиться применять их в собственной речи.

Аудиокниги— отличный выход, если нужно справиться со школьной программой или просто приятно провести время. Обращать внимание при их прослушивании нужно на то, как профессиональные актеры используют интонацию, логическое ударение, темп речи и тембр голоса, как с помощью пауз создается нужный эффект. Грамотная, но монотонная и невыразительная речь не поможет завоевать внимание аудитории. Интонация иногда может сказать больше, чем слова, — вот почему люди чаще доверяют не прямому смыслу фразы, а тому, как именно она была произнесена. С помощью интонации человек иногда осознанно, а иногда и непроизвольно передает мысли, чувства и настроение. А прочувствовать ее важность поможет простое упражнение: произнести любое слово (например, «молодец» или «хорош!») три-четыре раза с разной интонацией.

Нужно избавиться от слов-паразитов — таких как «ну», «как бы» и «в общем». Справиться с ними поможет система «штрафов»: если запретное слово произнесено, то нужно выполнить пять приседаний, например. Или можно заключить пари с друзьями: кто дольше обойдется без «паразитов».

Для тренировки ораторских навыков выбрать можно любую тему, объект или предмет. Нужно говорить об этом не менее пяти минут — красиво, образно, используя метафоры и интонацию. Можно усложнить задание и произносить оду выбранному предмету. За счет подобных тренировок речь постепенно сделается более уверенной, подбирать нужные слова станет проще, и можно будет увеличить время выполнения упражнения.

Чтобы научиться хорошо говорить, нужно воспитывать в себе способность нестандартно мыслить. Это поможет стать интересным рассказчиком с оригинальным ходом мыслей. Чтобы потренироваться, стоит попробовать найти как можно больше общего между двумя на первый взгляд не связанными друг с другом предметами или понятиями. Например, что общего у стола и кота? Еще можно придумывать свои продолжения крылатым фразам и афоризмам. Например, продолжить фразу: «Вся наша жизнь — ...». Шекспир закончил ее словом «игра», а какие варианты еще можно придумать и обосновать?

Нужно взять за правило каждое утро изучать одно крылатое выражение (например, «дело в шляпе», «нос повесить», «рукой подать») и стараться применить его в течение дня в речи хотя бы один раз. Фразеологизмы придают эмоциональную окраску речи, делают ее выразительной и интересной. Нужно играть в игры, которые развивают словарный запас: например, Scrabble и «Табу». В первой нужно составлять слова по принципу кроссворда, стараясь набрать как можно больше очков. В ходе игры можно узнать много новых слов и их значение. Есть мобильная версия, которая называется «Эрудит»: она поможет с пользой провести время в дороге или в ожидании.

Изучение разговорного русского языка для узбекоязычных людей имеет свои особенности, связанные с различиями в фонетике и грамматике двух языков. Для эффективного освоения языка рекомендуется использовать специальные методики и ресурсы, разработанные с учетом этих нюансов.

Влияние русского языка на узбекскую языковую картину мира сформировалось в результате длительных исторических, культурных и социально-политических контактов. Это влияние проявляется на разных уровнях языка и мышления. Русский язык на протяжении XIX–XX веков выполнял в Узбекистане функции языка межнационального общения, науки, образования и управления. В советский период он стал источником новых понятий, терминов и моделей мышления, связанных с модернизацией общества. Наиболее заметно влияние русского языка в лексике:

• Заимствования: документ, завод, институт, техника, культура и др.

• Кальки: дословные переводы устойчивых выражений и терминов.

• Терминология: научная, техническая, общественно-политическая сферы в значительной степени формировались под влиянием русского языка.

Под влиянием русского языка некоторые слова узбекского языка приобрели новые оттенки значений или стали использоваться в новых контекстах. Появились концепты, ранее нехарактерные для традиционного узбекского мировосприятия (например, связанные с индустриализацией, бюрократией, формальной коммуникацией).

Русский язык повлиял на формирование двуязычной языковой картины мира у значительной части населения. Для многих носителей характерно переключение кодов, что отражает смешение культурных и языковых концептов. Сегодня влияние русского языка сохраняется, но развивается на фоне активизации национального самосознания и расширения функций узбекского языка. Взаимодействие языков носит характер не вытеснения, а взаимного обогащения.

Отсюда можно сделать вывод, что русский язык оказал значительное влияние на узбекскую языковую картину мира, расширив её концептуальные и выразительные возможности. Это влияние проявляется в лексике, семантике,

стиле и мышлении, формируя уникальную билингвальную модель восприятия мира.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Ирина Агеева « 10 способов развить навыки устной речи».
2. Е.А. Земская « Разговорная речь как объект лингвистического исследования» , 1973год. Москва , издательство « Наука».
3. Н.И. Формановская « Речевой этикет и культура общения», 1989 год, Москва. Издательство « Высшая школа». https://survival-russian.ru/uroki-russkogo-yazyka-dlya-inostrantsev/ 10 способов развить навыки устной речи

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA YUKLARNI YETKAZIB BERISH MUDDATINI KAMAYTIRISHNING MATEMATIK YONDASHUVI

Orolbo‘yi tibbiyot va transport texnikumi
Temir yo‘l transporti kafedrasining " Yuk va tijorat ishlari asoslari " fani o‘qituvchisi
Bozorboyev Shuhrat Ziynat o‘g‘li
bazarbaevshz@gmail.com 998936145433

Annotatsiya: *Mazkur maqolada matematik yondashuvlar asosida temir yo‘l transportida yuklarni yetkazib berish muddatini kamaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Texnik va oraliq stansiyalarda qayta ishlanishlar sonining yuklarni yetkazib berish muddatiga ta’siri o‘rganilgan.*

Kalit so'zlar: *yuklarni yetkazib berish muddati, poyezdlarni tuzish rejasi, vagonlarni qayta ishlashlar soni, jo‘natmalarni tashkil etish, matematik yondashuv, tezkor rejalashtirish.*

Ключевые слова*: срок доставки грузов, план формирования поездов, количество переработки вагонов, организация отправки, математический подход, оперативное планирование.*

KIRISH

Dunyoda temir yo‘l uchastka va yo‘nalishlarida yuk tashish texnologik jarayonlarini tashkil etish va transport xizmatlarini rivojlantirish, yuklarni yetkazib berish muddatlarini tahlil va nazorat qilish usullarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan temir yo‘l transporti orqali yuklarni yetkazib berish muddatlariga ta’sir ko‘rsatadigan shartli-o‘zgarmas va tasodifiy omillarni tizimlashtirish hamda vagonlar bilan yo‘l davomida bajariladigan barcha operatsiyalarga sarflanadigan vaqtlarni me’yorlash asosida yuklarni tashish jarayonini tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish, matematik yondashuvlar asosida yuklarni yetkazib berish muddatini hisoblashga doir matematik modellarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi Tadqiqot ishida 2021 yil bo‘yicha yuklarni o‘z vaqtida yetkazib berishi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuklarning kechiktirilmasdan yetkazib berish ulushi — 94 %, bir kundan kam bo‘lgan muddatdagi kechikishlar ulushi — 2 %, bir kundan uch kungacha bo‘lgan muddatdagi kechikishlar ulushi — 2 %, uch kundan o‘n kungacha yoki undan ko‘p bo‘lgan muddatdagi kechikishlar ulushi — jami 2 % ni tashkil etmoqda



1 rasm. Yuklarni yetkazib berish muddatlarining kechikish diagraga ko‘ra, yuklarni yetkazib berish muddatlari ularning harakatlanish vaqti bilan ifodalanadi. Ushbu ko‘rsatkich kilometrlarda va yo‘lning umumiy uzunligi bo‘yicha vagonlarning kunlik yurish masofasi me’yoriga qarab belgilanadi. Ya’ni, harakatlanish vaqti quyidagicha ifodalanadi:bunda poyezdning jo‘nash va yetib borish stansiyalari orasidagi masofa, km; yuk tashish turi, tashish usuli va yuk tashish qoidalari bilan belgilangan yuk tashish tezligi, km/kun.Biroq formula asosida yuklarni yetkazib berish tezligini hisoblash tizimining mavjud texnologiyasida temir yo‘ldagi tashish jarayonining texnologik xususiyatlari hisobga olmaydi. Mavjud texnologiya asosida yetkazib berish jarayonida vagonlar texnik stansiyalarda va yo‘lda bo‘lishini ta’minlaydi, lekin qayta ishlash jarayonlarining xususiyatlarini inobatga olmaydi. Tadqiqot ishi davomida vagonlar oqimining yo‘l bo‘ylab yurishidagi turli nomarshrut jo‘natmalaridagi ishlov berishlar soni tahlil qilindi. Ma’lum bo‘lishicha, jo‘natmalarning taxminan 65 foizi yo‘lda 3 yoki undan kam, taxminan 35 foizi esa 4 yoki undan ko‘p qayta ishlovga tushishi mumkinligi aniqlandi. Tahlil natijalari 2-rasmda keltirilgan.



2 rasm. Qayta ishlash soni bo‘yicha jo‘natmalar foizini taqsimlash Mazkur tizim asosida mahalliy vagonlar harakatini tashkil etish amaliy jihatdan o‘zini oqlamaydi. Shunday ekan, mahalliy vagonlar oqimini tezlashtirish hisobiga yuklarni yetkazib

berish muddatini oshirishning yangicha matematik yondashuvini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.Mahalliy vagonlar oqimini sekinlashishiga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishda uchastkada joylashgan oraliq stansiyalarga vagonlar oqimining uzatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy vagonlar oqimi harakatini tezlashtirish choralari ko‘rilar ekan, unga matematik yondashuvlar asosida optimal yechimni qidirish va asosiy baholash mezonlarini tanlash maqbul usul hisoblanadi.Mahalliy vagonlar oqimini tezlashtirish ning matematik yondashuv i .Mahalliy vagonlarni o‘z manzillariga yetkazib berishi mumkin bo‘lgan sxemalarining umumiy soni mazkur uchastkada joylashgan oraliq stansiyalari soni, yetkazilib berilishi ko‘zda tutilgan vagonlarning soni, oraliq stansiyalarning joylashuvi o‘rni va boshqa bir nechta parametrlarga bog‘liq bo‘ladi. Mahalliy vagonlar oqimini tezlashtirish bo‘yicha matematik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun quyidagi sxema (3-rasm)dan foydalanamiz. 3-rasmga ko‘ra, toq yo‘nalishda harakatlanadigan vagonlar oqimini X bilan, juft yo‘nalishda harakatlanadigan vagonlar oqimini Y bilan belgilash kiritildi. Toq va juft yo‘nalishlarda harakatlanuvchi vagonlar oqimi to‘plamlari mos ravishda keltirilgan.



3 rasm. Vagonlarni o‘z manzillariga yetkazib berishning algebraik ehtimollik grafigi (mahalliy vagonlar aylanmasi misolida)Toq yo‘nalishida harakatlanuvchi vagonlar oqimi to‘plami (X) quyidagicha ifodalanadi:Juft yo‘nalishida harakatlanuvchi vagonlar oqimi to‘plami (Y) quyidagicha ifodalanadi:Stansiyaga kiruvchi vagonlar oqimini, ulardan chiquvchi vagonlar oqimiga nisbatini bildiruvchi koeffitsientlar (4)-(7) ifodada keltirilgan. Kasrning suratidagi qo‘shiluvchilar stansiyaga qabul qilinuvchi vagonlar oqimini, maxraji esa ushbu stansiyadan chiqib ketuvchi vagonlar oqimini bildiradi Birinchi stansiya uchun:Ikkinchi stansiya uchun:Uchinchi stansiya uchun:n-stansiya uchun:Har bir stansiya uchun bu koeffitsientning qiymati “1” ga yaqin bo‘lsa,

vagonlar oqimi samaradorligi va vagonlar aylanmasi ushbu uchastkada yuqori darajada bo‘ladi:Demak, mahalliy vagonlar oqimi harakatini tezlashtirishda unga ta’sir etuvchi omillar to‘plami (A) quyidagi munosabatda bo‘lsa, ushbu uchastkada samardorlik bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishish mumkin bo‘ladi:bunda bir nechta elementlardan iborat bo‘lgan, optimallashtirilayotgan parametrlarning qabul qilingan qiymatlari to‘plami.texnik stansiyalar orasida joylashgan oraliq stansiyalarning soni;oraliq stansiyalarda bajariladigan jarayonlarning soni; mahalliy poyezdlarning oraliq stansiyalarda turish vaqti;va mos ravishda oraliq stansiyasi yo‘llarining soni va ularning band bo‘lish ulushi;va mos ravishda temir yo‘l uchastkasi va oraliq stansiyalar orasidagi masofa; va mos ravishda uchastkaning yo‘lovchi va boshqa yuk poyezdlari bilan band bo‘lish darajasi; temir yo‘l uchastkasidagi yo‘llarning nishabligi; va tabiiy va texnogen omillar va oraliq stansiyalarining joylashuviga nisbatan mos ravishda toq va juft yo‘nalishlarda harakatlanuvchi vagonlar oqimi;

W_x – oraliq stansiyalarda manyovr ishlarini bajaruvchi harakat birliklari soni yoki ularning turlari (poyezd lokomotivi yoki manyovr lokomotivi); va mos ravishda uchastkada poyezdlar uchun o‘rnatilgan tarkiblarning shartli uzunligi va og‘irligi me’yorlari; uchastka tezligi.Mahalliy vagonlar oqimini ratsional tashkil etish muammolari ushbu uchastkalarda joylashgan oraliq stansiyalarda bajariladigan manyovr ishlarining to‘g‘ri taqsimlanmaganligi bilan bog‘liqdir .Temir yo‘l uchastkalarida joylashgan oraliq stansiyalarda mahalliy vagonlar bilan bajariladigan manyovr ishlariga sarflangan vaqtining davomiyligi ushbu stansiyada qo‘shiladigan va ajratiladigan vagonlar soniga bog‘liqdir. Oraliq stansiyada qo‘shiladigan va ajratiladigan vagonlar soni ko‘p bo‘lsa (yoki poyezd tarkibida vagonlarning joylashuvi betartib bo‘lsa), mazkur vagonlar bilan bajariladigan manyovr ishlariga sarflanadigan vaqt ham ko‘p bo‘ladi. Demak, manyovr ishlariga sarflanadigan vaqt funksiyasi, oraliq stansiyalarida qo‘shiladigan va ajratiladigan vagonlar soniga hamda poyezd tarkibida ushbu vagonlarning joylashuv tartibi funksiyalariga to‘g‘ri proporsional ta’sir qiladi:Bunda poyezd tarkibida oxirgi manzili i- oraliq stansiya deb belgilangan vagonlarning joylashuvi; i- stansiyada qo‘shilayotgan va ajratilayotgan vagonlar soni (qo‘shilayotgan va ajratilayotgan vagonlar soniga bog‘liq ravishda keyingi hisob-kitoblarda ning qiymati (-) yoki (+) bo‘lishi mumkin): vagon bunda mos ravishda i-stansiyada qo‘shilayotgan va ajratilayotgan vagonlar soni. Oxirgi manzili i- oraliq stansiya deb belgilangan vagonlarning poyezd tarkibidagi joylashuvi tartibsiz bo‘lsa, ushbu vagonlarni poyezd tarkibidan ajratib olish vaqti ham ortib ketadi. Bu esa, ortiqcha manyovr reyslarini va xarajatlarni keltirib chiqaradi. Oraliq stansiyalarda manyovr reyslarini kamaytirish bilan vagonlar oqimini tezlashtirishga erishish mumkin. Bajarilayotgan ishning hajmi va tasnifiga bog‘liq ravishda terma poyezddan vagonlarni ajratish va qo‘shish vaqti davomiyligi quyidagilarga bog‘liq: – manyovr ishlarini olib boruvchi harakat birligi turi (poyezd lokomotivi yoki manyovr lokomotivi)ga; – ajratilayotgan va qo‘shilayotgan vagonlarning joylashuvi (poyezdning bosh qismida,

poyezdning orqa qismida yoki poyezdning o‘rtasida)ga. Yuqoridagi holatlar uchun va vaqtlarini hisoblash formulalari 1-jadvalda keltirilgan.1 jadval Oraliq stansiyalarda vagonlarni ajratish va qo‘shish bilan bog‘liq manyovr ishlarini bajarish uchun sarflangan vaqtlarni hisoblash jadvali

		Ajratish vaqti, daq.	***Qo‘shish vaqti, daq.***	***Ajratib-qo‘shish vaqti, daq.***
Manyovr ishlari poyezd lokomotivi bilan bajarilganda	*Poyezdning bosh qismidan*	$4{,}67 + 0{,}19 \cdot\cdot m_{ajr}$	$3{,}97 + 0{,}22 \cdot\cdot m_{qo'sh}$	$8{,}15 + 0{,}29 \cdot m_{ajr} + +0{,}23 \cdot m_{qo'sh}$
	Poyezdning orqa qismidan	$11{,}76 + 0{,}61 \cdot\cdot m_{ajr}$	$11{,}52 + 0{,}37 \cdot\cdot m_{qo'sh}$	$15{,}53 + 0{,}46 \cdot m_{ajr} + +0{,}49 \cdot m_{qo'sh}$
	Poyezdning o‘rtasidan	$5{,}59 + 0{,}24 \cdot n_{ol.q.} + 0{,}20 \cdot\cdot m_{ajr}$	$5{,}05 + 0{,}24 \cdot n_{ol.q.} + 0{,}21 \cdot\cdot m_{qo'sh}$	$10{,}15 + 0{,}33 \cdot n_{ol.q.} + 0{,}29 \cdot m_{ajr} + 0{,}21 \cdot\cdot m_{qo'sh}$
Manyovr ishlari manyovr lokomotivi bilan bajarilganda	*Poyezdning orqa qismidan*	$3{,}75 + 0{,}46 \cdot\cdot m_{ajr}$	$2{,}05 + 0{,}06 \cdot\cdot m_{qo'sh}$	$5{,}95 + 0{,}46 \cdot m_{ajr} + +0{,}18 \cdot m_{qo'sh}$

1-jadvalda keltirilgan formulalardagi barcha sonlar empirik koeffitsientlardir oraliq stansiyada qo‘shilayotgan va ajratilayotgan vagonlar soni oraliq stansiyalarda manyovr ishlarini bajarishdan avval poyezd tarkibidan uzib, olib qo‘yiladigan vagonlar soni 1-jadvalga asosan, manyovr ishlari poyezd lokomotivi bilan bajarilganda, oraliq stansiyalarda poyezdlarning me’yordan ortiq turib qolishi kuzatiladi. Uchastkalarda vagonlar oqimini tezlashtirish uchun oraliq stansiyalarda manyovr ishlarini bajarish uchun manyovr lokomotivlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mahalliy vagonlar oqimi harakatini tezlashtirish orqali yuklarni o‘z manzillariga yetkazib borish muddatini kamaytish mumkin. Bunda mahalliy vagonlar oqimi harakatini tezlashtirishga ta’sir etuvchi omillarni minimallashtirish (yoki maksimallashtirish), yuklarni o‘z vaqtida yetkazib berish tizimini takomillashtirishning asosiy mezoni hisoblanadi. Shuningdek, yo‘lda vagonlarni qayta ishlash sonini kamaytirish har doim ham iqtisodiy jihatdan maqbul emasligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Mahalliy vagonlar aylanmasi misolida vagonlarni o‘z manzillariga yetkazib berishning algebraik ehtimollik grafigi ishlab chiqilishi, vagonlarni texnik va oraliq stansiyalar bo‘yicha ratsional taqsimlashga imkon beradi. Bunda, mazkur stansiyalarda vagonlarning turish vaqtini qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Matematik yondashuvlar asosida mahalliy vagonlar oqimini ratsional tashkil etish yaqin kelajakda temir yo‘l transporti va ularning mijozlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga asos bo‘ladi.

REFERENCES:

1. Jumayev, S., Khudayberganov, S., Achilov, O., & Allamuratova, M. (2021). Assessment criteria for optimization of parameters affecting to local wagon-flows at railway sites. In E3S Web of Conferences (Vol. 264). EDP Sciences. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126405022 7. Суюнбаев, Ш. М., Жумаев, Ш. Б. Ў., Бўриев, Ш. Х. Ў., & Туропов, А. А. Ў. (2021). Темир йўл участкаларида маҳаллий вагонлар оқимини турли тоифадаги поездлар билан ташкил этиш усулларини техник-иқтисодий баҳолаш. Academic research in educational sciences, 2(6), 492–508. https://doi.org/10.24412/2181–1385–2021–6–492–508.8. Mansuraliyevich, S. S., Kabildjanovich, K. S., Aleksandrovich, S. A., Bakhromugli, J. S., Bakhromovna, M. D., & Rakhimovich, O. A. (2021). Method of determining the minimum required number of sorting tracks, depending on the length of the group of wagons. REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS, 11(2), 1941–1960. https://doi.org/10.47059/revistageintec.v11i2.1810 9. Aripov, N. M., & Vladimirovich, R. A. (2021). Rapid planning of mixed-structure train organization in the context of non-proportional wagon-flows. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 1(5), 324–335. http://openaccessjournals.eu/index.php/ijdias/article/view/562.

MAKTABGACHA YOSHDAGI RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALARNING UMUMIY VA MAYDA MOTORIKASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.

Mamatova Aziza Bo‘riyevna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti Logopediya kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha doktori (PhD)
Tuychieva Xushnoza Umarbekovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti Logopediya yo‘nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda (RRS) umumiy va mayda motorika ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar va metodikalarni chuqur tahlil qiladi. Tadqiqot RRSning psixologik-pedagogik xususiyatlarini, jumladan, ularning motorik rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarini o‘rganadi. Maqolada umumiy motorikani takomillashtirish uchun jismoniy mashqlar, harakatli o‘yinlar va sport elementlaridan foydalanish, shuningdek, mayda motorikani rivojlantirish uchun barmoq o‘yinlari, sensorli vositalar kabi yondashuvlar atroflicha yoritiladi. Rivojlantirish texnologiyalarining samaradorligini baholashda oila va mutaxassislar hamkorligining muhimligi, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan va integratsiyalashgan yondashuvlarning o‘rni alohida ta'kidlanadi. Maqola amaliy tavsiyalar va kelgusi tadqiqot yo‘nalishlari bilan yakunlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Ruhiy rivojlanish sustlashishi, motorika, umumiy motorika, mayda motorika, maktabgacha yosh, rivojlantirish texnologiyalari, maxsus pedagogika, oila hamkorligi*

Abstract: *This article deeply analyzes modern technologies and methodologies aimed at developing gross and fine motor skills in preschool children with delayed psychological development (DSPD). The study explores the psychological and pedagogical characteristics of DSPD, including the specific features of their motor development. The article thoroughly covers approaches such as using physical exercises, active games, and sports elements for improving gross motor skills, as well as finger games, sensory tools for developing fine motor skills. The importance of collaboration between families and specialists in evaluating the effectiveness of developmental technologies, as well as the role of person-centered and integrated approaches, is emphasized. The article concludes with practical recommendations and directions for future research.*

Keywords: *Delayed psychological development, motor skills, gross motor skills, fine motor skills, preschool age, developmental technologies, special pedagogy, family collaboration*

Аннотация: *Данная статья глубоко анализирует современные технологии и методики, направленные на развитие крупной и мелкой моторики у детей дошкольного возраста с задержкой психического развития (ЗПР). Исследование изучает психолого-педагогические особенности детей с ЗПР, включая специфику их моторного развития. В статье подробно освещаются подходы, такие как использование физических упражнений, подвижных игр и элементов спорта для совершенствования крупной моторики, а также пальчиковых игр, сенсорных средств для развития мелкой моторики. Особое внимание уделяется важности сотрудничества семьи и специалистов в оценке эффективности развивающих технологий, а также роли личностно-ориентированных и интегрированных подходов. Статья завершается практическими рекомендациями и направлениями для будущих исследований.*

Ключевые слова*: Задержка психического развития, моторика, крупная моторика, мелкая моторика, дошкольный возраст, развивающие технологии, специальная педагогика, семейное сотрудничество*

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida motorika muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u kognitiv, nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda (RRS) motorik rivojlanishdagi kechikishlar ko‘pincha kuzatiladi, bu esa ularning atrof-muhitni o‘rganishi, o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko'nikmalarini egallashi va o‘quv faoliyatiga tayyorligiga salbiy ta’sir ko'rsatadi. Ushbu muammo bolaning kelajakdagi hayoti va jamiyatga integratsiyalashuvi uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun ushbu toifadagi bolalarda motorik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb vazifadir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi maktabgacha yoshdagi RRS bolalarda umumiy va mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar va metodikalarni tizimlashtirish, ularning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda amaliy qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: RRS bolalarda motorik rivojlanishning nazariy asoslari va xususiyatlarini o‘rganish; umumiy va mayda motorikani rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar va vositalarni aniqlash; ushbu texnologiyalarning samaradorligini baholash mezonlarini belgilash; rivojlantirish jarayonida oila va mutaxassislar hamkorligining ahamiyatini ko'rsatish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda motorik rivojlanishning nazariy asoslari ularning psixofiziologik xususiyatlarini chuqur tushunishni talab qiladi. Ularda harakat rejasini tuzish, ketma-ketlikni saqlash va harakatni yakunlashda qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Mayda motorika, masalan, barmoqlarning nozik harakatlari, odatda, yanada sust rivojlanadi, bu esa chizish, yozishga tayyorgarlik va o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko'nikmalarini egallashni qiyinlashtiradi. Dastlab, ruhiy rivojlanishning kechikishi muammosi mamlakat ichidagi tadqiqotlarda klinitsistlar tomonidan asoslangan. «Ruhiy rivojlanishning kechikishi» atamasi G.E. Suxareva tomonidan taklif qilingan. U qayd etganidek, o‘rganilayotgan fenomen, avvalo, ruhiy rivojlanishning sekinlashgan sur'ati, shaxsning yetilmaganligi, bilish faoliyatidagi og‘ir bo‘lmagan buzilishlar bilan tavsiflanadi, bu struktura va miqdor ko‘rsatkichlari bilan oligofereniyadan farq qiladi, kompensatsiya qilinish va aks rivojlanish tendensiyasiga ega. Shu tarzda, RRSni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan eng muhim sabablar guruhlarini ajratish mumkin:

1) miyani normal va o‘z vaqtida yetilishiga to‘sqinlik qiluvchi biologik tabiiy sabablar;

2) bolaning jamiyat tajribasini o‘zlashtirishini kechiktiruvchi atrofdagi odamlar bilan umumiy muloqotning yetishmasligi;

3) bolaning o‘z kuchiga mos jamiyat tajribasini „egallash“ imkonini beruvchi, yoshga mos to‘liq faoliyatning mavjud emasligi, ichki ruhiy harakatlarning o‘z vaqtida shakllanishi.

4) ijtimoiy cheklov, o‘z vaqtida psixologik rivojlanishga to‘sqinlik qiladigan. [3].

Bolalarning RRS bilan rivojlanishi normada bo‘lgan tengdoshlaridan sezilarli darajada ortda qolishi, psixolog-tadqiqotchilar V. I. Lubovskiy, L. I. Peresleni, I. Yu. Kulagina, T. D. Puskaeva va boshqalarning ularning fikrlash jarayonlarini tahlil qilishida qayd etiladi. Ortda qolish barcha asosiy fikrlash operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajada shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi: tahlil, umumlashtirish, abstraktsiya, ko‘chirish (T. P. Artemyeva, T. A. Fotekova, L. V. Kuznetsova, L. I. Peresleni).

RRSda motorik rivojlanishdagi kechikishlar ko'pincha sensor-motor integratsiyasining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular atrofdagi informatsiyani qabul qilish, qayta ishlash va unga mos harakat bilan javob berishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ularning makonni idrok etishi, tananing sxemasini tushunishi va umumiy koordinatsiyasiga salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun, motorikani rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqishda bu xususiyatlarni hisobga olish, ya’ni bolalarga sensorli stimulatsiya va bosqichma-bosqich ko‘rsatmalar orqali yordam berish kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maktabgacha yoshdagi RRS bolalarda umumiy va mayda motorikani rivojlantirish texnologiyalarini tahlil qilish uchun tizimli va kompleks

yondashuv qo‘llaniladi. Umumiy motorika (yoki yirik motorika) butun tana mushaklarining muvofiqlashtirilgan harakatlarini o'z ichiga oladi, masalan, yurish, yugurish, sakrash, to‘p otish va tutish. RRSda bu ko‘nikmalar ko'pincha noto‘g‘ri shakllanadi, bu ularning ijtimoiy moslashuviga ta'sir qiladi. Umumiy motorikani rivojlantirish uchun quyidagi texnologiyalar tavsiya etiladi:

Harakatli o‘yinlar: Oddiy qoidali, takrorlanuvchi harakatlarni o‘z ichiga olgan o‘yinlar (masalan, "quyoncha va tulki", "qo‘g‘irchoq" o‘yinlari). Bu o‘yinlar orqali bolalar harakat koordinatsiyasini, tezligini va chaqqonligini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda RRS bilan umumiy va ayniqsa, nozik motoriya rivojlanishida kechikish kuzatiladi. Asosan harakat texnikasi va harakat sifatlari (tezlik, chaqqonlik, kuch, aniqlik, koordinatsiya) zarar ko‘radi, psixomotor yetishmovchiliklar aniqlanadi. [3]. O‘zini o‘zi parvarish qilish ko‘nikmalari, ijodiy faoliyatda texnik ko‘nikmalar, loydan ishlash, illyustratsiya, konstruksiya yetarli emas. Ko‘plab bolalar qalamni to‘g‘ri ushlashni bilishmaydi, bosim kuchini nazorat qila olmaydilar, qaychi bilan ishlashda qiynalishadi.

Sport elementlari: To‘p bilan o'yinlar (dumalatish, otish, tutish), arqon sakrash, velosipedda yurish kabi yengil sport turlari. Bu faoliyatlar muvozanatni, ko‘zni qo‘l bilan muvofiqlashtirishni va kuchni rivojlantiradi.

Ritmik gimnastika va raqs: Musiqa ostida harakat qilish bolalarda ritm hissini, plastikani va harakatlarning ifodaliligini shakllantiradi. Bu, ayniqsa, RRSning sezgi-motor integratsiyasini yaxshilashda samaralidir.

Ijtimoy hayotdagi faoliyatlar: Ochiq havoda o‘tkaziladigan o‘yinlar va mashg'ulotlar (qumda o‘ynash, suvda chayqalish, tebranma o‘yinchoqlarda tebranish) nafaqat motorikani, balki sensorli idrokni ham rivojlantiradi.

Mayda motorika (yoki nozik motorika) qo‘l va barmoqlarning aniq, muvofiqlashtirilgan harakatlarini o‘z ichiga oladi, bu nutq rivojlanishi va kognitiv jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. RRSda mayda motorikaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ko‘pincha kuzatiladi.

Barmoq o‘yinlari va massaji: "Mag'rur barmoqlar", "kichkintoylar yugurishmoqda" kabi barmoq o‘yinlari. Barmoq uchlari massaji (massaj sharchalari, cho‘tkalar yordamida) qon aylanishini yaxshilaydi va nerv uchlarini rag‘batlantiradi.

Sensorli o‘yinlar va vositalar: Guruch, no‘xat, qum kabi materiallar bilan o‘ynash (mayda narsalarni yashirish va topish), suv o‘yinlari. Bu faoliyatlar sensorli idrokni, taktikasini rivojlantiradi va qo‘llarning nozik harakatlarini rag‘batlantiradi.

Maxsus didaktik o‘yinlar: Tugmalar va ilmoqlarni qadash, shnur bog‘lash, munchoq terish, mayda narsalarni turlash. Bular bolalarda kundalik hayot ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi va barmoq mushaklarini mustahkamlaydi.

Raqamli texnologiyalar: Rivojlantiruvchi planshet ilovalari va interaktiv o‘yinlar ham diqqat bilan tanlangan holda mayda motorikani rivojlantirishga hissa qo‘shishi

mumkin, ammo ular an’anaviy usullarni to'ldirishi kerak, ularning o‘rnini bosmasligi lozim.

Rivojlantirish texnologiyalarining samaradorligini baholash har bir bolaning individual dinamikasini kuzatishni o‘z ichiga oladi. Bunda bolaning harakatlarni bajarish tezligi, aniqligi, muvofiqlashuvi, mustaqillik darajasi va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish qobiliyati kabi mezonlar inobatga olinadi. Davriy diagnostika (pedagogik kuzatuvlar, testlar, maxsus topshiriqlar) yordamida bolaning motorik rivojlanish darajasi muntazam ravishda baholanadi va rivojlantirish dasturlari uning ehtiyojlariga mos ravishda korreksiya qilinadi. RRSning yuqori darajadagi o'qituvchanligi va kattalar yordamidan samarali foydalanish qobiliyati [1] bu baholash jarayonida muhim omil hisoblanadi.

Oila a’zolarini rivojlantirish jarayoniga jalb qilish muhimdir. Ota-onalar bolalarning eng yaqin muhiti bo‘lib, ular mutaxassislar tavsiyalariga amal qilib, uy sharoitida qo‘shimcha mashg'ulotlar o‘tkazishlari mumkin. Mutaxassislar ota-onalarga bolaning yoshi va imkoniyatlariga mos keladigan o‘yinlar va mashqlarni o‘rgatishi, shuningdek, kundalik hayotda motorik ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha maslahatlar berishi kerak. Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi muntazam muloqot va axborot almashinuvi bolaning rivojlanish dinamikasini yaxshiroq tushunish va rivojlantirish dasturini yanada samaraliroq qilish imkonini beradi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning umumiy va mayda motorikasini rivojlantirish nafaqat ularning jismoniy salomatligi, balki kognitiv, nutqiy va ijtimoiy-emosional rivojlanishi uchun ham fundamental ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot RRSning psixologik-pedagogik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularda motorik ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy texnologiya va metodikalarni tahlil qildi. Umumiy motorikani rivojlantirish uchun harakatli o‘yinlar, jismoniy mashqlar, sport elementlari va ritmik gimnastika muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, mayda motorika uchun barmoq o‘yinlari, tasviriy faoliyat, konstruktorlar, sensorli o‘yinlar va didaktik vositalar samarali ekanligi ko‘rsatildi.

Individual yondashuv: Har bir RRSning individual rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlar: Motorika rivojlantirish mashg'ulotlarini nutq, kognitiv va ijtimoiy-emosional rivojlanish faoliyatlari bilan integratsiyalash.

O‘yin shaklidagi faoliyat: Mashg‘ulotlarni qiziqarli va motivatsiyalashtiruvchi o‘yin shaklida tashkil etish, chunki RRS vizual misollar va kattalar yordamidan samarali foydalanadi [1].

Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalarni rivojlantirish jarayoniga faol jalb qilish, ularga uy sharoitida bajarish mumkin bo‘lgan o‘yinlar va mashqlar bo‘yicha maslahatlar berish.

Ko‘rib chiqilayotgan bolalar toifasining psixik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Maktabgacha yoshdagi ZPR bolalarda umumiy va ayniqsa, nozik motorikani rivojlantirishda kechikish kuzatiladi. Asosan harakat texnikasi va harakat ko‘nikmalari (tezlik, chaqqonlik, kuch, aniqlik, koordinatsiya) zarar ko‘radi, psixomotor etishmovchiliklar aniqlanadi. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalari, rassomchilik faoliyati, loy bilan ishlash, illyustratsiya, konstruksiya qilishdagi texnik ko‘nikmalar yetarlicha shakllanmagan. Ko‘plab bolalar ruchkani yoki cho‘tka tutishni to‘g‘ri bilmaydi, bosim kuchini nazorat qila olmaydi, qaychi bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch keladi. ZPR bolalarda og‘ir harakat buzilishlari yo‘q, ammo jismoniy va motorik rivojlanish darajasi normal rivojlanayotgan tengdoshlarnikidan pastroq va grafomotor ko‘nikmalarni shakllantirish qiyinroq.

2. Yuqorida ta’riflangan bolalar toifasi bilan korrektsion-pedagogik jarayonni tashkil etishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, ZPR bo‘lgan bolalar toifasi polimorf va tarkibi jihatdan xilma-xildir. Har bir bolaning ta’limiy ehtiyojlari va imkoniyatlarini aniqlash uchun chuqurlashtirilgan diagnostik ishlar zarur. Ushbu bolalar toifasini o‘qitish va tarbiyalash faqat chuqurlashtirilgan psixologik-pedagogik tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa samarali bo‘ladi.

3. Meningcha, diagnostik ishlari mamlakatimizning maxsus psixologiyasi va tuzatish pedagogikasi tomonidan tan olingan asosiy psixologo-diagnostik tamoyillarga tayangan holda olib borilishi kerak va L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya, V.I. Lubovskiy, A.N. Leontyev, D.B. Elkonin asarlarida ochilgan. Tekshiruv jarayonida bolalarni, jumladan rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganishga mo‘ljallangan sinovdan o‘tgan usullar va diagnostik metodikalardan foydalanish zarur. Bu, masalan, L.A. Venger, S.D. Zabramnaya, I.Yu. Levchenko, E.A. Strebeleva, U.V. Ulyenkova, O.N. Usanova, L.S. Tsvetkova va boshqa mutaxassislar orasida keng tan olingan metodikalar va diagnostik to‘plamlar hisoblanadi. [4].

Uzoq muddatli tadqiqotlar: Har xil rivojlantirish texnologiyalarining RRSning umumiy va mayda motorikasi rivojlanishiga uzoq muddatli ta’sirini baholash.

Texnologik innovatsiyalar: Maxsus ishlab chiqilgan raqamli o‘yinlar va interaktiv vositalarning motorika rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy asoslash.

Madaniy moslashuv: Turli madaniy va ijtimoiy muhitlarda RRS uchun motorikani rivojlantirish texnologiyalarini moslashtirish va ularning samaradorligini tadqiq qilish.

Neyrofiziologik asoslar: Motorik rivojlanish texnologiyalarining RRS miya faoliyatiga ta’sirini neyrofiziologik usullar yordamida o‘‘rganish.

Ushbu choralar va tadqiqotlar RRS bolalarning to'liq rivojlanishiga va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] Gallahue, David L., Ozmun, John C., and Goodway, Jacqueline D. Motor Rivojlanishni Tushunish: Chaqaloqlar, Bolalar, O'smirlar, Kattalar. New York: McGraw-Hill Education, 2017.

[2] Case-Smith, Jane, and O'Brien, Jane Clifford. Bolalar va O'smirlar uchun Kasbiy Terapiya. St. Louis, MO: Elsevier Mosby, 2015.

[3] 1. Ахутина Т.В. Л.С. Выготский и А.Р. Лурия: становление нейропсихологии. // Вопросы психологии, 1996 - № 5

2. Блинова Л. Н. Диагностика и коррекция в образовании детей с задержкой психического развития: учебное пособие для вузов. - М.: НЦ ЭНАС, 2004.

[4] Бабаева Т.И., Михайлова З.А. и др. Детство: программа развития и воспитания детей в детском саду: издание 3 – е переработанное. – СПб.: Детство – Пресс , 2004.

[5] Piek, Jan P. (Muharrir.). Rivojlanish nuqsoni bo'lgan bolalarda motor nazorati va o'rganish. London: Routledge, 2006.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA INTEGRATIV YONDASHUV ORQALI IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Buxoro davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti **Boymuradova Tursuntosh Ilhom qizi**
Elektron manzil: Ilhomovna@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich ta’lim tasviriy san’at darslarida integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasining nazariy-pedagogik va didaktik asoslari tahlil qilinadi. Integrativ yondashuvning fanlararo aloqadorlikni ta’minlash, badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish hamda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, mazkur metodikaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish jarayonlari, tasavvur doirasi va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi nazariy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, tasviriy san’at darslari, integrativ yondashuv, ijodiy tafakkur, fanlararo integratsiya, badiiy-estetik tarbiya, ijodiy kompetensiya, pedagogik metodika.*

Abstract: *This scientific article analyzes the theoretical, pedagogical, and didactic foundations of a methodology for developing creative thinking in primary education visual arts lessons through an integrative approach. The role of the integrative approach in ensuring interdisciplinary connections, fostering artistic and aesthetic thinking, and activating students’ independent and creative activities is scientifically substantiated. Furthermore, the effectiveness of this methodology in developing cognitive processes, imagination, and creative competencies of primary school students is theoretically explained.*

Keywords: *primary education, visual arts lessons, integrative approach, creative thinking, interdisciplinary integration, artistic and aesthetic education, creative competence, pedagogical methodology.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируются теоретические, педагогические и дидактические основы методики развития творческого мышления учащихся начального образования на уроках изобразительного искусства на основе интегративного подхода. Научно обосновывается роль интегративного подхода в обеспечении междисциплинарных связей, формировании художественно-эстетического мышления и активизации самостоятельной и творческой деятельности учащихся. Также теоретически раскрывается эффективность данной методики в развитии*

познавательных процессов, воображения и творческих компетенций младших школьников.

Ключевые слова: *начальное образование, уроки изобразительного искусства, интегративный подход, творческое мышление, междисциплинарная интеграция, художественно-эстетическое воспитание, творческая компетентность, педагогическая методика.*

Hozirgi globallashuv va ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar sharoitida boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan boshlang‘ich ta’lim davrida bolaning dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi, estetik didi va ijodiy qobiliyatlari shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish usullari o‘quvchilarning faolligi va ijodiy fikrlashini yetarli darajada ta’minlamaydi, bu esa ta’lim jarayoniga yangi yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi.

Tasviriy san’at darslari o‘quvchilarning tasavvuri, badiiy tafakkuri va emotsional-intellektual rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Mazkur fan orqali o‘quvchilar atrof-muhitni estetik idrok etish, obrazli fikrlash va o‘z g‘oyalarini erkin ifodalash ko‘nikmalarini egallaydi. Shu bois tasviriy san’at darslarini boshqa fanlar bilan integratsiyalash asosida tashkil etish o‘quvchilarning bilimlarni yaxlit holda o‘zlashtirishiga, fanlararo bog‘liqlikni anglashiga hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta’minlash, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish va o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini faollashtirishga yo‘naltirilgan samarali pedagogik texnologiya sifatida e’tirof etilmoqda. Amaldagi davlat ta’lim standartlari va zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda ham kompetensiyaviy yondashuv asosida ijodkor, tashabbuskor va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’lim tasviriy san’at darslarida integrativ yondashuv orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Boshlang‘ich ta’limda ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalasi O‘zbekiston pedagogika fanida, xususan, so‘nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy o‘zbek olimlari tomonidan ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni qo‘llash, fanlararo aloqadorlik asosida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalalari pedagogik va metodik jihatdan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda boshlang‘ich ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida boyitish, ta’lim samaradorligini oshirish hamda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.



Xususan, U. Ismoilov, B. Karimov, A. Boltayev tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda boshlang‘ich ta’lim metodikasi, tasviriy san’atni o‘qitishning nazariy va amaliy asoslari, badiiy-estetik tarbiyaning pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda tasviriy san’at darslarining o‘quvchilarda estetik did, obrazli tafakkur va ijodiy faollikni shakllantirishdagi o‘rni asoslab berilgan bo‘lib, integratsiyalashgan ta’lim elementlarining samaradorligi pedagogik tajribalar orqali yoritilgan. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda integrativ yondashuvning ijodiy tafakkurni rivojlantirishga ta’siri ko‘proq umumiy didaktik nuqtai nazardan o‘rganilganligi kuzatiladi.

Buxoro rassomlari va san’atshunos olimlarining ilmiy-ijodiy qarashlarida milliy tasviriy san’at an’analari, rangtasvir va kompozitsiya asoslari, badiiy tafakkur va ijodiy ifodaning psixologik jihatlari keng yoritilgan. Ularning ilmiy va amaliy tajribasi tasviriy san’at darslarini mazmunan boyitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish hamda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim metodik manba bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ushbu ilmiy qarashlar boshlang‘ich ta’lim tizimida integrativ yondashuv asosida qo‘llash metodikasi bilan yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Shu bois, zamonaviy o‘zbek pedagogikasi va Buxoro rassomlarining ilmiy-amaliy merosini integrativ yondashuv nuqtai nazaridan qayta tahlil qilish, ularni boshlang‘ich ta’lim tasviriy san’at darslariga moslashtirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu bo‘shliqni to‘ldirish, ya’ni integrativ yondashuv orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslarini ilmiy muhokama qilish va pedagogik jihatdan asoslab berish maqsad qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi yangi Qonuni. // www. Ziyonet.uz. 2020 yil, 24 sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

3. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Qodirova F.R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. — Toshkent: Tafakkur, 2018.
6. Abdurahmonov A. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

ПОНЯТИЯ «КОМПЕТЕНЦИЯ» И СУТЬ ПОНЯТИЯ «СТРАТЕГИЯ» В ДОПРИЗЫВНОМ ВОЕННОМ ОБУЧЕНИИ

Рахматуллаев Умид Карабаевич
преподаватель цикла специальной подготовки Факультета военного обучения НПУУ имени Низами.

В настоящее время тема компетентностного подхода в системе высшего образования стала принципиально важной и активно обсуждаемой. Целый ряд факторов обуславливают актуализацию компетентностного подхода в образовании: проблемы окружающей среды в связи с переходом к постиндустриальному обществу; динамизм жизненных процессов; колоссальное увеличение информационных потоков; активнее задействованы рыночные механизмы в обществе; возросла профессиональная мобильность; появились новые профессии, изменились требования к ним – они стали более интегрированными, менее специальными.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamiyat hayotida yuzaga keladigan tanazzul (ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy inqiroz) jarayonlarining ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinadi. Tanazzulning aholi turmush darajasi, ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri yoritib beriladi. Shuningdek, tanazzul sharoitida ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, migratsiya va ijtimoiy beqarorlikning kuchayishi kabi muammolar ilmiy adabiyotlar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada tanazzulning ijtimoiy oqibatlarini aniqlash va baholash uchun qo'llanilgan metodlar ham asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Tanazzul, ijtimoiy oqibatlar, ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, migratsiya, ijtimoiy beqarorlik, jamiyat rivoji.*

SOCIAL CONSEQUENCES OF THE DECLINE

Abstract. *This article analyzes the social consequences of the processes of decline (social, economic and spiritual crisis) occurring in society. The impact of decline on the standard of living of the population, social relations, value system and social stability is highlighted. Also, problems such as social inequality, unemployment, migration and increased social instability in conditions of decline are considered on the basis of scientific literature. The article also substantiates the methods used to identify and assess the social consequences of decline.*

Keywords*: Recession, social consequences, social inequality, unemployment, migration, social instability, social development.*

СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ УПАДА

Аннотация. *В данной статье анализируются социальные последствия процессов упадка (социального, экономического и духовного кризиса), происходящих в обществе. Подчеркивается влияние упадка на уровень жизни населения, социальные отношения, систему ценностей и социальную стабильность. Также на основе научной литературы рассматриваются такие проблемы, как социальное неравенство, безработица, миграция и усиление социальной нестабильности в условиях упадка. В статье также обосновываются методы, используемые для выявления и оценки социальных последствий упадка.*

Ключевые слова: *рецессия, социальные последствия, социальное неравенство, безработица, миграция, социальная нестабильность, социальное развитие.*

KIRISH

Jamiyat taraqqiyoti uzluksiz va barqaror jarayon bo‘lib, u turli ichki va tashqi omillar ta’sirida rivojlanadi yoki tanazzul holatiga yuz tutadi. Tanazzul ijtimoiy hayotda iqtisodiy pasayish, siyosiy beqarorlik, ma’naviy qadriyatlarning yemirilishi va ijtimoiy institutlar faoliyatining izdan chiqishi bilan namoyon bo‘ladigan murakkab jarayondir. Bunday holatlar jamiyatning barqaror rivojiga jiddiy tahdid solib, ijtimoiy munosabatlar tizimida salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.[28]

Tanazzul jarayonlari natijasida aholi turmush darajasi pasayadi, ijtimoiy tengsizlik kuchayadi, ishsizlik va kambag‘allik kabi muammolar chuqurlashadi. Bu esa jamiyat a’zolari o‘rtasida norozilik kayfiyatining ortishiga, ijtimoiy ishonchning susayishiga va turli ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, yoshlar, kam ta’minlangan qatlamlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar tanazzul oqibatlarini keskinroq his etadilar.[29]

Globallashuv sharoitida tanazzulning ijtimoiy oqibatlari faqat alohida bir mamlakat doirasida emas, balki mintaqaviy va global miqyosda ham namoyon bo‘lmoqda. Iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar, ekologik muammolar va siyosiy beqarorlik jamiyatlarning o‘zaro bog‘liqligini yanada kuchaytirib, tanazzul oqibatlarining tez tarqalishiga olib kelmoqda. Shu bois tanazzulning ijtimoiy oqibatlarini chuqur va tizimli o‘rganish, ularning sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi tanazzul tushunchasining ijtimoiy mazmunini ochib berish, uning jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan asosiy oqibatlarini tahlil qilish hamda mavjud ilmiy yondashuvlar asosida ushbu jarayonning ijtimoiy barqarorlikka ta’sirini baholashdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Tanazzul va uning ijtimoiy oqibatlari masalasi ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik hamda ijtimoiy falsafa doirasida keng tadqiq etilgan.[30] Ilmiy adabiyotlarda tanazzul jamiyat rivojining muayyan bosqichlarida yuzaga keladigan tizimli muammo sifatida talqin qilinadi va u ijtimoiy tuzilma hamda munosabatlarga chuqur ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi.

Klassik sotsiologik nazariyalarda tanazzul jamiyatdagi ijtimoiy tizimlar izdan chiqishi bilan izohlanadi. Masalan, E. Dyurkgeym ijtimoiy inqirozlarni anomiya tushunchasi orqali izohlab, me’yorlar va qadriyatlar zaiflashuvi jamiyatda beqarorlik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishini ta’kidlaydi. K. Marks esa tanazzulni iqtisodiy munosabatlar va ishlab chiqarish tizimidagi ziddiyatlar bilan bog‘lab, bunday jarayonlar

[28] Dyurkgeym E. **Jamiyat va ijtimoiy me’yorlar**. – Toshkent: Fan, 2004.
[29] Marks K., Engels F. **Ijtimoiy-iqtisodiy ta’limotlar asoslari**. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
[30] Abdurahmonov Q.X. Ijtimoiy siyosat va aholi farovonligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.

ijtimoiy tengsizlik va sinfiy qarama-qarshiliklarni kuchaytirishini qayd etgan. M. Veber asarlarida esa tanazzul ijtimoiy boshqaruv, byurokratik tizim va ratsionallik inqirozi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi.[31]

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda tanazzul ko‘proq global va mintaqaviy jarayonlar bilan uyg‘un holda o‘rganilmoqda. Iqtisodiy inqirozlar, moliyaviy beqarorlik, texnologik o‘zgarishlar va global tengsizlik masalalari tanazzulning asosiy omillari sifatida ko‘rsatiladi. Ko‘plab tadqiqotchilar tanazzul sharoitida ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi tafovut kuchayishini, kambag‘allik va ishsizlik darajasining oshishini empirik ma’lumotlar asosida isbotlab berganlar. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarining faollashuvi, oilaviy munosabatlarning zaiflashuvi va ijtimoiy institutlarga bo‘lgan ishonchning pasayishi tanazzulning muhim ijtimoiy oqibatlari sifatida qayd etiladi.[32]

Mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlarda tanazzulning ijtimoiy oqibatlari jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ayrim olimlar tanazzul sharoitida ijtimoiy birdamlikning susayishi va norozilik kayfiyatining ortishini asosiy muammo sifatida ko‘rsatadilar. Boshqa tadqiqotlarda esa ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida yuzaga keladigan muammolar tanazzulning bevosita ijtimoiy natijalari sifatida baholanadi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda tanazzul faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki jamiyatni yangilanishga undovchi omil sifatida ham talqin qilinadi. Ayrim nazariyalarga ko‘ra, tanazzul mavjud tizimdagi kamchiliklarni ochib berib, ijtimoiy islohotlar va modernizatsiya jarayonlariga turtki bo‘lishi mumkin. Biroq aksariyat tadqiqotchilar tanazzulning ijtimoiy oqibatlari chuqur va uzoq muddatli bo‘lishini, ularni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarurligini ta’kidlaydilar.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tanazzulning ijtimoiy oqibatlari ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, ularni o‘rganishda nazariy va empirik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola aynan shu ilmiy yondashuvlarga tayanib, tanazzulning jamiyat hayotiga ta’sirini tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan.[33]

Metod va materiallar. Mazkur tadqiqotda tanazzulning ijtimoiy oqibatlarini chuqur va har tomonlama o‘rganish maqsadida umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tanazzul jarayonlarini jamiyat taraqqiyotiga ta’sir etuvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilishga asoslandi.

Asosiy metodlardan biri **tahlil va sintez** metodi bo‘lib, u tanazzul bilan bog‘liq ijtimoiy hodisalarni alohida elementlarga ajratgan holda o‘rganish va ularni yagona tizim sifatida umumlashtirish imkonini berdi. Ushbu metod orqali ijtimoiy tengsizlik,

[31] Veber M. **Ijtimoiy harakat va jamiyat nazariyasi**. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
[32] Xolbekov A.R. Sotsiologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Universitet, 2016.
[33] Smelser N. **Ijtimoiy o‘zgarishlar va inqirozlar sotsiologiyasi**. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010.

ishsizlik, kambag‘allik, migratsiya va ijtimoiy beqarorlik kabi omillar tanazzulning asosiy oqibatlari sifatida ko‘rib chiqildi.[34]

Shuningdek, **taqqoslash metodi** yordamida turli mamlakatlar va hududlarda yuzaga kelgan tanazzul jarayonlari hamda ularning ijtimoiy oqibatlari qiyosiy tahlil qilindi. Bu metod tanazzulning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, ijtimoiy oqibatlarning qaysi sharoitlarda kuchliroq namoyon bo‘lishini belgilashga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida **mantiqiy umumlashtirish va induktiv-deduktiv yondashuvlar** ham qo‘llanildi. Induksiya asosida alohida empirik holatlar va ilmiy xulosalar umumiy nazariy qarashlar bilan bog‘landi, deduksiya orqali esa mavjud nazariyalar asosida tanazzulning ijtimoiy oqibatlari izohlandi.

Materiallar sifatida mahalliy va xorijiy olimlarning sotsiologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishdagi ilmiy asarlari, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, rasmiy hisobotlar va ochiq statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Ushbu manbalar tanazzulning ijtimoiy oqibatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga imkon berdi.

Bundan tashqari, **ikkinchi darajali ma’lumotlar tahlili** (secondary data analysis) usuli qo‘llanilib, mavjud tadqiqotlar natijalari qayta ko‘rib chiqildi va umumlashtirildi. Bu yondashuv tanazzul jarayonlarining uzoq muddatli ijtimoiy ta’sirini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.[35]

Natijada qo‘llanilgan metodlar va foydalanilgan materiallar tanazzulning ijtimoiy oqibatlarini tizimli, mantiqiy va ilmiy asosda yoritishga xizmat qildi hamda tadqiqot xulosalarining ishonchliligini ta’minladi.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanazzul jamiyat hayotida yuzaga keladigan murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u ijtimoiy tuzilma, ijtimoiy munosabatlar hamda aholi turmush darajasiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Tanazzul sharoitida iqtisodiy beqarorlik kuchayib, bu holat ishsizlik, kambag‘allik va ijtimoiy tengsizlikning ortishiga olib keladi. Natijada jamiyat a’zolari o‘rtasida ijtimoiy adolatga bo‘lgan ishonch susayadi va ijtimoiy ziddiyatlar kuchayadi.

Tadqiqot natijalari tanazzulning ijtimoiy oqibatlari faqat moddiy soha bilan cheklanib qolmasligini, balki ma’naviy-axloqiy muhit, ijtimoiy qadriyatlar va institutlar faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, oilaviy munosabatlarning zaiflashuvi, yoshlar orasida ijtimoiy befarqlik va migratsiya kayfiyatining kuchayishi tanazzulning muhim ijtimoiy natijalari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holatlar jamiyatda ijtimoiy birdamlikning susayishiga va barqarorlikka tahdid tug‘diradi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar va tahlillar tanazzulni faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotida muayyan burilish nuqtasi sifatida ham baholash mumkinligini ko‘rsatadi. Tanazzul mavjud muammolarni yuzaga chiqarib, ijtimoiy siyosatni takomillashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish va samarali boshqaruv

[34] Sorokin P. **Jamiyat, madaniyat va tanazzul**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
[35] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. **Ijtimoiy barqarorlik va rivojlanish masalalari**. – Toshkent, 2020.

mexanizmlarini joriy etish zaruratini kuchaytiradi. Biroq bunday ijobiy imkoniyatlardan foydalanish tanazzulning ijtimoiy oqibatlarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, tanazzulning ijtimoiy oqibatlarini ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, aholini ijtimoiy himoyalash tizimini kuchaytirish, bandlikni ta’minlash va ijtimoiy ishonchni mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuvlar tanazzul oqibatlarini yumshatishning asosiy yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada ilgari surilgan xulosalar kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ijtimoiy siyosat uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Dyurkgeym E. **Jamiyat va ijtimoiy me’yorlar**. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Marks K., Engels F. **Ijtimoiy-iqtisodiy ta’limotlar asoslari**. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
3. Veber M. **Ijtimoiy harakat va jamiyat nazariyasi**. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
4. Giddens E. **Sotsiologiya**. – Toshkent: Sharq, 2011.
5. Sorokin P. **Jamiyat, madaniyat va tanazzul**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
6. Smelser N. **Ijtimoiy o‘zgarishlar va inqirozlar sotsiologiyasi**. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010.
7. Bek U. **Xavf jamiyati va zamonaviy inqirozlar**. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. **Ijtimoiy barqarorlik va rivojlanish masalalari**. – Toshkent, 2020.
9. Abdurahmonov Q.X. **Ijtimoiy siyosat va aholi farovonligi**. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
10. Xolbekov A.R. **Sotsiologiya: nazariya va amaliyot**. – Toshkent: Universitet, 2016.

QIZAMIQ VIRUSI,UNING KELIB CHIQISHI VA U BILAN BOGLIQ KASALLIKLAR

Rashidov Abdulbosit Yahyo o`g`li
Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali 1-bosqich davolash ishi yonalishi talabasi Abdulbosit.rashidov2@gmail.com
+998996590777

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qizamiq virusi (Measles morbillivirus) ning tuzulishi kelib chiqish sabablari kechish jarayoni(Patogenezi) ni ko'rib tahlil qilnadi. Ularni epidemiologik holati yani tarqalishi, yuqumlilik darajasi hamda bolalar orasida keng tarqalishini yoritiladi. Shuningdek, kasallikning Fenotipik, Klinik belgilari – kasallikdan oldingi belgi va simptomlari va kasallikdan keyingi kechadigan ehtimoliy asoratlar tasvirlanadi. Shuningdek bu bilan bog'liq holda rivojlanuvchi kasalliklar, shu jumladan, bugungi kunda bolalarda yuzaga kelayotgan o`tkir skelerozlashgan Paneencephalit kasalligi to'g'risidagi ma'lumotlar berib o`tiladi.*

Kalit so'zlar*: Tibbiyot, qizamiq, istma, toshmalar, inkubatsion davr, miyya, shilliq qavat.*

Abstract: *This article reviews the pathogenesis of the measles virus (Measles morbillivirus). Its epidemiological status, i.e., its prevalence, infectiousness, and prevalence among children are discussed. It also describes the phenotypic and clinical features of the disease, including signs and symptoms before the disease, and possible complications after the disease. It also provides information on related diseases, including Acute Sclerotic Panencephalitis, which is currently occurring in children.*

Keywords*: Medicine, measles, fever, rash, incubation period, brain, mucous membrane*

Аннотация: *В данной статье рассматривается патогенез вируса кори (Measles morbillivirus). Обсуждается его эпидемиологический статус, а именно распространённость, инфекционность и заболеваемость среди детей. Описываются фенотипические и клинические особенности заболевания, включая симптомы до начала заболевания и возможные осложнения после него. Приводится информация о сопутствующих заболеваниях, в том числе об остром склеротическом панэнцефалите, который в настоящее время встречается у детей.*

Ключевые слова: *Лекарство, корь, лихорадка, сыпь, инкубационный период, мозг, слизистая оболочка*

Qizamiq - O`tkir yuqumli kasallik bo’lib, u insonda tana haroratining ko’tarilishi, nafas yo’llari va ko’z shilliq pardasi yallig’lanishi, qizarishi va yirik dog’li toshmalar bilan kechadi.

Qizamiq - yer yuzida eng keng tarqalgan infeksiyalardan hisoblanib, barcha yoshdagi kishilar, asosan yosh bolalar ko’pincha moyil bo‘ladi.

Shuningdek, tez yuqadigan (kontagioz) bo’lishi bilan ajralib turuvchi o’tkir virusli kasallikdir, yuqori nafas yo’llari shilliq pardalari va ko’z konyuktivasida kataral yallig`lanish boshlanishi, badan terisiga dog’simon papulyoz toshma toshishi bilan ta’riflanadi. Kasallik mavsumiy bo‘lib, kuz, qish va bahor oylarida ko‘proq uchraydi. Infeksiya manbai faqat kasallangan odam hisoblanadi, sog‘lom kishi organizmiga virus nafas yo‘llari orqali tushadi. Kasallikdan keyin umr bo‘yi saqlanadigan immunitet qoladi. Chaqaloqlar (passiv immunitet tufayli) qizamiq bilan og‘rimaydi. Organizmga yuqori nafas yo‘llari shilliq pardalari, ko‘z konyunktivasi va boshqalar orqali kirgan qizamiq virusi u yerda ko‘payib, keyin qonga tushadi.

- Inkubatsiya davri (7–14 kun)
- Prodromal davr (katarral davr) — 2–4 kun
- Toshma davri (ekzantema bosqichi) — 3–5 kun
- Rekonvalessensiya davri (tiklanish)

Kasallik bosqichma-bosqich kechadi, inkubatsion (yashirin) davri 9–11 kun; undan so‘ng prodromal (boshlang‘ich, kataral) davr 3–4 kun davom etadi. Kasallik boshlanishida tana harorati 39 °C gacha ko‘tariladi, yuqori nafas yo‘llari va ko‘z konyunktivasi qizaradi, bemor quruq yo‘taladi, tumov bo‘ladi, ko‘zi qizarib yoshlanadi, yorug‘likka qaray olmaydi, tovushi bo‘g‘ilib qoladi, yuzi kerikadi. Bola bezovta bo‘ladi, uyqusi buziladi, ishtahasi yo‘qoladi, holsizlanadi, ba’zan ich ketishi, qorinda og‘riq, og‘irroq hollarda umumiy intoksikatsiya, talvasalar, eshushni yo‘qotish alomatlari ro‘y berishi mumkin. Prodromal davrning 2–3 kuni lunj shilliq qavatida qizil gardish bilan o‘ralgan mayda, nuqtasimon, oq dog‘lar paydo bo‘ladi, bu qizamiqqa xos belgi (Belskiy-Filatov-Ko’plik dog‘lari). Ular toshma toshishidan 2–3 kun oldin ko‘rinib, toshma toshganidan 1–2 kun o‘tgach yo‘qoladi. Yumshoq va qattiq tanglayning shilliq pardasida mayda qizil dog‘lar – enantema paydo bo‘ladi. Toshma toshish davrida (bu davr 3–4 kun davom etadi) bemor qattiq isitmalaydi, tomog‘i qizaradi, keyin o‘ziga xos qizil, yirik toshmalar toshadi; u dastlab quloq orqasi, lunj, peshona va burunga toshadi, keyin yuz, badanga, qo‘l-oyoqqa tarqaladi. Toshmalarning bosqichma-bosqich toshishi qizamiqda muhim diagnostik ahamiyatga ega. Yuzdagi toshmalar qoraya boshlaydi va jigarrang dog‘larga aylanadi, ular 7—10 kun saqlanadi. Teri, ayniqsa, yuz, qo‘l kafti va oyoq tagi quruqshay boshlaydi; toshma o‘rni qovjirab, mayda po‘st tashlashi mumkin, gavda temperaturasi pasayib, bola asta-sekin tetiklanadi. Kasallik bilinar-bilinmas yengil kechishi zotiljam, ichki kasalliklar, o‘rta quloqning yallig‘lanishi (otit) va boshqalar asoratlar yuzaga kelishi ham mumkin, bunda darhol vrachga murojaat qilish kerak.

Qizamiqda shu kasallikka aloqador proliferativ pan bronxit boshlanib, ikkilamchi infeksiya qoshilgan mahallarda bronxlar devorida keyinchalik nekrozlar paydo bolishi mumkin. Peribronxial o`pka to`qimasi ham jarayonga qoshilib ketgan mahalda “Qizamiqqa xos o`pka” manzarasi yuzaga keladi, bunda miliar sil do’mboqchalariga o’xshab ketadigan sarg’ish kulrang tugunchalar topiladi. Ularning o`rtasida bronx yo’li ko’rinib turadi. Qizamiq munosabati bilan ensefalit va seroz meningit ham boshlanishi mumkin. Quyida keltirib o’tiladigan o’tkir skelerozlashgan panencephalit ham shular jumlasidandir.

Ensefalitlar - bosh miyyaning turli sabablarga aloqador bolgan yalliglanish kasalligidir.

Viruslar, bakteriyalar, zamburuglar, shuningdek, sodda jonivorlar, gijjalar, rikketsiyalar ensefalit qo’zg’atuvchi bo’lishi mumkin.

O‘tkir osti sklerozlashgan panensefalit (SSPE) — Dawson kasalligi deb ham ataladigan bu kasallik qizamiq virusi bilan kasallanish natijasida kelib chiqadigan progressiv miya yallig'lanishining noyob shakli hisoblanadi. Kasallik ko‘proq bolalar, o‘smirlar va yoshlarga kuzatiladi. Taxminlarga ko‘ra, qizamiq bilan kasallangan har 10 000 kishidan 2 nafarida oxir-oqibat SSPE kuzatilish ehtimoli yuqori. Biroq, 2016-yilgi tadqiqotga ko‘ra, 15 oygacha bo‘lgan emlanmagan chaqaloqlarda bu ko‘rsatkich nisbatan yuqori ya’ni 609 ta chaqaloqda SSSPE kuzatilgan. Bugungi kunga qadar SSPE ning hech qanday davosi mavjud emas va bu holat kasallik deyarli har doim o‘limga bilan yakunlanadi. SSPE ni qizamiq virusi sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘tkir tarqalgan ensefalomiyelit bilan adashtirmaslik kerak, sababi ensefalomiyelitning davomiyligi boshqacha. SSPE vujudga kelishiga vaksina shtammlari emas, balki yovvoyi turdagi virus sababchi bo‘ladi

Simptomlari

SSPEning paydo bo‘lish ehtimoli qizamiq infeksiyasi tarixi bilan boshlanishi mumkin, keyin o‘rtacha 7 yil davom etadigan asimptomatik davr boshlanadi, lekin bu davr 1 oydan 27 yilgacha davom etishi mumkin. Asimptomatik davrdan so‘ng, xulq-atvorning o‘zgarishi, intellektual muammolar, miyoklonik buzilishlar, ko‘rlik, ataksiya va oxir-oqibat o‘lim bilan yakunlanadigan progressiv nevrologik buzilish sodir bo‘ladi.

Rivojlanish bosqichlari

Kasallik simptomlari quyidagi 4 ta bosqichda kuzatiladi:

1-bosqich: shaxsiyat o‘zgarishi, kayfiyat o‘zgarishi yoki tushkunlik bo‘lishi mumkin. Isitma, bosh og'rig'i va xotira yo‘qolishi ham bo‘lishi mumkin. Ushbu bosqich 6 oygacha davom etishi mumkin.

2-bosqich: Bu bosqichda titrash, mushaklarning spazmlari, tutqanoqlar, ko‘rishning yo‘qolishi va demensiya kuzatiishi mumkin.

3-bosqich: Doimiy harakatlarda buzilishlar kuzatiladi. Ushbu bosqichda asoratlar ko‘rlik yoki o‘limga olib kelishi mumkin.

4-bosqich: falajdan oldingi yoki doimiy vegetativ holatga progressiv ongni yo‘qotish oxirgi bosqichda sodir bo‘ladi, bu davrda nafas olish, yurak urishi va qon bosimilarida o‘zgarishlar kuzatiladi. O'lim odatda isitma, yurak yetishmovchiligi yoki miyaning avtonom nerv tizimini nazorat qila olmasligi natijasida yuzaga keladi.

Patogenezi

Ko‘p miqdordagi nukleokapsidlar neyronlar va glial hujayralarda ishlab chiqariladi. Bu hujayralarda immunitet reaksiyasini qo‘zgatuvchi virus genlari aktiv faoliyati susayadi. Natijada, M oqsili kabi elementlar ishlab chiqarilmaydi va virus immunitet reaktsiyasini qo‘zg‘atmasdan doimiy ravishda inson tanasida yashash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Oxir-oqibat infektsiya SSPEga olib keladi.

Diagnoz

Merck qo‘llanmasiga ko‘ra SSPE demensiya va nerv-mushak tizimida tutqanoq kuzatilish xususiyati bilan kasallangan kichik yoshli bemorlarda uchrashi gumon qilinadi. EEG, KT yoki MRT, CSF tekshiruvi va qizamiqning serologik tekshiruvi o‘tkaziladi. EEG tekshiruvi davomida sinxron ravishda yuzaga keladigan yuqori kuchlanishli difazik to‘lqinlar bilan davriy komplekslarni ko‘rsatadi. KT yoki MRT kortikal atrofiya yoki oq moddaning shikastlanishi odatda normal bosimni, hujayralar miqdorini va umumiy protein miqdorini ko‘rsatishi mumkin. Ammo CSFda globulin deyarli har doim yuqori bo‘ladi. Qon zardobi va globulin kasallik rivojlanishi bilan mavjud Virusga qarshi IgG ko‘payishiga olib keladi, agar test natijalari aniq bo‘lmasa, miya biopsiyasi kerak bo‘lishi mumkin.

Davolash

Kasallikning hech qanday davosi yo‘q. Agar tashxis 1-bosqichda qo‘yilgan bo‘lsa, kasallikni og‘iz orqali izoprinozin va intraventrikulyar interferon alfa bilan davolash mumkin, ammo bu dorilarga javob rekasiyasi bemorlarda turlicha va shu kunga qadar yagona qabul qilingan davolash usuli hisoblanadi. 2-bosqich boshlanganidan keyin kasallik har doim o‘lim bilan yakunlanadi[1. B. 58.].

Prognoz

Kasallikning klassik ko‘rinishida o‘lim 1-3 yil ichida sodir bo‘ladi, ammo bu holat kasallikning kechishiga qarab tezroq yoki sekinroq rivojlanishi ham mumkin. Kasallikning o‘tkir fulminant SSPE holatlarida ahvoning tezroq yomonlashuvi, tashxisdan keyin 3 oy ichida o‘limga kuzatilgan holatlar mavjud.

Epidemiologiyasi

SSPE kamdan-kam uchraydigan kasallik, ammo Osiyo va Yaqin Sharqda nisbatan yuqori kasallanish hali ham mavjud. Xususan 2024-yilda O‘zbekistonda SSPE bilan kasallangnalar soni 100 nafarga yaqinlashgan va bir nechta o‘lim kuzatilgan. Qizamiqga qarshi vaksina joriy etilganidan beri kasallanish dunyo bo‘yicha sezilarli darajada kamaygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

“Qizamiq” Patalogik Anatomiya II- qism M.S.Abdulxojayeva Toshkent “Ijod-Print” nashriyoti,2024-yil 509-bet

„Qizamiq“, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (Q-harfi). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.

“Ensefalitlar” Patalogik Anatomiya I-qism M.S.Abdulxojayeva Toshkent “Ijod-Print” nashriyoti,2024-yil 509-bet

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBtkir_osti_sklerozlashgan_panensefalit

THE IMPORTANCE OF DIGITAL BANKING SERVICES IN ATTRACTING CUSTOMERS IN MODERN CONDITIONS

UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY
Department of "Economics"
Senior Lecturer: **Baxtohunova D. N.**
Email: baxtoxunovadilnoza@gmail.com
Phone: +998(91)6079873

Abstract. *This paper examines the importance of digital banking services in attracting and retaining customers under modern economic conditions. The study focuses on the theoretical foundations of digital banking, its role in customer behavior transformation, and its contribution to the competitiveness and efficiency of commercial banks. The results show that digital banking services have become a key factor in customer-oriented banking development.*

Keywords*: digital banking, customer attraction, banking services, financial technologies, bank marketing.*

INTRODUCTION

In the era of globalization and rapid digitalization, the banking sector is undergoing significant structural changes. The widespread adoption of information and communication technologies has transformed traditional banking models and reshaped customer expectations. Modern customers demand fast, convenient, and remote access to financial services, which has increased the importance of digital banking solutions.

In highly competitive financial markets, banks must continuously improve service quality and accessibility to attract new customers and retain existing ones. Digital banking services provide an effective response to these challenges by enhancing operational efficiency and customer satisfaction. Therefore, the purpose of this paper is to analyze the role of digital banking services in attracting customers and ensuring sustainable development of commercial banks.

THE CONCEPT AND ESSENCE OF DIGITAL BANKING SERVICES

Digital banking services represent the delivery of banking products and operations through electronic channels using modern information technologies. These services include mobile and internet banking, electronic payments, digital wallets, QR-code transactions, and remote financial services.

The main essence of digital banking lies in removing time and geographical constraints for customers. Unlike traditional banking, digital services allow customers to conduct transactions anytime and anywhere. This significantly improves

convenience and reduces transaction costs. In addition, automation minimizes human errors and increases transparency and security of financial operations.

For banks, digital banking enables cost optimization, faster service delivery, and improved internal efficiency. As a result, digital transformation has become a strategic priority in modern banking systems.

THE ROLE OF DIGITAL BANKING IN ATTRACTING CUSTOMERS

Attracting customers is a central objective of commercial banks operating in competitive environments. Digital banking services play a crucial role in meeting customer needs and increasing engagement.

Mobile applications and online platforms provide customers with instant access to payments, transfers, account management, and financial information. The availability of such services increases the frequency of customer-bank interactions and strengthens long-term relationships.

Digital banking is particularly effective in attracting younger, technology-oriented customers. Ease of use, speed, and accessibility are decisive factors influencing their choice of banking services. By offering innovative digital solutions, banks can expand their customer base and enhance customer loyalty.

DIGITAL BANKING AND BANK MARKETING

Digital banking services are closely linked to modern bank marketing strategies. Digital channels such as mobile applications, online platforms, and social media enable banks to communicate directly and efficiently with customers.

Through data analysis, banks can better understand customer behavior and preferences, allowing for targeted marketing and personalized service offerings. Incentives such as cashback programs, discounts, and digital promotions encourage customers to actively use banking services.

A strong digital presence also enhances a bank’s image as an innovative and customer-oriented institution, which positively influences customer trust and brand recognition.

ECONOMIC EFFICIENCY OF DIGITAL BANKING SERVICES

The implementation of digital banking services provides significant economic benefits for commercial banks. Automation reduces operational and administrative costs, while digital platforms allow banks to serve a larger number of customers without proportional cost increases.

Increased transaction volumes and the introduction of new digital products contribute to revenue growth. Moreover, improved customer satisfaction and retention positively affect long-term financial performance. Thus, digital banking strengthens both operational efficiency and financial sustainability.

CONCLUSION

In conclusion, digital banking services play a vital role in attracting customers and improving the competitiveness of commercial banks. They enhance service convenience, efficiency, and customer satisfaction while reducing operational costs.

The ongoing development of digital technologies requires banks to adopt innovative and customer-focused strategies. By investing in digital banking services and continuously improving service quality, banks can ensure sustainable growth and long-term success in the modern digital economy.

REFERENCES:

1. Gomber, P., Koch, J. A., & Siering, M. (2017). Digital finance and FinTech: Current research and future research directions. Journal of Business Economics, 87(5), 537–580.
2. Vives, X. (2019). Digital disruption in banking. Annual Review of Financial Economics, 11, 243–272.
3. Boot, A. W. A., Hoffmann, P., Laeven, L., & Ratnovski, L. (2021). Fintech: What's old, what's new, and what to expect. Journal of Financial Stability, 53, 100836.
4. Philippon, T. (2016). The FinTech opportunity. NBER Working Paper No. 22476.
5. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2016). The evolution of FinTech: A new post-crisis paradigm. Georgetown Journal of International Law, 47(4), 1271–1319.
6. Ozili, P. K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability. Borsa Istanbul Review, 18(4), 329–340.
7. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing management (15th ed.). Pearson Education.
8. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital marketing (7th ed.). Pearson Education.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF MODERN BANK MARKETING IN BANKING ACTIVITIES.

UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY
Department of "Economics"
Senior Lecturer: **Baxtohunova D. N.**
Email: baxtoxunovadilnoza@gmail.com
Phone: +998(91)6079873

Abstract: *This thesis examines the essence, functions, and significance of modern bank marketing in the banking system from a scientific and theoretical perspective. The study analyzes the role of bank marketing in attracting customers, identifying their needs, and establishing long-term cooperative relationships. In addition, the paper highlights the development of bank marketing based on digital technologies and evaluates its effectiveness in modern banking activities.*

Keywords*: bank marketing, customer segmentation, digital marketing, banking services, competitiveness.*

INTRODUCTION

In the context of globalization and the rapid development of the digital economy, competition among banks has been intensifying. Under such conditions, bank marketing has become an integral part of banking activities, serving not only to promote banking services but also to establish long-term and sustainable relationships with customers. Bank marketing enables banks to adapt to market conditions, thoroughly analyze customer needs, and offer products and services that meet these needs.

Essence and Functions of Bank Marketing

Bank marketing represents a комплекс approach that includes the creation, pricing, promotion, and sale of banking services. Its main functions include market analysis, customer segmentation, development of banking products, improvement of service quality, and strengthening of the bank's image. An effective marketing strategy allows banks to attract new customers while retaining existing ones.

Customer Segmentation and Identification of Needs

One of the key directions of bank marketing is customer segmentation. Separate marketing strategies are developed for individuals, small and medium-sized enterprises, large companies, and corporate clients. Each segment differs in terms of financial needs, income levels, and patterns of using banking services. Therefore, banks must offer products and services based on an individualized approach.

Digital Bank Marketing

The rapid development of information and communication technologies has created new opportunities for bank marketing. Through mobile banking, internet banking, social media platforms, and online advertising tools, banks are able to establish fast and effective communication with customers. Personalized offers, bonus programs, and cashback campaigns are considered important instruments of digital bank marketing.

Economic Efficiency of Bank Marketing

Well-organized bank marketing contributes to increasing bank revenues, expanding market share, and ensuring financial stability. The development of products that meet customer needs through marketing activities leads to growth in loan portfolios and deposit volumes. As a result, the competitiveness and economic sustainability of banks are significantly strengthened.

CONCLUSION

In conclusion, bank marketing is a vital strategic direction of modern banking activities. A properly organized marketing system enables banks to adapt to changing market conditions, build strong relationships with customers, and ensure sustainable long-term development.

REFERENCES:

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education.
2. Lovelock, C., & Wirtz, J. (2016). Services Marketing: People, Technology, Strategy (8th ed.). Pearson.
3. Meidan, A. (1996). Marketing Financial Services. Macmillan Press.
4. Ennew, C., Waite, N., & Waite, R. (2013). Financial Services Marketing: A Guide to Principles and Practice. Routledge.
5. Zeithaml, V. A., Bitner, M. J., & Gremler, D. D. (2018). Services Marketing: Integrating Customer Focus Across the Firm (7th ed.). McGraw-Hill Education.
6. OECD. (2020). Digital Disruption in Banking and its Impact on Competition. OECD Publishing.
7. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2022). Annual Report. Tashkent.
8. World Bank. (2021). Banking Sector Development and Financial Stability. World Bank Publications.

NEMIS TILINI O‘RGATISHDA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Buxoro tumani Politexnikumi
Nemis tili o‘qituvchisi
Qiyomova Mohinur G‘ulomjon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida nemis tilini o‘qitish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati va ularning ta’lim samaradorligidagi o‘rni, ushbu metodlar asosida ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, o‘quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik hamda ijodiy fikrlashini yanada rivojlantirish, ularni faol tinglovchida faol ishtirokchiga aylantirish, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Interaktiv metodlar, innovatsion texnologiya, innovatsiya, ta’lim, metod, shaxs, salohiyat, kreativlik, tashabbuskor, kasbiy faoliyat, kompetentlik, faollik, mahorat.*

Bugungi kunda ta’lim sohasi shiddatli rivojlanib borayapti. Ta’limning globallashuvi jarayonida xorijiy tillarni, xususan nemis tilini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barchamizga ma’lumki, nemis tili nafaqat Yevropa davlatlarining barcha sohalarida, texnologiya, ta’lim hamda iqtisodiy sohalarida yetakchi tillardan biri hisoblanadi. Demak xulosa qilish mumkinki, nemis tilini samarali o‘qitish bugungi kunning dolzarb masalasidan biri bo‘lib qolmoqda. Xorijiy tillarni o‘rgatishda an’anaviy o‘qitish usullari o‘quvchilar uchun qiziqarsiz hamda natijadorligi past bo‘lganligi sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, yangicha yondashuvlar va innovatsion metodlardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Interaktiv metodlar nemis tilini o‘qitishda muhim vosita sifatida alohida o‘rin tutadi. Ushbu metodlar dars jarayonlarini qiziqarli tarzda tashkil etish, o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish hamda kommunikativ qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning faolligi oshadi, demak, ular beixtiyor kreativ, erkin faoliyatning markazidagi ishtirokchiga aylanadi va til o‘rganinsh samaradorligi oshadi.

Nemis tilini o‘rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish ta’limiy jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanib, faoli rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Interaktiv metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro faol hamkorlikka asoslangan ta’lim usullari sifatida qarash maqsadli. Ushbu metodlar dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini ta’minlab, ularni mustaqil fikrlashga, erkin muloqot qilishga va til materiallarini amaliy qo‘llashga undaydi.

Nemis tilini o‘rgatishda pedagoglarga tavsiya sifatida ham aytish mumkin, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan metodlarga tayangan darslar ayniqsa

samarali hisoblanadi. Masalan, juft-juft va guruhli ishlash, munozara (debat), disput metodlari, “aqliy hujum”, klaster, rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarning mustaqil nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali ta’lim oluvchilar kundalik hayotga oid har xil vaziyatlarda nemis tilida fikr bildirish, savol-javob qilish va erkim muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Dasturiy ta’lim vositalari, axborot-kommunikativ vositalar va texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan interaktiv metodlar nemis tilini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Multimedia, videoroliklar, taqdimotlar, interaktiv doskalar yordamida tashkil etilgan ta’limiy faoliyatlar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda o‘rganilayotgan ma’lumotni yanada aniq va tushunarli shuningdek, o‘zlashtirilish darajasini oshiradi. Turli xildagi audio va videolar asosida tayyorlangan ma’lumotlar yordamida to‘g‘ri talaffuzni rivojlantirish hamda lug‘at boyligini kengaytirish mumkin.

Interaktiv metodlarning yana bir muhim jihati shundaki, o‘quvchilar faol ishtirokchi sifatida mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday metodlarda o‘quvchilar ma’lumotlarni osongina o‘zlashtiradi, izlanadi, tahlil qiladi, va o‘z fikrini asoslab berishga, hamkorlik qilishga, tashabbus bildirishga o‘rganadi. Natijada ular nemis tilini faqat ta’limiy faoliyat, ya’ni, dars davomida emas, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham faol o‘rganishga intiladilar.

Interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, va qulaylashtiradi. Nemis tilini o‘qitishda innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanish bugungi kunning talabi va zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘quvchilarning faolligini oshiruvchi ushbu metodlar, ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, nazariy olingan bilimlarni amaliy jihatdan qo‘llash imkonini yaratadi. Ushbu innovatsion yondashuvlar asosida erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va nemis tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlanadi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotga tadqiqotlar, o‘rganinshlar, tajribalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar yordamida tashkil etilgan har qanday ta’limiy faoliyatlar an’anaviy faoliyatlarga nisbatan yuqori samaraga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarning tinglab tushunish, tinglab to‘g‘ri talaffuz qilish, erkin nutq kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu metodlar o‘qituvchining pedagogik kasbiy mahoratini to‘liq namoyon etish, ta’lim jarayonini innovatsion tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, nemis tilini o‘qitishda dasturiy ta’lim vositalari, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlarni o‘rinli va maqsadli qo‘llash ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va bugunning talabiga javob beradigan zamonaviy bilimga ega bo‘lgan, salohiyatli, yuqori kompetentli mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.V.Arxangelskaya. Ravnoznachnыe sinonimы nemetskogo yazыka. – Uchyonnыe zapiski/ Mosk. gos. ped. in-tut. in. yaz. im. M. Toreza, 1958, t. 16.

2. Yu. D. Apresyan. Problema sinonima. Voprosы yazыkoznaniya.

3. L.R. Zinder, T.V. Stroeva. Posobie po teoreticheskoy grammatike i leksikologii nemetskogo yazыka. M., 1962

4. Ikkinchi chet tilini o‘qitish kontseptsiyasi (ingliz tiliga asoslangan nemis tili). - Tver, sarlavha, 2001 yil.

5. E.A. Migranova, Sh.X. Poziiova Kasbiy pedagogik f'aoiiyatga kirish / O‘quv qo‘llamna. - Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018 y. - 200 bet

6. O‘.J. To‘ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. -376 bet.

7. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.

8. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.

9. G.Niyozov, M.E. Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Noshir” 2011 y. -140 bet.

10. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.

11. Raxmonova S.M. “Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity”. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023 y. P 288-293.

12. Raxmonova S.M. .“In improving the innovative professional activity of future pedagogues, problem-based learning the most effective method of teaching”. Science and technologies. 2023 y. № 3 (1). P 107-112.

13. Raxmonova S.M. “Practical features of preparing primary education students for professional activity” Science and innovation in the education system, 2 (9), 2023 y. P 67-71.

XIRURGIK AMALIYOTDA TIBBIY AXBOROT TIZIMLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Adhamjonova Madinabonu Farhodjon qizi
Ataxanov Sanjarbek Anvarovich
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: *Raqamli texnologiyalar rivoji zamonaviy tibbiyotning barcha yo‘nalishlarida, xususan xirurgik amaliyotda tub sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltirmoqda. Xirurgiya sohasida qaror qabul qilishning aniqligi, operatsion jarayonlarning xavfsizligi va samaradorligi ko‘p jihatdan tibbiy axborot tizimlarining joriy etilish darajasiga bog‘liqdir. Ushbu ilmiy maqolada tibbiy axborot tizimlarining xirurgik amaliyotdagi funksional imkoniyatlari, ularning operatsiyaga tayyorgarlik, jarrohlik jarayoni va postoperatsion kuzatuv bosqichlaridagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Elektron tibbiy kartalar, klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari, tibbiy tasvirlarni boshqarish platformalari va telemeditsina texnologiyalarining xirurgiya sifatini oshirishdagi roli ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tibbiy axborot tizimlarining kompleks joriy etilishi jarrohlik amaliyotida xatoliklarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va bemor xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Xirurgiya, tibbiy axborot tizimlari, elektron tibbiy karta, klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash, raqamli sog‘liqni saqlash, PACS, telemeditsina, jarrohlik xavfsizligi.*

KIRISH

XXI asrda sog‘liqni saqlash tizimi axborotlashtirish va raqamlashtirish jarayonisiz samarali faoliyat yurita olmaydi. Tibbiyotda ma’lumotlar hajmining keskin ortishi, diagnostika va davolash usullarining murakkablashuvi, shuningdek, bemor xavfsizligiga bo‘lgan talablarning kuchayishi tibbiy axborot tizimlarini joriy etishni dolzarb masalaga aylantirdi. Ayniqsa xirurgiya sohasi yuqori texnologiyali, ko‘p bosqichli va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, bu yerda har qanday axborot xatosi jiddiy klinik asoratlarga olib kelishi mumkin.

An’anaviy qog‘oz hujjatlar va parchalangan ma’lumotlar tizimi zamonaviy xirurgiya ehtiyojlarini qondira olmaydi. Shu sababli tibbiy axborot tizimlari jarrohlik amaliyotining ajralmas qismiga aylanib, klinik ma’lumotlarni integratsiyalash, tezkor tahlil qilish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish imkonini bermoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — xirurgik amaliyotda tibbiy axborot tizimlarining o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berishdir.

Asosiy qism

Tibbiy axborot tizimlari xirurgik amaliyotda bir nechta muhim funksional yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ularning eng asosiy komponentlaridan biri elektron tibbiy karta hisoblanadi. Elektron tibbiy karta bemor haqidagi barcha klinik ma’lumotlarni yagona raqamli platformada jamlab, jarroh uchun operatsiyaga tayyorgarlik bosqichida to‘liq va ishonchli axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Anamnez, laborator tahlillar, instrumental tekshiruvlar va oldingi davolash natijalarining tizimli ko‘rinishda mavjudligi klinik qarorlarning aniqligini oshiradi.

Operatsion jarayonlarni boshqarish tizimlari xirurgik bo‘limlar faoliyatini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizimlar operatsiyalar jadvalini avtomatlashtirish, jarrohlik brigadasi ishini muvofiqlashtirish va operatsion blok resurslarini samarali taqsimlash imkonini beradi. Natijada operatsiya vaqtining qisqarishi, ortiqcha xarajatlarning kamayishi va tashkiliy xatolarning oldi olinadi.

Xirurgiyada tasviriy diagnostikaning ahamiyati nihoyatda yuqori bo‘lib, bu borada PACS tizimlari alohida o‘rin tutadi. Tibbiy tasvirlarning raqamli arxivlanishi va real vaqt rejimida tahlil qilinishi jarrohlik rejasini aniq tuzish imkonini beradi. Uch o‘lchamli rekonstruksiya va virtual modellashtirish texnologiyalari murakkab operatsiyalarni oldindan simulyatsiya qilish orqali operatsion xavflarni kamaytiradi. Klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari esa xirurgik amaliyotda innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahliliga asoslangan ushbu tizimlar klinik protokollar va ilmiy tavsiyalarni hisobga olgan holda jarrohga optimal davolash taktikasini tanlashda yordam beradi. Bu dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarining amaliyotga joriy etilishini ta’minlaydi.

Telemeditsina texnologiyalarining rivojlanishi xirurgik amaliyot geografiyasini kengaytirdi. Masofaviy konsultatsiyalar, onlayn konsiliumlar va telexirurgiya elementlari tajribali mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalaridan keng foydalanish imkonini yaratmoqda. Bu ayniqsa chekka hududlarda murakkab jarrohlik holatlarini boshqarishda katta ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar

- **Поглаживание плеч, предплечий и кистей**;
- **Разминание дельтовидных и трапециевидных мышц**;
- **Вибрационные и постукивающие движения** — улучшают лимфоотток и уменьшают отеки.

Массаж спины эффективен при болях в позвоночнике, нарушениях осанки и стрессовых состояниях. Основные техники:

- **Поглаживание вдоль позвоночника и мышц спины**;
- **Разминание трапециевидных, широчайших и ромбовидных мышц**;
- **Вибрация и постукивание** для стимуляции глубоких мышечных слоев;

- **Массаж грудной клетки** помогает улучшить дыхание и работу легких.

Массаж живота используется для улучшения работы пищеварительной системы, стимуляции перистальтики кишечника и снятия спазмов. Основные приемы:

- **Круговые поглаживания по часовой стрелке**;
- **Легкое разминание мышц живота**;
- **Вибрация для стимуляции внутренних органов**.

Массаж нижних конечностей улучшает кровообращение, уменьшает усталость и отеки, стимулирует нервные окончания стоп. Приемы включают:

- **Поглаживание бедер, голеней и стоп**;
- **Разминание икроножных и бедренных мышц**;
- **Массаж подошвы и пальцев стопы** — улучшает тонус мышц и снижает напряжение;
- **Вибрационные движения** — способствуют улучшению лимфооттока.

Массаж является эффективным способом улучшения физического и психоэмоционального состояния организма. Каждый участок тела требует индивидуального подхода с учетом анатомических особенностей и целей массажа. Регулярное проведение массажа способствует улучшению кровообращения, снижению мышечного напряжения, нормализации работы внутренних органов и повышению общего тонуса организма.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бутенко В.И. **Массаж в медицинской практике**. – М.: Медицина, 2020.
2. Петрова Н.П. **Техника и методика массажа**. – СПб.: Питер, 2019.
3. Kellogg W. **The Art and Science of Massage Therapy**. – New York: HarperCollins, 2018.
4. Козлова А.В. **Лечебный массаж: теория и практика**. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2021.
5. Johnson M. **Therapeutic Massage Techniques**. – Elsevier, 2017.

KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA XALQARO TA’LIM DASTURLARI ORQALI KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Mustaqil izlanuvchi
Matrazov Kuranmurat Salayevich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’limda kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini oshirishning ayrim dolzarb masalalari va ularning o‘ziga xosligi tahlil qilingan. maqola yakunida muallifning shaxsiy qarash va xxulosalari ham keltirilib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, ta’lim xizmatlari, politexnik ta’lim*

KIRISH

Kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib, kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta’limning barcha darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona ko‘p tarmoqli o‘quv muassasalari tizimini joriy qilish, kasbiy ta’lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta’minlash hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlari talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytirish, kasbiy ta’lim sohasida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish, o‘rta bo‘g'in kadrlarini tayyorlash jarayonlariga manfaatdor vazirlik va idoralarni keng jalb qilish, ularning ta’lim tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirish, kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish, o‘qitish yakuni bo‘yicha beriladigan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarning xorijiy davlatlarda tan olinishini ta’minlash chuningdek kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko‘nikma va kompetentsiyalarini baholash tizimini tubdan yangilash, ushbu jarayonda ish beruvchilar vakillari faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasida belgilanganidek ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi, davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlanishini, umumiy o‘rta ta’lim majburiyligini ta’minlash maqsadida boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining 9-sinfini tamomlagan o‘quvchilar uchun — davlat granti asosida, kamida umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan boshqa talabgorlar uchun — to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi va o‘rta va o‘rta maxsus kasbiy ta’lim dasturlari bo’yicha kadrlar tayyorlash davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tashkil etildi.

Turli darajadagi kasbiy ta’lim dasturlarining o‘zaro muvofiqligi va uzviyligi ta’minlanadi hamda ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish muddatlari o‘quvchi tomonidan oldin o‘zlashtirilgan modullardan kelib chiqib belgilanadi.O‘rta maxsus kasbiy ta’lim dasturlarining bitiruvchilariga o‘zlashtirgan modullari, to‘plagan kreditlari va oliy ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o‘rtacha qiymatidan (GPA) kelib chiqib,

bakalavriatning tegishli bosqichidan o‘qishni davom ettirishga ruxsat etiladi.

Jahon miqyosida globallashuv va integratsiyalashuv jarayoni ro‘y bermoqda. Bu esa, o‘z navbatida, barcha sohalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, har tomonlama rivojlanish imkonini beradi. Shunday pallada xorijiy tillarning o‘rni yuqori ahamiyat kasb etadi. Bu chet tilni bilish, fonetik, leksik, grammatik jihatdan to‘g‘ri muloqot qilishnigina anglatib qolmay, balki xorij xalqining urf-odatlari, an’anayu marosimlari, geografiyasi, tashqi va ichki siyosati, tarixi kabilarni o‘rgatish vazifalarini ham qamrab oladi.

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o‘ta muhim ahamiyat kasb etgani bois, til o‘qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ilg‘or interfaol usullarni qo‘llash dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimiz Murojaatnomasida Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlash va chet tili ta’limini rivojlantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos yetuk mutaxassis etib tayyorlash asosiy vazifamiz ekani alohida ta’kidlandi.

Jumladan, davlatimiz rahbarining “Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarni puxta o‘zlashtirib, kompyuterda ishlashni o‘rganib chiqishi zarur” yoki “Hozirgi ochiqlik siyosati, chet el investitsiyalari va yangi korxonalarning ortib borayotgani yoshlarimizni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o‘rganishga undamoqda. Shu bois, maktablarga yuqori malakali xorijiy o‘qituvchilarni olib kelishga majbur bo‘lyapmiz”, degan so‘zlari xorijiy tillarni o‘qitishning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Shuningdek, dual ta’lim tizimi orqali o‘quvchi o‘quv muassasasida nazariy bilimlarni, ish joyidagi tashkilotda amaliy ko‘nikmalarni oladigan mashg‘ulot turi. Dual o‘qitish modeli professional va oliy o‘quv yurtlarida qo‘llaniladi va mutaxassislar bilan qiziqqan tijorat tashkilotlari va hukumat idoralari tomonidan birgalikda moliyalashtiriladi. Dual ta’lim zamonaviy professional ta’limning ta’lim standartlari asosida kompetensiyaviy yondashuvining asosiy tamoyillariga (nazariya va amaliyotning birligi, o‘quv jarayonida fanlararo kompleks yondashuv, ko‘nikma va bilimlarni kasbiy faoliyatda qo‘llashga e’tibor) to‘liq javob beradi. O‘quv jarayonini tashkil qilishdagi o‘zgarishlar (sinfdagi darslar kamayadi, ishlab chiqarish amaliyoti hajmi o‘quv dasturining 60-70 foizigacha ko‘payadi. Ishlab chiqarish amaliyoti individual yondashuvga asoslangan va real ishlab chiqarish sharoitlariga imkon qadar yaqinroq bo‘ladi. Korxona tomonidan dual moliyalashtirish choralari ko‘riladi. Ishlab chiqarishda mentorlik institutini rivojlantiriladi. Ushbu kasbiy ta’limi shakli ijtimoiy sheriklikning mahsuli sifatida paydo bo‘lib, u mehnat bozori talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasa va ish beruvchilar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik mexanizmidir. Dual ta’lim - bu professional ta’limda nazariy qism ta’lim muassasasi (o‘qish vaqtining 30- 40%) bazasida, ishlab chiqarish korxonasida, ish joyidagi mashg‘ulotning amaliy qismi (o‘quv vaqtining 60-70%) olib boriladi. Dual ta’limning asosiy konsepsiyasi o‘quv va ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish orqali kadrlar tayyorlashda amaliy yo‘nalishni kuchaytirishga asoslangan.

O‘quv dasturlarini ishlab chiqish amaldagi ta’lim standartlari talablarini inobatga olgan holda va hududiy ish beruvchilarning talablarini inobatga olgan holda tanlangan ta’lim mutaxassisliklari asosida amalga sohiriladi. Ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish uchun uslubiy, kadrlar va dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, masalan, talabalar uchun darslarni rejalashtirish va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘zbekistonda kasbiy ta’lim tizimining rivoji va xalqaro ta’lim dasturlarining ahamiyatini ta’kidlash. Xalqaro ta’lim dasturlari orqali kasbiy ta’limda kadrlar tayyorlashning zamonaviy yo‘nalishlarini tahlil qilish. Kasbiy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

Xalqaro ta’lim dasturlarining asosiy mazmunlari va ularning politexnik ta’limga mosligi. Shuningdek, dasturlarning tashkil etilishi, modullar, kredit tizimi va baholash usullari ham muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonidagi xalqaro standartlar, metodikalar va o‘qitish usullari orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Dasturni tatbiq etish jarayonida politexnikumlarda joriy etilishi, muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini izlash lozim bo‘ladi. Dasturlarning samaradorligini baholash, o‘quvchilarning bilim darajasi, ishga joylashish ko‘rsatkichlari va ish beruvchilarning fikrlari o‘rganiladi.

Xalqaro ta’lim dasturlarining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari, innovatsiyalar va yangi texnologiyalar orqali O‘zbekistonda xalqaro ta’lim dasturlarining kelajakdagi istiqbollari va ularning milliy ta’lim tizimiga integratsiyasi hamda politexnikumlarda xalqaro ta’lim dasturlarini yanada samarali joriy etish amalga oshiriladi.

XULOSA

Asosiy maqsad talabalarning kasbiy omilkorligini oshirishda xorijiy til ko‘nikmalarini shakllantirish, xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan huquqshunos kadrlar tayyorlashdir. 2020-2021-o‘quv yilidan universitet Yevropa kredit tizimi asosida faoliyat yuritar ekan, kafedra jamoasi dunyodagi yetakchi mingtalikka kirgan universitetlar bilan muntazam hamkorlik qilib, xalqaro konferensiyalar, vebinarlar o‘tkazdi, xorijiy til mutaxassislari bilan tajriba almashdi.

Yoshlarimiz yurtimizni jahonning eng ilg‘or, rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqishi, zamonaviy fan-texnika yutuqlarini mukammal o‘rganib, xalqaro darajadagi yuksak kadrlar bo‘lib yetishishi uchun xorijiy tillarni puxta bilishi muhim. Shundagina Yangi O‘zbekiston jahonning ko‘zga ko‘ringan mamlakatlari qatoridan munosib o‘rin olishiga, kelajagimizning buyuk bo‘lishiga mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:

1.https://lex.uz/
2.https://inlibrary.uz/
3.www.gazeta.uz
4.https://yuz.uz/
5.www.zangiotatumanpolitexnikumi.uz

НОВЫЕ РЕФОРМЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Эшонкулова Сайёра Тохиржоновна
преподаватель русского языка.
Техникум № 2 (Передовой техникум
профессионального мастерства) города Джизак,
Республика Узбекистан.
eshongulovasayyora005@gmail.com

Аннотация: *В статье рассматриваются новые изменения, основные направления и содержание новых реформ в сфере образования Республики Узбекистан, реализуемых в условиях модернизации общества и интеграции в мировое образовательное пространство. Особое внимание уделяется обновлению государственных образовательных стандартов, внедрению компетентностного подхода, цифровизации учебного процесса, развитию инклюзивного образования и повышению качества подготовки педагогических кадров. Анализируются меры по расширению академической самостоятельности образовательных учреждений, внедрению международных образовательных программ, а также по укреплению связи образования с наукой и рынком труда. Подчеркивается значение дуальной системы в профессиональном образовании, реформ в формировании конкурентоспособной, креативной и социально ответственной личности, способной успешно адаптироваться к требованиям современной экономики и глобальных вызовов. Создание агентств профессионального обучения, при поступлении в высшее учебное заведение, изучение предметов углубленно на конкурсной основе, необходимость языковых навыков для предпринимательства, работы с иностранными инвесторами и освоения новых технологий.*

Ключевые слова: *преобразование, новый подход, развитие инклюзивного образования, креативная личность, агентство профессионального обучения.*

Abstract: *The article examines new changes, main directions and content of new reforms in the field of education of the Republic of Uzbekistan, implemented in the context of modernization of society and integration into the global educational space. Particular attention is paid to updating state educational standards, implementing a competency-based approach, digitalizing the educational process, developing inclusive education, and improving the quality of teaching staff training. Measures to expand the academic autonomy of educational institutions, implement international educational programs, and strengthen the links between education,*

science, and the labor market are analyzed. The importance of the dual system in vocational education and reforms in the development of competitive, creative and socially responsible individuals capable of successfully adapting to the demands of the modern economy and global challenges is emphasized. The creation of vocational training agencies, the study of subjects in depth on a competitive basis for admission to higher education institutions, the need for language skills for entrepreneurship, working with foreign investors and mastering new technologies.

Key words:*transformation, new approach, development of inclusive education, creative personality, vocational training agency.*

Annotatsiya: *Maqolada jamiyatni modernizatsiyalash va jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan yangi o‘zgarishlar, yangi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va mazmuni ko‘rib chiqiladi. Davlat ta’lim standartlarini yangilash, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim muassasalarining akademik avtonomiyalarini kengaytirish, xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshirish, ta’lim, fan va mehnat bozori o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash chora-tadbirlari tahlil etilgan. Kasb-hunar ta’limidagi dual tizim hamda zamonaviy iqtisodiyot talablari va global muammolarga muvaffaqiyatli moslasha oladigan, raqobatbardosh, ijodkor va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati ta’kidlandi. Kasb-hunar ta’limi agentliklarini tashkil etish, oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishda fanlarni tanlov asosida chuqur o‘rganish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, xorijiy sarmoyadorlar bilan ishlash va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish uchun til bilimi zarur.*

Tayanch so'zlar: *transformatsiya, yangi yondashuv, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, ijodiy shaxs, kasbiy ta'lim agentligi.*

В Узбекистане ведётся активное преобразование в системе образования, включая профессиональное, и всё внимание концентрируется на переход к 12-летнему школьному обучению, модернизацию содержания (с упором на практические навыки и исследовательскую деятельность), цифровизацию и повышение качества подготовки кадров, внедряются новые образовательные стандарты, а также укрепляется государственная поддержка через программы развития и привлечение международных партнеров, как USAID, для создания конкурентоспособных специалистов. Внимание к сфере образования становится особенно актуальным во всем мире в век глобализации и информационных технологий, когда уровень развития страны определяется не только социально-экономическими, культурными показателями, оценкой силы и мощи, но опирается во многом и на ее интеллектуальный потенциал. Ведь именно научно-

технический прогресс, основы которого закладываются в образовательной среде, является центральным звеном устойчивого развития и процветания страны.

В целях формирования практических навыков, современных компетенций и профессиональной культуры у молодежи, повышения эффективности профессиональной ориентации учащихся общих средних образовательных организаций, а также полного задействования возможностей страны в области человеческого капитала путем реформирования управления системы профессионального образования 23 октября 2025 года выходит Указ президента Республики Узбекистан УП-190 : «О мерах по повышению эффективности управления в системе профессионального образования». Основной целью является является обучение профессиям, эффективное внедрение передового зарубежного опыта и подготовка соответствующих международным стандартам высококвалифицированных специалистов на основе единого подхода путем совершенствования управления в системе профессионального образования и обучения профессиям, совершенствование государственного управления в сфере профессионального образования, образование Агентства профессионального образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций, которое будет управлять сферой профессионального образования.

Постановление Президента Узбекистана № ПП-316 от 23.10.2025 года посвящено масштабным реформам в системе профессионального образования с целью доведения охвата до 50%, развития дуального образования и повышения квалификации педагогов, а также вводит празднование 5 мая Днём профессий и труда, устанавливая конкретные целевые показатели к 2030 году, включая увеличение количества техникумов с международными программами до 250. Увеличить охват 9-классников профобразованием до 50%, довести до 40% долю дуального обучения и до 250 число техникумов с международными программами. Внедряется новый порядок профориентации для молодёжи с 2026/2027 учебного года. Устанавливаются новые правила повышения квалификации и стажировок для педагогов техникумов. Начиная с 2026 года 5 мая будет ежегодно широко отмечаться как «День профессии и труда». В рамках этой даты организуются мероприятия, направленные на повышение привлекательности профессий и популяризацию профессионального образования среди общественности, особенно молодежи.

В ходе диалога Президента с представителями сектора образования накануне Дня учителя и наставника 2026 год был объявлен «Годом подготовки молодежи к современным профессиям». С этой целью создается Агентство профессионального образования. Главной задачей агентства и хокимиятов станет внедрение новой среды и международных стандартов во все 598

техникумах. В ходе беседы было отмечено, что ряд важных изменений будет также внедрен в школьное образование. Начиная с нового учебного года, для учащихся 9-х и 11-х классов будут введены единые государственные экзамены. По результатам этих экзаменов около 400 тысяч выпускников 9-го класса будут зачислены в техникумы. Молодые люди, желающие поступить в высшее учебное заведение, будут углубленно изучать предметы на конкурсной основе. В результате выпускники школ получат возможность поступить в техникум или университет, в зависимости от результатов экзаменов. Ежегодно десятки тысяч школьников получают международные сертификаты по иностранным языкам и предметам. До 2016 года такие сертификаты получили всего 2000 учеников, а в прошлом году их число достигло 150 000. Теперь такие документы признаются и на выпускных школьных экзаменах. Одновременно было отмечено, что знание языков необходимо для предпринимательства, работы с иностранными инвесторами и освоения новых технологий. Поэтому количество часов, отведенных на изучение иностранных языков в техникумах, будет увеличено в 4 раза. А в следующем году будет запущена новая цифровая платформа, и информация о профессиональных навыках выпускников техникумов будет доступна не только отечественным, но и зарубежным работодателям. Кроме того, в соответствии с указом президента, принятым на прошлой неделе, в школах вводится должность консультантов. Они будут анализировать успеваемость и интересы учащихся, начиная с 7-го класса, и направлять выпускников 9-го класса в техникумы. Теперь молодые люди, окончившие 9-й класс и поступившие в техникум, но впоследствии передумавшие, смогут вернуться в школу и продолжить обучение. Также те, кто не решил продолжить обучение в 10-м классе, получат возможность продолжить образование в техникуме. Кроме того, 200 000 молодых людей, окончивших в этом году 11-й класс и не сумевших поступить в высшее учебное заведение, пройдут профессиональное обучение в техникумах по краткосрочным программам продолжительностью от 3 до 6 месяцев. Начиная с 2026-2027 учебного года налаживается выплата стипендии учащимся , обучающимся по дуальной форме образования. В системе Агентства будут созданы передовые техникумы профессионального мастерства и будут обеспечены современным лабораторным (мастерским) оборудованием. Эти передовые техникумы будут ведущими практическими базами для других техникумов в регионе.

В заключении мы можем сказать, что новые реформы в сфере образования Республики Узбекистан направлены на формирование современной, конкурентоспособной и устойчивой системы обучения, соответствующей международным стандартам. Они охватывают все уровни образования — от дошкольного до высшего, уделяя особое внимание качеству обучения,

цифровизации, подготовке квалифицированных кадров и развитию критического мышления у обучающихся.

Реализация данных реформ способствует повышению доступности образования, укреплению связи между наукой, образованием и рынком труда, а также созданию условий для всестороннего развития личности. В долгосрочной перспективе эти преобразования играют ключевую роль в социально-экономическом развитии страны, повышении интеллектуального потенциала общества и укреплении позиций Узбекистана в мировом образовательном пространстве.

ИСПОЛЬЗУЕМАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1.Закон Республики Узбекистан «Об образовании» Официальный нормативно-правовой акт, регламентирующий реформы в образовательной сфере.

2. Постановления Президента Республики Узбекистан и Постановления Кабинета Министров по вопросам образования (Сборники официальных документов за последние годы, регулирующих реформы).

3. Стратегия действий Республики Узбекистан на 2022–2026 годы Раздел «Развитие системы образования и науки» (указ Президента Узбекистана).

4. Портал Xabar.uz.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUV FAOLIYATINI INTEGRATSIYA QILISH ORQALI O'QUVCHILARNING AMALIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Usmonova Shoxsanam Nuriddin qizi
Farg‘ona davlat universiteti. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta'lim) 1-kurs magistranti.

Annotatsiya:*Ushbu tezisda boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatini integratsiyalash orqali o‘quvchilarning amaliy savodxonligini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda integratsiyalashgan ta’limning mazmuni, mohiyati va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonining o‘quvchilarda funksional bilim, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda kundalik hayotda bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, integratsion yondashuv asosida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari, amaliy topshiriqlar va metodik tavsiyalar pedagogik tajriba-sinov jarayonida sinovdan o‘tkazilib, ularning samaradorligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy savodxonligini oshirishda integratsiyalashgan ta’lim samarali pedagogik yondashuv ekanini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, integratsiyalashgan ta’lim, o‘quv faoliyati, amaliy savodxonlik, funksional savodxonlik, fanlararo bog‘liqlik, kompetensiyaviy yondashuv, integratsion topshiriqlar, pedagogik model*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimidan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning amaliy savodxonligini shakllantirish ularning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishlari, kundalik hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishlari hamda funksional savodxon shaxs sifatida kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘quv faoliyatini integratsiya qilish — fanlararo bog‘liqlik asosida bilimlarni tizimli o‘zlashtirish, real hayot bilan uyg‘unlashtirish va o‘quvchilarda chuqur, barqaror kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari bilimning turli manbalardan birgalikda o‘zlashtirilishini, amaliy topshiriqlar orqali fikrlashni faollashtirishni va jarayonlarda faol ishtirok etishni talab etadi. Integratsiyalashgan ta’limda matematika, ona tili, tabiiy fanlar, texnologiya, san’at va boshqa fanlar mazmuni o‘zaro uyg‘unlashtirilib, voqelikni bir butun holda anglashga, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga zamin yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning amaliy savodxonligi — kundalik hayotiy vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari, mantiqiy va

tanqidiy fikrlash, axborotni qayta ishlash, ijodiy yondashuv va hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, xususan, uzluksiz ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, boshlang‘ich ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, STEAM-elementlarni joriy etish ham mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarda motivatsiyani kuchaytirish, o‘rganilayotgan materialning hayotiy ahamiyatini anglash, nazariya-amaliyot birligini ta’minlash orqali amaliy savodxonlikni shakllantirishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

Shuningdek, amaliy savodxonlikning pastligi — o‘quvchilarning o‘qish, yozish, mantiqiy fikrlash va real holatlarda muammolarni hal etishdagi qiyinchiliklari — bugungi kunda jahon ta’lim tizimida dolzarb muammolardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Bu esa integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish, ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, metodik ta’minotini ishlab chiqishning zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatini integratsiya qilishning nazariy asoslari, amaliy savodxonlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, samaradorligini oshirish mexanizmlari o‘rganiladi. Shuningdek, integratsion yondashuv asosida tuzilgan dars ishlanmalari, mashg‘ulotlar, amaliy topshiriqlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatini integratsiyalash orqali o‘quvchilarning amaliy savodxonligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan ta’lim o‘quvchilarda bilimlarni chuqur, tizimli o‘zlashtirish, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun integratsiyalashgan ta’limning metodik modeli ishlab chiqildi. Modelda o‘quv jarayonining maqsadi, mazmuni, texnologik bosqichlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi hamda amaliy topshiriqlar ishlab chiqildi. Mazkur model turli fanlar (ona tili, matematika, atrof-muhit, texnologiya, tasviriy san’at) mazmunini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan o‘quv topshiriqlari va dars ishlanmalari yaratildi. Tajriba jarayonida amaliyotga yo‘naltirilgan integratsion topshiriqlar tuzildi. Ular orqali o‘quvchilar hayotiy masalalarni fanlararo yondashuvda hal qilishga o‘rgatildi. Dars ishlanmalarida loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, kuzatish, tajriba, grafik tahlil, hikoya yaratish kabi usullar qo‘llandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi va metodikaning samaradorligi isbotlandi.

O‘qituvchilarga mo‘ljallangan metodik tavsiyalar fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlash, funksional savodxonlikni rivojlantiruvchi topshiriqlarni tizimli qo‘llash, dars jarayonida faol metodlar ulushini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oldi. Tadqiqot natijalari amaliyotga tadbiq etish uchun mosligi tasdiqlandi.

Tayyorlangan dars ishlanmalari, integratsion ishlanmalar va metodik tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ularning ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional/amaliy savodxonligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatini integratsiyalash o‘quvchilarning amaliy savodxonligini rivojlantirishda samarali yondashuv ekanini ko‘rsatdi. Integratsiyalashgan ta’limning ta’siri nafaqat o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki ularning real hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni tahlil qilishi va funksional savodxonlik elementlarini amalda qo‘llay olishini rivojlantirishda ham yaqqol kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida integratsion darslarning an’anaviy darslarga nisbatan o‘quvchilarni faolroq jalb etishi, ularda o‘rganilayotgan mavzularning hayotiy ahamiyatini tushunish, fanlararo bog‘liqlikni anglash va ijodiy fikrlashni faollashtirishda samaradorligi tasdiqlandi. Ayniqsa, matematik, lingvistik va tabiatshunoslik mazmunlarining bir vazifada uyg‘unlashishi o‘quvchilarning kompleks fikrlashini rivojlantirib, ularning mantiqiy va amaliy tafakkurini faollashtirdi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, o‘quvchilarning amaliy savodxonligi integratsiyalashgan topshiriqlarni muntazam qo‘llash natijasida sezilarli darajada oshdi. Buni tajriba guruhlaridagi o‘zgarishlar – funksional o‘qish, hisoblash, mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, tahlil qilish kabi ko‘nikmalarining o‘sishi tasdiqlaydi. Shuningdek, o‘quvchilarda dars jarayoniga nisbatan qiziqish va motivatsiya oshgani, o‘z fikrini mustaqil ifoda etish, guruhda ishlash, muhokama va bahs jarayonlarida faol ishtirok etish holatlari ko‘paygani kuzatildi.

Integratsion ta’lim jarayonida o‘qituvchi rolining ham o‘zgarishi alohida e’tiborga molikdir. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi, fasilitator sifatida faoliyat yuritishi o‘quvchilarning mustaqil izlanishlari va faol ishtirokini kuchaytirdi. Bu esa metodikaning muvaffaqiyatli qo‘llanishi uchun o‘qituvchi kompetensiyasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida integratsiyalashgan ta’limni amaliyotga joriy etishda ba’zi cheklovlar ham aniqlangan. Jumladan, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining barchasi integratsiya metodikasiga yetarli darajada tayyor emasligi, darsliklardagi ayrim mavzularning integratsiyaga moslashtirilmaganligi, fanlararo bog‘liqlikni ko‘rsatib beruvchi metodik qo‘llanmalar yetishmasligi kabi omillar metodikaning to‘liq samaradorligini cheklashi mumkin.

Shunga qaramay, tadqiqot davomida integratsion yondashuvning amaliy savodxonlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari nazariy va empirik jihatdan tasdiqlandi. Integratsiyalashgan o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning hayotiy ko‘nikmalari, mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi, ijodkorligi va kundalik vazifalarni hal qilishga tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan ta’lim boshlang‘ich ta’lim uchun eng mos, zamonaviy va samarali metodlardan biri bo‘lib, uning amaliyotga keng joriy etilishi o‘quvchilarning amaliy savodxonligini rivojlantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatini integratsiyalash orqali o‘quvchilarning amaliy savodxonligini rivojlantirishga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot natijalari mavzuning yuqori darajada dolzarbligini va ta’lim jarayonini takomillashtirishdagi amaliy ahamiyatini tasdiqladi. Integratsion ta’limning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari hamda amaliy mexanizmlarini o‘rganish asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, integratsiyalashgan ta’lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy savodxonligini rivojlantirishda samarali yondashuv ekanligi aniqlandi. Fanlararo bog‘liqlikka asoslangan darslar o‘quvchilarda bilimlarning yaxlit tasavvurini shakllantirib, ulardan kundalik hayotiy vaziyatlarda foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini mazmunan boyitadi, o‘quvchining faol ishtirokini oshiradi va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, tadqiqot davomida amaliy savodxonlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va baholash mezonlari aniqlab berildi. Amaliy savodxonlik o‘quvchining mantiqiy fikrlashi, muammoni hal qilish qobiliyati, funksional o‘qish, matematik savodxonlik, axborotni qayta ishlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarini o‘z ichiga olishi aniqlandi. Ushbu komponentlarni rivojlantirish integratsion topshiriqlar orqali samarali amalga oshirilishi isbotlandi.

Uchinchidan, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan ta’lim modeli o‘quv jarayonini maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli va amaliyotga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qildi. Model tarkibida o‘quv faoliyatining maqsadi, mazmuni, texnologik bosqichlari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik tamoyillari hamda amaliy topshiriqlar majmuasi aks ettirildi.

To‘rtinchidan, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari integratsion metodikaning amaliy samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhlarida o‘quvchilarning amaliy savodxonlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi, muammoli vaziyatlarni hal qilishga nisbatan qiziqish kuchaydi, o‘quv faoliyati jarayonida mustaqillik, faollik, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllandi.

Beshinchidan, integratsiyalashgan o‘quv faoliyatini tashkil etishda mavjud muammolar ham aniqlab berildi: o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi, darslik mazmunining to‘liq integratsiyaga moslashtirilmaganligi, metodik qo‘llanmalar yetishmasligi kabi omillar integratsiya jarayonini to‘liq joriy etishni cheklaydi. Bu esa ta’lim tizimida integrativ yondashuv bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirishni talab etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari integratsiyalashgan ta’lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy savodxonligini rivojlantirishning samarali yo‘li ekanini ko‘rsatdi.

Ushbu yondashuv o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi, ularni real hayotda qo‘llashga o‘rgatadi va mustaqil, funksional savodxon shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga va boshlang‘ich ta’lim mazmunini modernizatsiya qilishga bevosita hissa qo‘shishi bilan ahamiyatlidir.

IJTIMOIY-SIYOSIY ASARLARDA HISSIY-EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI VOSITALAR VA ULARNING TARJIMASI MASALASI

Qosimjonova Mashhura Nosirjon qizi
University of Business and Science

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy-siyosiy asarlarda hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi til vositalari hamda ularning tarjimada berilish xususiyatlari lingvistik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ijtimoiy-siyosiy diskursga xos bo‘lgan emotsional-ekspressiv birliklar, xususan, baholovchi leksika, metafora, frazeologik birliklar, stilistik figuralar va sintaktik vositalarning kommunikativ hamda pragmatik funksiyalari aniqlanadi. Shuningdek, mazkur birliklarning tarjima jarayonida semantik, stilistik va pragmatik jihatdan qay darajada saqlanishi, tarjimon duch keladigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari atroflicha ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy-siyosiy matnlarni tarjima qilish jarayonida hissiy-ekspressivlikni adekvat yetkazish tarjima sifatini ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-siyosiy diskurs, hissiy-ekspressivlik, ekspressiv til vositalari, tarjima muammolari, pragmatik ma’no, stilistik adekvatlik, baholovchi leksika, metafora.*

Annotation: *This article analyzes linguistic means expressing emotional and expressive features in socio-political texts and the issues related to their translation from linguistic and translation studies perspectives. The study focuses on emotional-expressive units characteristic of socio-political discourse, including evaluative vocabulary, metaphors, phraseological units, stylistic figures, and syntactic devices, examining their communicative and pragmatic functions. In addition, the paper explores the extent to which these units preserve their semantic, stylistic, and pragmatic features in the translation process, as well as the main challenges faced by translators and possible strategies to overcome them. The findings indicate that the adequate transmission of emotional and expressive elements plays a crucial role in ensuring the quality of socio-political translation.*

Keywords: *socio-political discourse, emotional expressiveness, expressive linguistic means, translation issues, pragmatic meaning, stylistic adequacy, evaluative vocabulary, metaphor.*

Аннотация: *В статье рассматриваются языковые средства выражения эмоционально-экспрессивности в общественно-политических произведениях и особенности их передачи в переводе. В рамках исследования анализируются характерные для общественно-политического дискурса эмоционально-экспрессивные единицы, включая оценочную лексику, метафоры, фразеологизмы, стилистические фигуры и синтаксические средства, с точки зрения их коммуникативных и прагматических функций. Особое внимание уделяется сохранению семантических, стилистических и прагматических аспектов данных средств в процессе перевода, а также проблемам, с которыми сталкивается переводчик, и возможным путям их решения. Результаты исследования подтверждают, что адекватная передача эмоционально-экспрессивности является одним из ключевых факторов повышения качества перевода общественно-политических текстов.*

Ключевые слова: *общественно-политический дискурс, эмоционально-экспрессивность, экспрессивные языковые средства, проблемы перевода, прагматическое значение, стилистическая адекватность, оценочная лексика, метафора.*

KIRISH

Globallashuv jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy matnlar jamiyat ongiga ta’sir ko‘rsatishning muhim kommunikativ vositalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday matnlar orqali nafaqat muayyan siyosiy axborot yetkaziladi, balki adresatning hissiy holati, munosabati va baholovchi pozitsiyasi shakllantiriladi. Shu sababli ijtimoiy-siyosiy asarlarda qo‘llaniladigan hissiy-ekspressiv til vositalari matnning kommunikativ va pragmatik qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy diskursda baholovchi leksika, metaforik ifodalar, frazeologik birliklar, stilistik figuralar va murakkab sintaktik konstruksiyalar orqali muallifning subyektiv munosabati va ideologik pozitsiyasi ifodalanadi. Mazkur vositalar yordamida siyosiy voqelik muayyan nuqtai nazardan talqin qilinib, auditoriyani ma’lum xulosalarga yo‘naltirish maqsadi ko‘zlanadi. Shunday ekan, hissiy-ekspressivlik ijtimoiy-siyosiy matnlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq ushbu til vositalarining tarjimada adekvat ifodalanishi murakkab va ko‘p qirrali masala bo‘lib, tarjimashunoslikda alohida ilmiy yondashuvni talab etadi. Chunki hissiy-ekspressivlik semantik mazmun bilangina emas, balki milliy-madaniy kontekst, stilistik me’yor va pragmatik maqsad bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Tarjima jarayonida ushbu omillar yetarlicha hisobga olinmasa, matnning ta’sirchanlik darajasi sezilarli darajada pasayishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy diskursda hissiy-ekspressivlikning o‘rni

Ijtimoiy-siyosiy diskurs axborot berish bilan bir qatorda baholash, ishontirish va ta’sir ko‘rsatish funksiyalarini bajarishi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan unda hissiy-ekspressivlik muallif pozitsiyasini ochib beruvchi va adresat ongiga ta’sir etuvchi muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Hissiy-ekspressiv birliklar siyosiy voqelikni subyektiv baholash imkonini yaratib, matnning ideologik yo‘nalishini belgilaydi.

Tilshunoslik tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, hissiy-ekspressivlik til birliklarining faqat emotsional rang berish xususiyati bilangina emas, balki ularning kommunikativ-pragmatik vazifasi bilan ham belgilanadi. Shu sababli tarjimon matnni tarjima qilish jarayonida uning mazmuniy jihatlari bilan bir qatorda ekspressiv-ta’sirchanlik darajasini ham qayta yaratishga intilishi lozim.

Leksik vositalar va tarjimadagi muammolar

Ijtimoiy-siyosiy matnlarda hissiy-ekspressivlikni ifodalashda baholovchi leksika yetakchi o‘rin egallaydi. Bunday leksik birliklar siyosiy hodisa yoki jarayonga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni bildiradi. Ularning tarjimasida faqat semantik ekvivalentni topish emas, balki baholovchi yuklamani saqlash ham muhim hisoblanadi. Aks holda matn neytral tus olib, muallifning hissiy munosabati yo‘qolib ketishi mumkin.

Metafora va frazeologizmlarning tarjimadagi xususiyatlari

Metaforalar ijtimoiy-siyosiy diskursda murakkab siyosiy jarayonlarni obrazli va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Frazeologik birliklar esa matnga milliy-madaniy rang bag‘ishlab, uning ekspressivligini kuchaytiradi. Biroq ushbu birliklarning tarjimasi ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi, chunki so‘zma-so‘z tarjima pragmatik ta’sirni yo‘qotishi mumkin. Shu sababli funksional ekvivalent yoki kontekstual qayta ifodalash eng maqbul yechim sifatida qaraladi.

Tarjima strategiyalari

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hissiy-ekspressivlikni tarjimada saqlashda funksional ekvivalentlik, kompensatsiya, stilistik moslashtirish va kontekstual qayta ifodalash strategiyalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu strategiyalar tarjimon tomonidan matnning maqsadi va auditoriyasi hisobga olingan holda qo‘llanilgandagina samarali natija beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari ijtimoiy-siyosiy asarlarda hissiy-ekspressivlik matnning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilovchi va uning ta’sirchanlik darajasini oshiruvchi muhim lingvistik omil ekanini ko‘rsatdi. Ushbu vositalarning tarjimada adekvat yetkazilishi tarjima sifatini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, tadqiqot ijtimoiy-siyosiy diskurs tarjimasi nazariyasini boyitib, amaliy tarjima jarayoni uchun muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Abduazizov, A. A. (2008). *Tilshunoslik nazariyasiga kirish*. Toshkent: Fan.

2.Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation*. London: Routledge.

3.Jo‘rayev, B. (2012). *Ijtimoiy-siyosiy matnlar tili*. Toshkent: Fan.

4.Komissarov, V. N. (2002). *Sovremennoye perevodovedeniye*. Moscow: ETS.

5.Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. London: Prentice Hall.

6.Nurmonov, A. (2010). *Pragmatik lingvistika asoslari*. Toshkent: Fan.

7.Qodirov, A. (2006). *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: O‘qituvchi.

8.Rahmatullayev, Sh. (1992). *O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati*. Toshkent: O‘qituvchi.

9.Van Dijk, T. A. (1998). *Political discourse and ideology*. Amsterdam: Elsevier.

10.Yo‘ldoshev, M. (2004). *Matn va uning lingvistik tahlili*. Toshkent: Fan.

BOSHLANG`ICH SINFLARDA ERTAK JANRINI ZAMONAVIY METODLAR ORQALI O`QITISH

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna
Farg`ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
Ibroximjonova Zulxumor Baxtiyor qizi
Farg`ona davlat universiteti
1-bosqich magistranti
Ibroximjonovazulxumor@gmail.com
+998909093344

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertak janrini zamonaviy metodlar orqali o'qitish usuli hamda ularga matn haqida tushuncha berib borilishida va fikr yuritishda katta ahamiyatga ega ekanligi to`g`risida so'z boradi.Ertak janrini o`qitish o`quvchilarda ijodkorlik, tasavvur, nutq rivoji va axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim o`rin tutishi va zamonaviy pedagogik texnalogiyalarni qo`llash esa ushbu jarayonni yanada samarali, qiziqarli va interfaol tarzda bo`lishi yaqqol ochib berildi.*

Kalit so’zlar: *Boshlang‘ich sinf, ertak janri, ertak o'qitish, zamonaviy metod, xalq og‘zaki, ta'lim-tarbiya , ijodiy fikrlash, milliy qadryat, nutq va tafakkur.*

Аннотация: *В данной статье говорится о методе обучения учащихся начальных классов жанру сказки с помощью современных методов, а также о том, что она имеет большое значение в предоставлении им понимания и размышления о тексте.Очевидно, что обучение жанру сказки играет важную роль в формировании у учащихся творческих способностей, воображения, развития речи и нравственных качеств, а применение современных педагогических технологий делает этот процесс более эффективным, интересным и интерактивным.*

Ключевые слова: *Начальная школа, жанр сказки, преподавание сказок, современный метод, устное народное творчество, воспитание, творческое мышление, национальные ценности, речь и мышление.*

Abstract:*This article discusses the method of teaching the fairy tale genre to primary school students using modern methods, as well as its great importance in providing them with an understanding of the text and reflection. It has been clearly revealed that teaching the fairy tale genre plays an important role in the formation of creativity, imagination, speech development, and moral qualities in students, and the*

use of modern pedagogical technologies makes this process more effective, interesting, and interactive.

Keywords: *Primary school, fairy tale genre, teaching fairy tales, modern method, folk oral tradition, education, creative thinking, national values, speech and thinking.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son”.[36]Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’lim jarayoni ularning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ertak janri bolalar ongiga yaqin, sodda va qiziqarli bo‘lib, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, ertak matnlari bolalarning nutqini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. An’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ertaklarni o‘qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Bizga ma'lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish,badiiy olamini boyitish maqsadida xalq og‘zaki ijodining bir qancha na`munalari bilan bosqichma bosqich tanishtirib boriladi. Bu jarayonda ertak janrining o`rni beqiyosdir. Bunda, o‘quvchilar yoshiga,psixologiyasi mos holda ertak va hikoyalar tanlanadi. Ertakning qiziqarli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib holatlar bolalarni ertaklar olamiga jalb qiladi. Zamonaviy pedagogik texnalogiyalar esa ertaklarni o`rgatish jarayononi , uning mazmuni yanada samarali va qiziqarli qiladi.

“Ertak” so’zi lotin tilidan olingan bo’lib, ertak,“gapiradi” degan ma’noni anglatadi. Demak, bu atama odatda o’ylab topilgan, ya’ni xayoliy aytib berish harakati bilan bog’liq. Ertak juda qadimgi janr bo’lib, uni yozishdan oldin og’zaki an’analar orqali yetkazilgan. Xalq tomonidan yaratilgan ko’plab ertaklarda bolalarning o’ziga xos hayoti chetlab o’tilmagan. Hatto turli yoshdagi bolalar uchun juda ko’p maxsus ertaklar yaratilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, 2021-yildan boshlab Milliy o’quv dasturiga ko’ra boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan “O‘qish” va “Ona tili” darslari integratsiyalashtirilib, ta’lim amaliyotiga ,,Ona tili va o’qish savodxonligi” darslari joriy 1-4-sinflar uchun shu nomdagi darsliklar chop qilindi. Bu darslikning asosiy maqsadi bolalarning yosh

[36] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son

xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ularning og’zaki va yozma nutqi hamda tafakkurini o’stirish, shaxs sifatida shakllantira borish, ularda bilim olishga qiziqishni o’stirish, faollik kabilarni shakllantirish hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida ertak janri o‘quvchilarning nutqiy tafakkuri, ma’naviy-axloqiy qarashlari ijodiy fikrlashini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Ertaklar orqali bolalarda yaxshilik va yomonlik, halollik, sabr-toqat adolat, mehnatsevarlik, muhabbat, do‘stlik kabi tushunchalar mustahkamlanadi. Shu sababli bolalarga ertaklarni o‘qitishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini yanada oshiradi va ko`zlangan maqsadga ijobiy va tezroq erishga yordam beradi.

Zamonaviy metodlar, jumladan, interfaol usullar, AKT vositalari, klaster, aqliy hujum, rolga kirish, insert, savol-javob zanjiri, Venn diagrammasi kabi metodlar ertak mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Multimedia taqdimotlari, audio va video ertaklar orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishi kuchayadi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.Yuqoridagilar bilan bir qatorda fanlararo integratsiya qilish ya`ni tasviriy san`at,mehnat,musiqa kabi bir qancha fanlar bilan birgalikda ishlash yanada bolada darsga mavzuga qiziqish va muhabbat uyg`otadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlar alohida o‘rin tutadi. Aqliy hujum, klaster, insert kabi metodlar orqali o‘quvchilar ertak mazmunini chuqurroq anglaydi, o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rganadi. Masalan, ertakni o‘qishdan oldin qahramonlar haqida taxmin qilish yoki o‘qish jarayonida muhim joylarni belgilab borish o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

Ertaklarni o‘qitishda rolli o‘yinlar va sahnalashtirish usullari ham samarali hisoblanadi. O‘quvchilar ertak qahramonlari obraziga kirib, ularning xatti-harakatlarini ifodalaydi. Bu esa bolalarda nutq madaniyati, ijodkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, mashhur xalq ertaklarini sahnalashtirish darsni qiziqarli va esda qolarli qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham ertak janrini o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Multimediali ertaklar, audio va video materiallar, slaydlar orqali berilgan darslar o‘quvchilarning diqqatini jalb etadi va ertak mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar bolalarning mustaqil o‘rganishiga ham imkon yaratadi. Muammoli ta’lim metodida o‘quvchilarga turli savollar berish orqali ularning fikrlash doirasi kengaytiriladi. Masalan, “Agar sen ertak qahramoni o‘rnida bo‘lsang qanday yo‘l tutarding?” kabi savollar bolalarda tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, ertakning boshqa yakunini o‘ylab topish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini oshiradi. Ijodiy topshiriqlar ham ertak janrini o‘qitishda muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilarga ertak asosida rasm chizish, ertakni davom ettirib yozish yoki o‘z ertagini yaratish vazifalari berilishi ularning tasavvurini boyitadi. Bunday topshiriqlar orqali bolalar o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ertak janrini zamonaviy metodlar asosida o‘qitish o‘quvchilarning bilim saviyasini oshirish, ijodkorligini rivojlantirish va dars jarayonini qiziqarli hamda samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Xususan, ertaklarni o’qish orqali o’quvchilarda o’zaro ahillik, ilm olishga intilish, savob ish qilish tuyg’ulari tarbiyalanadi, bir-birlarini hurmat qilishga, haqqiga hiyonat qilmaslikka, hamjihat bo’lishga o’rgatiladi. Shu o’rinda boshlang’ich sinf o’quvchilarini ma’naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda maqollar ham alohida o’rin tutadi. Maqollarda o’z ifodasini topgan xalq tajribasi va xulosalarini o’quvchilar ongiga yetkazishda turli usullardan foydalanadi. Boshlang’ich sinflarda xalq og`zaki ijodi asarlarini o’qitish orqali o’quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish yo’llaridan biri ular matni ustida ishlash jarayoni hisoblanadi. Bu matn ustida bajariladigan turli, reja tuzib shu asosda qayta hikoyalash, lug’at ustida ishlash, turli topshiriqlar bilan tanlab o’qish kabilar bu vazifani amalga oshirishda muhim vositalardan biri bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, xalq og`zaki ijodi asarlarini o’qish darslarida turli yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanib, interfaol metodlarni qo’llash orqali ham o’quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Xususan, bu asarlarni o’rganish jarayonida “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Ven diagrammasi”, “Guruhlar bilan ishlash”, “6x6x6” kabi metodlar bu o’rinda alohida ahamiyatga egadir. Ta’lim sohasidagi o’zgarishlar tufayli darsning shakli va mazmuni ta’sirchanligi, samaradorligi, baholash mezonlari ham o’zgardi. Dars samaradorligini oshirish mezonlaridan biri-darslarda interfaol usullarni qo’llashdan iborat. Bugungi kun o’qituvchisi yangilikka intiluvchan, uni to’g’ri qabul qilib o’z o’quvchisiga yuksak darajada yetkaza olish zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o’tkazishuchun avvalo o’qituvchining o’zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo’lishi zarur. Shundagina bunday o’qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi va unda eng oliy insoniy fazilatlarga ega yosh avlod buyuk kelajagimiz egalari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 1-sinfi uchun darslik. 1-qism.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.-104 b.

2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.- Toshkent: "O'qituvchi", 1990.

3. Matchonov S., G`ulomova X. va boshqalar. Boshlang`ch sinf o`qish darslarini pedagogik texhologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.

4. Qosimova K., Matchonov S. , G`ulomova X., Yo`ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.

ZAMONAVIY TA‘LIMDA O‘ZLASHTIRISH MUAMMOLARINI HAL ETISHDA REFLEKSIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Osiyo xalqaro universiteti
Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Alimurodova OzodaValijon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni yetarli darajada o‘zlashtira olmaslik muammolari tahlil qilinadi. O‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda refleksiv yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati ochib beriladi. Refleksiya orqali ta’lim oluvchilarning o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni bartaraf etish ko‘nikmalari shakllanishi asoslab beriladi. Maqolada refleksiv yondashuvning o‘quv motivatsiyasini oshirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, pedagog faoliyatida refleksiv metodlardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari refleksiv yondashuv o‘zlashtirish muammolarini hal etishda samarali pedagogik vosita ekanini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Refleksiv yondashuv, ta’lim sifati, o‘zlashtirish muammolari, refleksiya, zamonaviy ta’lim, o‘quv motivatsiyasi.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni yetarli darajada o‘zlashtira olmasligi dolzarb muammo sifatida e’tirof etiladi. Ta’limning samaradorligi nafaqat o‘qituvchining metodik mahoratiga, balki o‘quvchining o‘z faoliyatini anglab, tahlil qila olish qobiliyatiga ham bog‘liq. Shu nuqtai nazardan buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino bilimni faqat qabul qilish emas, balki uni ongli ravishda anglash va tahlil qilish orqali chuqur o‘zlashtirish mumkinligini ta’kidlagan. J. Dewey esa ta’limni o‘quvchining tajribasi va tafakkuri bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilib, o‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiya orqali bilimlarni barqaror o‘zlashtirishga erishish mumkinligini nazariy asoslab bergan. D. Schön o‘zining “The Reflective Practitioner” asarida professional faoliyat va ta’lim jarayonida refleksiv yondashuvning rolini ta’kidladi. Shu bilan birga D. Kolbning tajribaga asoslangan o‘quv modeli refleksiyani bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ko‘rsatadi. J. Moon va S. Brookfieldning tadqiqotlari esa refleksiv metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘z xatolarini aniqlash, bilimlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkinligini dalillaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’limda yuzaga kelayotgan muammolar – o‘quv motivatsiyasining pastligi, bilimlarni yuzaki o‘zlashtirish va tanqidiy tafakkurning yetarli darajada rivojlanmaganligi – refleksiv yondashuv orqali samarali hal etilishi mumkin. Mazkur maqola aynan shu muammolarni bartaraf etishda refleksiv yondashuvning

pedagogik imkoniyatlari va amaliy ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari o'qituvchilari, oliy ta'lim muassasalari pedagoglari, magistrantlar va ta'lim sifati bilan qiziquvchi tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi nazarda tutilgan.

ASOSIY QISM:

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarni chuqur va barqaror o'zlashtira olmasligi dolzarb muammo sifatida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. J. Deweyning ta'kidlashicha, o'quvchi faqat bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol o'rganuvchi bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan refleksiv yondashuv – o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmi sifatida katta ahamiyatga ega. D. Schönning fikriga ko'ra, professional faoliyat va ta'lim jarayonida refleksiya kasbiy va shaxsiy rivojlanishning markaziy omili hisoblanadi. Shu bilan birga, D. Kolbning tajribaga asoslangan o'quv modeli bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda refleksiyani samarali vosita sifatida ko'rsatadi. J. Moon va S. Brookfield refleksiv metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning o'z xatolarini aniqlash, bilimlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish mumkinligini dalillaydi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, refleksiv yondashuv o'quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, Korthagen ta'kidlashicha, o'quvchilarga dars oxirida o'z o'rganganlarini yozma shaklda ifodalash imkoniyati berilganda, ular mavzuni tezroq va mustahkamroq o'zlashtiradi. Shuningdek, Farrell ta'lim jarayonida kichik guruhli muhokamalar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirishim mumkin:

1. Har bir dars oxirida reflektiv daftarchalar yordamida o'quvchilar o'z o'rganganlarini, qiyinchiliklarini va yechimlarini yozib borishlari.

2. Guruh ichida muammoli vaziyatlar bo'yicha muhokama tashkil etish; bu orqali o'quvchilar bir-birining fikrini tahlil qilib, yangicha qarashlarni qabul qiladi.

3. Mavzuni qiziqarli hikoya yoki masalalar bilan bog'lash, masalan, matematik masalani hayotiy voqea orqali tushuntirish.

Qiziqarli faktlardan aytadigan bo'lsam Finlyandiya va Singapur maktablarida o'quvchilarning darsdan tashqari refleksiv mashqlar bilan shug'ullanishi odatiy hol bo'lib, bu ularning mustaqil fikrlash va bilimlarni barqaror o'zlashtirish ko'rsatkichini sezilarli oshiradi. Shaxsiy pedagogik tajribamdan kelib chiqadigan bo'lsak, darsda o'quvchilarga "Bugun nima o'rgandim va qayerda xato qilganman?" degan savollar berish orqali ular nafaqat mavzuni tezroq o'zlashtirdi, balki o'z qobiliyatlarini anglab, dars jarayoniga faolroq jalb bo'ldi. Shu bilan birga, refleksiv yondashuv quyidagi pedagogik tushunchalarni o'z ichiga oladi: aktiv o'rganish, o'z-o'zini tahlil qilish, xatolarni o'rganish va mustaqil qaror qabul qilish. Bu tamoyillarni qo'llash orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni o'zlashtiradi, balki hayotda duch keladigan murakkab

vaziyatlarni ham tahlil qila oladi. Natijada, refleksiv yondashuv o‘zlashtirish muammolarini hal etishda samarali vosita bo‘lib, ta’lim sifatini oshirish, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtira olmaslik muammolari tahlil qilindi va bu muammoni hal etishda refleksiv yondashuvning ahamiyati yoritildi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, refleksiv metodlar orqali o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini aniqlashi va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi mumkin. Shu bilan birga, refleksiv yondashuv o‘quv motivatsiyasini oshirish, mavzuni barqaror o‘zlashtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagoglar uchun tavsiya etilgan usullar – dars oxirida reflektiv daftarchalar bilan ishlash, guruhli muhokamalar tashkil etish va mavzuni qiziqarli hikoya yoki masalalar bilan bog‘lash – ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Refleksiv yondashuv nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Natijada, zamonaviy ta’limda refleksiv yondashuvni tizimli qo‘llash orqali o‘zlashtirish muammolarini samarali hal etish, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish mumkinligi aniqlandi. Bu esa pedagogik faoliyatning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladigan muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dewey, J. Experience and Education. New York: Free Press, 2018
2. Schön, D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. London: Routledge, 2019.
3. Kolb, D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Pearson Education, 2020.
4. Moon, J. A. Reflection in Learning and Professional Development. London: Routledge, 2018.
5. Korthagen, F. A. J. Pedagogy of Teacher Education: Reflective Practice. Springer, 2021.
6. Farrell, T. S. C. Reflective Practice in ELT. TESOL International Association, 2019.
7. Hattie, J. Visible Learning: Feedback and Reflection in Education. London: Routledge, 2020.
8. Brookfield, S. D. Becoming a Critically Reflective Teacher. Jossey-Bass, 2019.
9. Назарова, Н. А. Современные образовательные технологии и рефлексивный подход. Москва: Академия, 2020.

10. Қодиров, Б. Р. Таълим самарадорлигини оширишда рефлексиянинг ўрни. Тошкент: Фан, 2021.

11. Abdukarimov, A., & Ismoilova, M. Reflective approach in improving students' academic performance. International Journal of Educational Research, 2022.

12. UNESCO. Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris, 2021.

PLAGIAT TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY FAOLIYATDAGI O‘RNI

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti o‘zbek tili,pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
S.A.Saliyeva
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi
S.Abdumannopov

Annotatsiya: *Maqola ilmiy faoliyatda plagiat tushunchasini qonuniy, etik va texnik jihatdan tahlil etadi. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil kuchga kirgan normativ-hujjatlari, Plagiat.uz milliy tizimi, Elsevier va COPE xususiy ma’lumotlari asosida plagiat turlari, uni aniqlash zamonaviy usullari va akademik adolatni ta’minlash mexanizmlari keltirilgan. Plagiatga qarshi kurashning muvaffaqiyatli modeli taklif etiladi. Ilmiy muassasalar, ilmiy rahbarlar va tadqiqotchilar uchun amaliy tavsiyalar berilgan.*

Abstract: *The article analyzes the concept of plagiarism in scientific activity from a legal, ethical and technical point of view. Types of plagiarism, modern methods of its detection and mechanisms for ensuring academic justice are presented based on the normative documents of the Republic of Uzbekistan that entered into force in 2025, the national Plagiat.uz system, Elsevier and COPE private information. A successful model of combating plagiarism is proposed. Practical recommendations are given for scientific institutions, scientific leaders and researchers.*

Абстрактный:*В статье анализируется понятие плагиата в научной деятельности с юридической, этической и технической точки зрения. Виды плагиата, современные методы его обнаружения и механизмы обеспечения академической справедливости представлены на основе нормативных документов Республики Узбекистан, вступивших в силу в 2025 году, национальной системы Plagiat.uz, частной информации Elsevier и COPE. Предлагается успешная модель борьбы с плагиатом. Даны практические рекомендации для научных учреждений, научных руководителей и исследователей.*

Kalit so‘zlar: *plagiat, akademik adolat, ilmiy etika, Plagiat.uz, antiplagiat, originallik, self-plagiarism, ilmiy nashr, COPE, Elsevier*

Key words*: plagiarism, academic justice, scientific ethics, Plagiat.uz, anti-plagiarism, originality, self-plagiarism, scientific publication, COPE, Elsevier*

Ключевые слова: *плагиат, академическая справедливость, научная этика, Plagiat.uz, антиплагиат, оригинальность, самоплагиат, научная публикация, COPE, Elsevier*

Plagiat (lot. plagium – “inson o‘g‘irligi”) – bu boshqa muallifning g‘oyalarini, matnlarini, ma’lumotlarini yoki natijalarini ruxsatsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘zgartirilgan shaklda o‘zlashtirishdir. Ilmiy faoliyatda plagiat – akademik etikaning eng og‘ir buzilishidir va uni oldini olish zamonaviy universitetlarning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi me’yoriy hujjatlarida plagiat quyidagicha ta’riflangan:“Plagiat – bu boshqa shaxsning ilmiy yoki ijodiy asarini, uning qismini yoki g‘oyasini manba ko‘rsatmasdan o‘zlashtirishdir” [1].To‘g‘ridan-to‘g‘ri nusxalash – matnni o‘zgartirmasdan ko‘chirish.2. Parafraz plagiat – mazmun saqlanib, so‘zlar almashtiriladi.3. Tarjima plagiat – boshqa tillardagi matn tarjima qilinib, manba ko‘rsatilmaydi.4. O‘z-o‘zini plagiat (self-plagiarism) – avval e’lon qilgan natijalarni qayta jo‘natish.5. G‘oya plagiat – g‘oya, metodika, kontseptsiyani manbasiz ishlatish.3. Plagiatga qarshi qonuniy choralar 2025-yil 1-yanvardan kuchga kirgan “Ilmiy faoliyatda akademik adolatni ta’minlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamosi qarori [1] bilan: Barcha dissertatsiya, ilmiy maqola va loyihalar Plagiat.uz tizimidan o‘tkaziladi. Originallik bo‘yicha kamida 70 % talab qilinadi.Plagiat aniqlansa:

– ilmiy ishi rad etiladi;

– muallifga 1 yilga ilmiy nashrlarda e’lon qilish ta’qiqlanadi;

– takroriy holatda – ilmiy darajasi yoki unvoni bekor qilinadi.

Plagiatni aniqlash zamonaviy usullari:Plagiat.uz tizimi [2] quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:Lotin va kirill alifbosi bilan yozilgan matnlarni 129 ta tilga tekshirish.PDF-hisobot: o‘xshashlik foizi, manba havolalari, rangli ajratish.Tarjima va sinonim yordamida yashirilgan plagiatni ham aniqlash (cross-language detection).24/7 onlayn xizmat; API orqali LMS-larga ulash mumkin.Plagiatning ilmiy etika bilan bog‘liqligi Elsevier nashriyotining 2024-yil bayonotiga ko‘ra [4]: “Plagiat – bu ilmiy jamoa ishonchini buzadigan axloqiy nuqsondir; u innovatsiyani sekinlashtiradi va resurslarni bekor ketkazadi”.

Shuningdek, Committee on Publication Ethics (COPE) plagiatni “har qanday shaklda jiddiy etika buzilishi” deb hisoblab, jurnal editoarlari uchun quyidagi algoritimni taklif qiladi [5]:

1. shikoyat kelib tushganda plagiat tekshiruvi;

2. muallifga 14 kunlik izoh berish imkoni;

3. aniqlansa – maqolani retseptsiya (retraction) qilish va bazalarga “Retracted” belgisi qo‘yish.

Xulosa sifatida, plagiat ilmiy bilish jarayoniga xalaqit beruvchi, ilmiy hamjamiyat ishonchini buzuvchi jiddiy etika buzilishidir. O‘zbekiston 2025-yilda joriy etilgan yangi normativ-hujjatlar bilan plagiatga qarshi kurashni qonuniy ravishda kuchaytirdi: barcha dissertatsiya va ilmiy maqolalar Plagiat.uz tizimidan majburiy o‘tkaziladi, originallik 70 % dan kam bo‘lmasligi talab etiladi, buzilganda esa dissertatsiya rad etiladi va muallif bir yilga nashr huquqidan mahrum qilinadi. Plagiat.uz, Turnitin, iThenticate kabi zamonaviy texnologiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri nusxa, parafraz, tarjima va o‘z-o‘zini plagiat

shakllarini ham aniqlay oladi. Biroq texnik vositalar yetarli emas: universitetlarda “akademik yozma” fani, tadqiqotchilarning ORCID, ResearchGate profillarini ochish va ilmiy rahbarlarning davomiy nazorati kabi tarbiyaviy-institutsional mexanizmlar ham zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2024-yil 27-dekabr, PQ-125-son.

[2] Plagiat.uz rasmiy sayti. https://plagiarism.uz

[3] G‘aniyeva D. Plagiat va uning ilmiy faoliyatga tasiri // O‘zbekiston ilmiy jurnallari, 2024, №3, 45-49 bet.

[4] Elsevier Ethics in Research & Publication, 2024 Edition, p. 12-14.

[5] COPE Flowcharts on Plagiarism. https://publicationethics.org

SUV VA MINERALLAR MAVZUSIDA KEYS-STADI TEXNOLOGIYASINING QO'LLANISHI

Navoiy davlat universiteti
Berdiyeva Durdona Sirojiddin qizi
Elektron manzil: durdonaberdiyeva07@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu mavzuda o'simliklar hayotida suv va mineral moddalarning ahamiyati yoritiladi. Suvning hujayra faoliyati, moddalarning tashilishi va turgorni saqlashdagi roli hamda makro va mikroelementlarning o'simlik o'sishi va rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Mavzu suv va minerallar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish hamda o'simlik yetishtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

This topic addresses the importance of water and mineral nutrients in plant life. The role of water in cellular activity, substance transport, and maintenance of turgor, as well as the effects of macro- and micronutrients on plant growth and development, are analyzed. The topic is scientifically and practically significant for understanding the interaction between water and minerals and for effective plant cultivation.

В данной теме рассматривается значение воды и минеральных веществ в жизни растений. Анализируется роль воды в клеточной активности, транспорте веществ и поддержании тургора, а также влияние макро- и микроэлементов на рост и развитие растений. Тема имеет важное научно-практическое значение для понимания взаимосвязи воды и минеральных веществ и эффективного выращивания растений.

Kalit so'zlar: *Suv, mineral moddalar, makroelementlar, mikroelementlar, ildiz orqali so'rilish, osmotik bosim, turgor, transpiratsiya, moddalar almashinuvi, erituvchi muhit, mineral oziqlanish, tuproq eritmasi, ionlar almashinuvi, xlorofill sintezi, o'simlik o'sishi va rivojlanishi*

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga suv va minerallar haqidagi bilimlarni o'rgatish va hayvonlar anatomiyasi xususida o'quvchilarga chuqurroq tushunchalar berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarga suv va minerallar jarayonini o'rgatish orqali tirik organizmlar olami va atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ekologik va iqtisodiy tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:O'quvchilarda organizmdagi suv va minerallar haqidagi tushunchalarni mustahkamlab biologiya faniga oid bilim va malakalarini rivojlantirish. Darslik ustida mustaqil ishlash, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Tirik organizmlardagi suv va minerallar haqidagi videoroliklar, kompyuter, plakatlar, sinf xonasidagi jonli burchak,video proektorlar,A3 farmat,marker.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Keys stadi texnologiyasi (kichik guruhlarda ishlash) metodi.

Asosiy tushunchalar va tayanch bilimlar: Anorganik moddalar, organik moddalar, anionlar, kationlar, tuzlar, suvlar, kislotalar, oqsil, lipid, buferlik.

Darsning borishi;

I.Tashkiliy qism.

II.O‘tgan mavzu yuzasidan qisqa savol-javob tashkil etish, bilimlarini baholash.

III.O‘quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, metodlari, jihozi, darsni borishi bilan tanishtirish.

IV.Yangi mavzuni o‘rganish.

Reja:

1. Organizm tarkibi kiruvchi moddalar
2.Suv molekulasining tuzilishi
3. Tuzlar

V.O’qituvchi yangi mavzuni reja asosida ko’rgazmali vositalar yordamida bayon etganidan so’ng, o’quvchilarning amaliy ishlarini tashkil etadi. Amaliy ish topshiriqlari bilan tanishtiradi.(1-ilova)

VI.O‘quvchilarni bir necha kichik guruhlarga bo‘lib komanda tashkil etish, amaliy ish topshiriqlarini mustaqil ishlashga undash, berilgan topshiriqlarni guruhda muhokama qilish va xulosa chiqarish.

VII.Yangi mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash (2-ilova)

VIII.Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash .

IX.Guruhlar kesimida o‘quvchilarni rag‘batlantirish va darsni yakunlash.

X. Uyga vazifa : Qoshimcha adabiyotlar va axborot manbaalardan foydalanib,“ Suv va minerallar“ mavzusida taqdimot tayyorlash.

1-ILOVA.

1-topshiriq.

Suv va minerallarning o‘simlik hayotidagi ahamiyatini o‘rganish

Ishdan maqsad: O‘simliklarda suvning harakati va mineral moddalarning o‘zlashtirilishini tajriba orqali kuzatish, suv va minerallarning biologik ahamiyatini tushunish.

Kerakli jihozlar: 2 ta stakan yoki probirka

Issiq suv va sovuq suv

Qizil karamning (kapusta) sharbati yoki lakmus qog‘ozi

Tuz (NaCl)

Tirband list (salat bargi / piyoz bargi)

Shisha tayoqcha

Pichoq

Bajarish tartibi:

1. Bir piyoz bargidan kichik bo‘lak kesiladi.

2. Uni 2 stakanga solasiz:

1-stakanga ichimlik suvi,

2-stakanga tuzli suv (1 osh qoshiq tuz + 200 ml suv).3. 10–15 daqiqa kutiladi va barg holati kuzatiladi.

Kuzatish: Oddiy suvda barg shishadi, tik bo‘ladi.

Tuzli suvda esa barg so‘lib, burishadi.

1-Kichik guruhlar uchun topshiriqlar.

1	H2O	**A**	qon hosil qilishda ishtirok etadi
2	K+,Na+,Ca2+	**B**	hujayra ichi buferligini ta’minlaydi
3	H2PO4	**D**	suyak to‘qimalarini hosil qiladi
4	Ca va P	**R**	qo‘zg‘aluvchanlikni ta’minlaydi
5	OH- va H+	**F**	hujayradan tashqaridagi buferlikni ta’minlaydi
6	H2CO3 va HCO3–	**G**	fotosintez jarayonida ishtirok etadi
7	CO	**H**	turli xil molekulalarning erkin valentligiga birikadi
8	Mg	**I**	moddalarni eritish

Javobi.1-I, 2-R, 3-D, 4-A, 5-B, 6-F, 7-H, 8-G

2-Kichik guruhlar uchun topshiriqlar.

Muammoli vaziyatlar

1. Nima sababdan o‘simlik suv yetarli bo‘lsa ham so‘lib qolishi mumkin?
2. Nega mineral moddalarsiz suv o‘simlik rivoji uchun yetarli emas?
3. Nima uchun azot yetishmaganda barglar sarg‘ayadi, lekin ildizlar nisbatan kam zarar ko‘radi?
4. Agar tuproq juda nam bo‘lsa, nima uchun o‘simlikda mineral yetishmovchilik belgilari paydo bo‘ladi?
5. Nima sababdan kaliy yetishmovchiligi o‘simlikning qurg‘oqchilikka chidamliligini pasaytiradi?

1. Javoblar. O‘simlik suv yetarli bo‘lsa ham, agar tuproqdagi mineral tuzlar muvozanati buzilgan bo‘lsa yoki ildiz tizimi shikastlangan bo‘lsa, suv hujayralarga yetib

bormaydi. Natijada osmotik bosim pasayadi va hujayralar turgorini yo‘qotib, o‘simlik so‘lib qoladi.

2. Suv faqat erituvchi va transport muhit bo‘lib xizmat qiladi, ammo mineral moddalar hujayra tuzilishi, fermentlar faoliyati va metabolik jarayonlar uchun zarur. Mineral moddalar bo‘lmasa, oqsil, ferment va xlorofill sintezi buziladi, natijada o‘simlik normal rivojlana olmaydi.

3. Azot harakatchan element bo‘lib, yetishmovchilik paytida u eski barglardan yosh to‘qimalarga ko‘chadi. Natijada barglarda xlorofill parchalanib, sarg‘ayish (xloroz) kuzatiladi, ildizlar esa nisbatan kamroq zararlanadi.

4. Haddan tashqari namlik tuproqdagi kislorod miqdorini kamaytiradi. Bu ildizlarning nafas olishini qiyinlashtiradi va mineral moddalarni faol o‘zlashtirish jarayonini sekinlashtiradi. Natijada mineral yetishmovchilik belgilari yuzaga keladi.

5. Kaliy hujayralarda osmotik bosimni va suv almashinuvini boshqaradi. Kaliy yetishmaganda suvni ushlab turish qobiliyati pasayadi, transpiratsiya kuchayadi va o‘simlik qurg‘oqchilikka kam chidamli bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1.O. Ishankulov, J. Tolipova, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova Tabiiy fanlar yo’nalishi darslik Toshkent-2025

METHODOLOGICAL APPROACHES TO ANALYZING WAR THEMES IN LITERATURE

Scientific supervisor: DSc, Associate professor **U.S.Nasriddinova**
Maxmudova Dilnozaxon *the student of*
Asia International University.
MM5- XT-25 -group English language andliterature

Abstract: *This study examines the methodological frameworks employed in analyzing war themes in literature, emphasizing the intersection of historical context, psychological trauma, ethical inquiry, and cultural identity. By integrating historical-critical, psychoanalytic, trauma-theoretical, comparative, narratological, postcolonial, interdisciplinary, and ethical approaches, the research highlights how literature represents both the human and societal dimensions of conflict. The study draws on examples from 20th- and 21st-century English and Uzbek literature, illustrating cross-cultural similarities and divergences in the depiction of heroism, moral ambiguity, trauma, and collective memory. Additionally, the research explores how formal structures, narrative techniques, and symbolic imagery mediate the experience of war, reflecting both individual and collective responses. This multi-dimensional methodology underscores the necessity of combining analytical perspectives to understand fully the ethical, psychological, and aesthetic complexities of war narratives, contributing to a nuanced understanding of literature's role in documenting, interpreting, and memorializing human conflict.*

Keywords*: War literature,Methodology,Trauma theory, Historical-critical analysis, Comparative literature, Postcolonial studies, Narrative structure, Ethics in literature, Uzbek literature, 20th-century conflicts*

Аннотация:*В данном исследовании рассматриваются методологические рамки, применяемые для анализа военных тем в литературе, с акцентом на пересечение исторического контекста, психологической травмы, этических вопросов и культурной идентичности. Интегрируя историко-критический, психоаналитический, травмотеоретический, сравнительно-литературный, нарратологический, постколониальный, междисциплинарный и этический подходы, исследование показывает, как литература отражает как человеческие, так и социальные аспекты конфликтов. В работе используются примеры литературы XX–XXI веков на английском и узбекском языках, демонстрирующие культурные сходства и различия в изображении героизма, моральной неоднозначности, травмы и коллективной памяти. Дополнительно анализируется, как формальные структуры, нарративные техники и символические образы передают опыт войны, отражая как*

индивидуальные, так и коллективные реакции. Такой многомерный метод подчеркивает необходимость комбинирования аналитических перспектив для полного понимания этических, психологических и эстетических сложностей военных нарративов, способствуя глубокому осмыслению роли литературы в документировании, интерпретации и увековечении человеческих конфликтов.

Ключевые слова *: Военная литература, Методология, Теория травмы, Историко-критический анализ, Сравнительная литература, Постколониальные исследования, Нарративная структура, Этика в литературе,Узбекская литература,Конфликты XX век.*

War literature occupies a singular place in literary studies because it represents the intersection of human experience, historical events, and artistic expression. The portrayal of war in literature is not merely about recording events; it is a reflection of psychological trauma, ethical dilemmas, sociopolitical upheavals, and cultural identity. Methodologically, the study of war literature requires a multi-dimensional lens that bridges literary theory, historical analysis, psychological inquiry, and ethical reflection.Literature of war encompasses multiple genres: poetry, novels, short stories, memoirs, plays, and even digital narratives.

The methodological choice shapes not only the interpretation of these works but also the broader understanding of how societies remember and process conflict. War literature is thus both an archive of collective memory and a medium for moral and psychological inquiry.

Historical-Critical Approaches.The historical-critical methodology situates literary texts within the temporal, social, and political circumstances of their creation. By linking literature to its historical context, scholars uncover how authors mediate their response to conflict, shaping collective memory and social consciousness.Contextualization: Understanding the historical milieu of wars, such as the trench warfare of World War I, the ideological conflicts of the Cold War, or the socio-political disruptions in Central Asia during Soviet rule.Primary Sources: Military records, diaries, propaganda, newspapers, and firsthand accounts are essential for grounding literary analysis in historical reality.Authorial Perspective: Scholars consider whether the author is a soldier, civilian, or political observer, as this affects narrative voice, tone, and focus.All Quiet on the Western Front (Erich Maria Remarque) reflects the disillusionment of German soldiers, emphasizing the gap between public perception and frontline realities.Uzbek literature during the Soviet-Afghan war often juxtaposes ideological narratives with personal accounts of suffering, revealing tensions between state-sanctioned history and lived experience.Some scholars argue that historical-contextual analysis risks reducing literature to mere documentation. Others maintain that understanding context is crucial for interpreting narrative strategies, symbolism, and ethical dilemmas within war texts. Psychoanalytic and

Trauma Theory Approaches.War exerts profound psychological effects, which literature often represents indirectly through narrative fragmentation, symbolism, and character development. Psychoanalytic and trauma theory approaches focus on these internal dimensions.Trauma Representation: Following Caruth and LaCapra, trauma manifests as narrative gaps, repetitions, and the unspeakable nature of certain experiences.Character Psychology: Shell shock, PTSD, survivor guilt, and post-traumatic behaviors are explored in literature as both personal and collective phenomena.Narrative Structure: Non-linear timelines and fragmented perspectives mimic cognitive processes affected by trauma.Remarque's depiction of soldiers' detachment and desensitization illustrates trauma at both individual and collective levels.Contemporary Uzbek literature often presents war trauma through multi-generational memory, exploring how the psychological aftermath persists beyond immediate combat.Trauma theory challenges traditional literary analysis by prioritizing psychological truth over plot or formal cohesion. Critics caution that excessive psychoanalytic reading may over-psychologize literary works, neglecting historical, social, and cultural dimension.Comparative and Cross-Cultural Approaches.Comparative methodologies examine war literature across languages, cultures, and national contexts. This approach highlights both universal human experiences and culturally specific interpretations of conflict.Thematic Comparison: Exploring recurring motifs such as heroism, ethical dilemmas, and human suffering.Structural Comparison: Comparing narrative forms, perspectives, and stylistic strategies across cultures.Translation Studies: How linguistic and cultural translation affects interpretation and reception.English World War I poetry (Siegfried Sassoon, Wilfred Owen) vs. Uzbek Soviet-era narratives: both reflect disillusionment, but cultural conceptions of honor and collectivism diverge.Japanese WWII literature vs. European war novels: both confront trauma but employ differing aesthetic and ethical lenses.Comparative analysis must balance universality with specificity; scholars debate how much cultural context should guide thematic interpretation. Formalist, Structuralist, and Narratological Approaches:These approaches prioritize the internal mechanics of texts over external context, focusing on how literature constructs meaning.Formalist Analysis: Study of imagery, diction, rhythm, and literary devices.Structuralist Analysis: Exploration of binary oppositions (life/death, hero/coward, victory/defeat) to reveal ideological underpinnings.Narratology: Examining focalization, narrative temporality, and point of view as tools to convey wartime experience.The fragmented narrative in Virginia Woolf's Mrs. Dalloway mirrors post-WWI psychological dislocation.Recurring symbols of destruction in Uzbek war novels convey both physical and moral devastation.While formalist approaches reveal technical artistry, critics argue they risk divorcing literature from historical and ethical realities. Integrating structuralist insights with historical context often yields the most nuanced interpretations. Postcolonial and Sociopolitical ApproachesWar

literature is often intertwined with questions of power, identity, and resistance. Postcolonial frameworks examine how marginalized societies articulate conflict and survival.Imperialism and Resistance: Literature as a means of negotiating oppression and asserting cultural identity.Memory and National Identity: Exploration of collective trauma and cultural memory.Ideological Critique: Assessing how literature challenges or reinforces dominant power structures.Uzbek narratives on Soviet military campaigns highlight tensions between ideological loyalty and personal sacrifice.African and Middle Eastern war literature frequently intertwines conflict with postcolonial identity formation.Critical Debate.Postcolonial analysis illuminates silenced voices but may overemphasize political context at the expense of aesthetic form. Multi-method approaches often reconcile these tensions. Interdisciplinary and Digital ApproachesModern scholarship incorporates quantitative, technological, and interdisciplinary methods: Digital Humanities: Text mining, sentiment analysis, and pattern recognition reveal latent trends in war literature.Ecocriticism: Literature is analyzed for environmental devastation and spatial displacement caused by war.Sociological and Anthropological Perspectives: Literature as a reflection of group behavior, civilian experience, and cultural norms during conflict.Computational analysis of WWI poetry reveals recurrent semantic patterns in the language of trauma.Ecocritical studies of Central Asian war literature highlight destruction of landscapes as both literal and symbolic.. Ethical, Philosophical, and Existential ApproachesWar literature often engages profound moral and existential questions.Moral Dilemmas: Choices under extreme conditions, obedience versus conscience, survival ethics.Existentialism: Alienation, absurdity, and the search for meaning in chaotic wartime environments.Philosophical Reflection: Just war theory, human rights, and ethical critique in literature.Sartrean existential readings of war novels illuminate characters' confrontation with absurdity and freedom.Uzbek literature frequently examines collective responsibility and ethical choices under oppressive regimes.. Integrative Methodologies.Combining historical-contextual and trauma-theoretical perspectives provides depth and psychological realism.Pairing comparative and postcolonial approaches highlights cultural specificity and universal human experience.Integrating narratological and ethical analysis reveals how form conveys moral and psychological truths.Case Study:Analyzing War and Peace alongside Uzbek Soviet-era war novels using historical, trauma, and comparative methods reveals cross-cultural representations of heroism, moral ambiguity, and the human cost of conflict.

The study of war literature requires methodological plurality. No single approach can fully capture the ethical, psychological, historical, and aesthetic dimensions of war. By integrating historical-critical, trauma-theoretical, comparative, narratological, postcolonial, and interdisciplinary approaches, scholars can develop a comprehensive understanding of how literature reflects, interrogates, and

memorializes human conflict. PhD-level research in this field emphasizes multi-dimensionality, contextual sensitivity, and theoretical rigor, providing both scholarly insight and practical frameworks for analyzing war narratives across cultures.

REFERENCES:

1. Caruth, Cathy. (1996). Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History.
2. Fussell, Paul. (1975). The Great War and Modern Memory.
Oxford University Press.
3. Eagleton, Terry. (2011). Literary Theory: An Introduction (3rd ed.).
University of Minnesota Press.
4. Bassnett, Susan. (2013). Comparative Literature: A Critical Introduction.
Wiley-Blackwell. Useful for comparative methodologies across languages and cultures.
5. Anderson, Benedict. (2006). Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism (Rev. ed.).
6. Whitehead, Anne. (2004). Trauma Fiction.
Routledge.
7. Harrison, Charles, Paul Wood & Jason Gaiger (eds.). (1998). Art in Theory 1900–2000: An Anthology of Changing Ideas.
8. Rothberg, Michael. (2009). Multidirectional Memory: Remembering the Holocaust in the Age of Decolonization.
9. Nünning, Ansgar & Vera Nünning (eds.). (2005). Metadiscourse and Metafiction in Modern Literature: From Critical Modelling to Textual Practice.
10. Butler, Judith. (2004). Precarious Life: The Powers of Mourning and Violence.
11. Dawes, James. (2002). The Future of War: The Reification of Political Violence.
12. Lentricchia, Frank & Thomas McLaughlin (eds.). (1990). Critical Terms for Literary Study.
13. White, Hayden. (1973). Metahistory: The Historical Imagination in Nineteenth-Century Europe.
14. James, Henry. (2009/Original 1896). The Art of Fiction and Other Essays.
15. Spivak, Gayatri Chakravorty. (1988). Can the Subaltern Speak? in Marxism and the Interpretation of Culture.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SOVET DAVRI TARIXINING TARIX TA'LIMIDA O'QITILISHI

Qo'chqorov Xamdambek
Samarqand davlat pedogogika insituti
II bosqich tarix yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida sovet davri tarixining tarix fanida o'qitilishi haqida tavsif berilgan.Mustaqillik yillarida sovet davrining tarix fanida o'qitilish jarayonida bir muncha murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi.Shu bilan birga maqolada mustaqillik yillarida ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar haqida ham batafsil ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar.*Sovet davri,mustamlakachilik siyosati,tarix,mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar,ijtimoiy masala,o'quv jarayoni,ilmiy-uslubiy yondashuv.*

TEACHING SOVIET-ERA HISTORY IN HISTORY EDUCATION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE.

Kuchkorov Khamdambek
Samarkand State Pedagogical Institute
II-stage master's student, history major

Abstract. *This article describes the teaching of Soviet history in history during the years of independence. The teaching of Soviet history during the years of independence is considered one of the most complex processes. At the same time, the article also provides detailed information about the changes in the educational process during the years of independence.*

Keyword, *Soviet era, colonial policy, history, democratic changes, social issue, educational process, scientific and methodological approach.*

Mustaqillikning dastlabki yillarida sodir bo'lgan o'tish jarayonida demokratik siyosiy tizim va bozor munosabatlari, erkin tadbirkorlikka asoslangan rivojlanayotgan iqtisodiyotni barpo etish bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlar tizimini yaratish va uni ta'lim-tarbiya jarayonlariga joriy etish uchun eng samarali va maqbul yo'l va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etardi. Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat va jamiyatni demokratlashtirish yo'lida dadil qadam tashlagan O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar jarayonlarining chuqurlashishi tarix fani va uni o'qitish tizimini zamonaviy dunyo talablari asosida qayta yo'naltirishga xizmat qildi.Mustaqillik yillarida tarix fani o'qitilishidagi dastlabki to'siqlardan biri bu sovet davri tarixini, va umumam vatan tarixini qay tarzda o'qitish jarayoni turar edi. Sovet

davrida eng qadimgi davrlardan to XIX asr ikkinchi yarmigacha bo‘lgan tariximiz soxtalashtirilgan edi..

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov bu haqda: «O‘zbekistonning o‘zbek xalqini buyuk keng ommaga yetkazishga arzigulik haqqoniy tarixi yaratildimi, yo‘qmi? Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman, o‘zgalar yozib bergan tarixni o‘qitishga mutlaqo qarshiman, mustamlakachilik tuzimiga qurbon bo‘lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g‘ayratlarini Turkistonni kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bo‘lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixdan judo bo‘lish – hayotdan judo bo‘lish demakdir», – deb juda ulug‘vor g‘oyani ilgari surdilar. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida chor Rossiya hukmronligi davrida Turkistonda mustamlakachilik siyosati kuchaydi. Mahalliy xalqni xo‘rlash, qatag‘on etish Sho‘rolar davrida yanada kuchaydi. Shu tariqa Turkistonda mustaqil davlatchilikni paymol etish, til, madaniyat va urf-odatlar va milliy qadriyatlarni yo‘qotishga harakat qilgan mustabid tuzum 130 yil hukmronlik qildi. O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi O‘zbek xalqining ma’naviy va madaniy hayotida butunlay yangi bir davrni boshlab berdi. Shu boisdan ham “O‘zbekiston xalqining tarixiy o‘tmishi” fani yoshlarimizga ta’lim-tarbiya asoslarining davr talabi darajasidan olib borilishi ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida so‘zlagan nutqida: “…Darsliklarda milliy fikrlash, millat taqdiriga va millat mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerakligini ta’kidlagan edi. Aynan mana shu sessiyada Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.Sovet davrida 1943-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshida Tarix instituti tashkil etildi va u yerdagi olimlar tomonidan qator ilmiy asarlar darsliklar,dasturlar chop etildi.Xususan‘‘O‘zbekiston SSR tarixi’’ yaratildi.Lekin mustaqillikga erishganimizdan so‘ng bu tarix qoralandi va olimlar orasida Sovet davri tarixining haqiqiy manzarasini tasvirlovchi fikrlar asosida ilmiy asarlar yaratilishi lozim deb hisoblaydigan fikrlar keng tarqaldi. 1998- yilda muallif Bo’riboy Ahmedov, tarix fanlari doktori, professor Qamariddin Usmonov maxsus mualliflardan darslikning uslubiy tuzilishlarini bajargan Jumaboy Raximovlar hamkorligida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan tamoyillar asosida 5-9 sinf o‘quvchilari uchun “Vatan tarixi” darsliklari, metodik qo‘llanmalar, o‘quv qo‘llanmalar yaratildi. Darsliklarning metodik ko‘rsatmalar asosida yaratilganligi fan darsliklari tizimini shakllantirishdagi asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Tarix darsliklarining yaratilishi tarix fanidagi ilk marotaba 1994-yilda va 1996-yilda bir guruh tarixchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda bugungi kunda amaliyotda o‘z ta’sirini birmuncha yo‘qotgan, davr talabiga hamohang bo‘lmagan “O‘zbekiston tarixini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiyasi”dagi ilmiy-nazariy noaniqliklarga ham javob bo‘lib xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillari rivojlanish nuqtai nazaridan tarix fani uchun birmuncha og‘ir kechdi. Mustaqil davlat qurilishida u chinakamiga asos va tayanch bo‘la olmadi. Buning sababi tarixchilar o‘rtasida fikrlar mushtarakligi va haqiqiy birlikning yo‘qligida edi. Yondashuvlarning turli-tumanligi, fikrlar tarqoqligi, tarixiy xususiyat, ya’ni qo‘lda kitoblarimizni mustaqillik manfaati asosida emas, balki eskicha ish tartibi, keksa va yosh kadrlar o‘rtasidagi zidiyat – bularning barchasi nafaqat zamon talabiga javob bermas, ayni paytda, umuman tarix fani rivojini to‘xtatib qo‘ygan edi. Xuddi shu vaziyatda 1998 -yilning iyun oyida birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov bir guruh yetakchi tarixchilar, olimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashdi.Ushbu uchrashuvda Prezident tomonidan tarixchilar oldiga katta va asosiy vazifalar qo‘yildi:

1.O‘zbekiston tarixini o‘rganishning konsepsiyasi qanday bo‘lishi kerak?

2.O‘zbek xalqining kelib chiqishi va davlatchilik tarixini qanday o‘rganish kerak?

3.Zamonaviy tarixchining qiyofasi qanday bo‘lishi kerak?

4. O‘zbek davlatchiligi tarixi qachondan boshlangan?

Qo‘yilgan masalalarni hal qilish uchun tarix fanining metodologik asoslarini tubdan o‘zgartirish zarur edi. Prezident suhbatidan keyin e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori (1998 yil 27 iyul) tarix fanining vazifalarini strategik jihatdan o‘zgartirish uchun asos bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”- T “Sharq”1998.

2.Karimov I.A. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”-T.Sharq.1992.

3.T.Toshpo‘latov,Y.G‘affarov. “Tarix o‘qitish metodikasi”-T. Turon-iqbol.2010.

4.Hamid Ziyoyev. Tarix- o‘tmish va kelajak ko‘zgusi”-T.G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.2000.

5.O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. – T., 1999. – 87.

6. O‘zbekiston tarixini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiyasi. – T: 1996.

7.Alimova.D.A История как история, история как наука. T.I. Историческое сознание. – T:«Узбекистан». 2008. – B. 261.

TURKIYANING QORA DENGIZ BO‘YICHA MINTAQAVIY SIYOSATI NATO STRATEGIYASIDA HAMDA MILLIY MANFAATLAR KESIMIDA

Xo‘jamkulova Maxliyo Ergash qizi
Mustaqil tadqiqotchi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: makhliyokhujamkulovagmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Turkiyaning Qora dengiz mintaqasidagi tashqi siyosiy strategiyasi va xavfsizlik amaliyotlarini NATOning mintaqaviy yondashuvlari hamda Anqara milliy manfaatlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlar kesimida tahlil qilindi. Qora dengiz makonida shakllanayotgan yangi geosiyosiy realiyalar – Rossiyaning harbiy-siyosiy faolligi, Ukraina inqirozi natijasida yuzaga kelgan strategik beqarorlik, energetika va transport tarmoqlarining global raqobat maydoniga aylanishi – Turkiyaning mintaqaviy pozitsiyasini tubdan qayta belgilashga undamoqda. Tadqiqot aynan shu jarayonlarning Turkiya tashqi siyosatiga ko‘rsatgan ta’sirini tizimli tahlil qiladi. Maqolada Turkiyaning NATO a’zosi sifatida mintaqada alyansning jamoaviy mudofaa tamoyillariga amal qilishi, bir vaqtning o‘zida esa Montre konventsiyasining kafolatchisi sifatidagi o‘ziga xos xalqaro-huquqiy majburiyatlari va mintaqaviy xavfsizlikni suveren yondashuv asosida boshqarish istagi o‘rtasidagi strategik muvozanat yoritiladi. Turkiya siyosatining yadro elementlarini tashkil qiluvchi harbiy-diplomatik faollik, Qora dengiz flotlarining harakatlarini tartibga solishdagi roli, dengiz xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama tashabbuslari, shuningdek, NATOning mintaqaviy mashg‘ulotlaridagi ishtiroki alohida tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qora dengiz mintaqasi, geosiyosiy aktorlar, mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasi, Turkiya tashqi siyosati, harbiy diplomatic faollik, NATO, Yevropa Ittifoqi, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina inqirozi .*

TURKEY'S REGIONAL POLICY ON THE BLACK SEA IS IN NATO STRATEGY AS WELL AS IN THE CROSS SECTION OF NATIONAL INTERESTS

Khujamkulova Makhliyo Ergash kizi
Independent Researcher
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: makhliyokhujamkulovagmail.com

Annotation: *This scientific paper analyzed Turkey's foreign policy strategy and security practices in the Black Sea region in a complex cross-section of interactions between NATO's regional approaches and Ankara's national interests. The new geopolitical realities taking shape in the Black Sea space – Russia's military-political activity, strategic instability caused by the Ukrainian crisis, the transformation of*

energy and transport networks into a global competitive arena – are encouraging a radical redefinition of Turkey's regional position. The study provides a systematic analysis of the impact of these same processes on Turkish foreign policy. The article highlights the strategic balance between Turkey's adherence to the principles of collective defense of the alliance in the region as a NATO member, and at the same time its specific international-legal obligations as a guarantor of the montre Convention and its desire to manage regional security on the basis of a sovereign approach. The role of Turkish policy in regulating the actions of the Black Sea fleets, multilateral maritime security initiatives, as well as NATO participation in regional exercises are analyzed separately.

Keywords: *Black Sea region, geopolitical actors, regional security architecture, Turkish Foreign Policy, military diplomatic activism, NATO, European Union, Russian Federation, Ukrainian crisis.*

РЕГИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА ТУРЦИИ В ОТНОШЕНИИ ЧЕРНОГО МОРЯ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ НАТО, А ТАКЖЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ

Хужамкулова Махлиё Эргаш кызы
Независимый исследователь
Ташкентский государственный университет востоковедения
Электронная почта: makhliyokhujamkulovagmail.com

Аннотация: *В этой научной статье была проанализирована внешнеполитическая стратегия и практика безопасности Турции в Черноморском регионе на стыке сложных взаимодействий между региональными подходами НАТО и национальными интересами Анкары. Новые геополитические реалии, складывающиеся на Черноморском пространстве – военно-политическая активность России, стратегическая нестабильность, вызванная украинским кризисом, превращение энергетических и транспортных отраслей в глобальное конкурентное поле – подталкивают к коренному переосмыслению региональной позиции Турции. В исследовании проводится систематический анализ влияния именно этих процессов на внешнюю политику Турции. В статье освещается стратегический баланс между приверженностью Турции принципам коллективной обороны альянса в регионе в качестве члена НАТО и в то же время ее конкретными международно-правовыми обязательствами в качестве гаранта Конвенции Монтре и желанием управлять региональной безопасностью на основе суверенного подхода. Отдельно будет проанализирована военно-дипломатическая активность, составляющая ядерные элементы турецкой политики, роль Черноморского флота в регулировании своих действий, его*

многосторонние инициативы по безопасности на море, а также участие в региональных учениях НАТО.

Ключевые слова: Черноморский регион, геополитические акторы, архитектура региональной безопасности, внешняя политика Турции, военно-дипломатическая активность, НАТО, ЕС, Российская Федерация, украинский кризис.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda Qora dengiz mintaqasi geosiyosiy va geoiqtisodiy jihatdan yuqori strategik ahamiyatga ega hudud sifatida e’tibor qozonmoqda. Turkiya, geografik joylashuvi va tarixiy hamda siyosiy aloqalari bilan ushbu mintaqada o‘zining ta’sirini kengaytirishga intilmoqda. Ayniqsa, NATO doirasidagi strategik majburiyatlari va alyansning Qora dengizdagi xavfsizlik siyosati Turkiya tashqi siyosatining shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, Turkiya mintaqadagi iqtisodiy manfaatlari, dengizdagi harbiy hamkorlik va strategik resurslarga kirish imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga harakat qilmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – Turkiyaning Qora dengiz bo‘yicha mintaqaviy siyosatini NATO strategiyasi kontekstida va turk manfaatlari kesimida tahlil qilishdir. Shu orqali mintaqadagi geosiyosiy muvozanat, alyansning strategik rejalari hamda Turkiya tashqi siyosatining o‘ziga xos jihatlari ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy tahlillar, rasmiy NATO hujjatlari va Turkiya rasmiy strategik materiallari asosida mantiqiy va analitik yondashuv qo‘llanadi.

MUHOKAMA

Turkiyaning Qora dengiz bo‘yicha mintaqaviy siyosati bir nechta asosiy omillar orqali shakllanadi. Birinchi navbatda, Turkiya geografik joylashuvi tufayli mintaqaning markaziy aktoriga aylanadi va bu uning strategik qarorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. NATO kontekstida Turkiya alyansning sharqiy flangida barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa, Rossiya va boshqa hududiy kuchlarning siyosiy va harbiy harakatlarini muvozanatlashtirish borasida buning yaqqol ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi jihat sifatida, Turkiya mintaqadagi iqtisodiy va energetik manfaatlarini himoya qilishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Qora dengiz orqali o‘tadigan energetik yo‘llar, dengiz resurslari va transport infratuzilmasi Turkiya uchun nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Turkiya NATO bilan hamkorlikda bu resurslar xavfsizligini ta’minlash va mintaqada barqarorlikni mustahkamlashga intiladi. Uchinchidan, Turkiya Qora dengiz mintaqasida harbiy hamkorlik va diplomatik aloqalarni muvozanatlashtirish orqali o‘zining siyosiy ta’sirini kengaytiradi. Bu nafaqat alyans doirasidagi majburiyatlar, balki mintaqaviy hamkorlik va Turkiyaning o‘zining mustaqil tashqi siyosat strategiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, Turkiya siyosati NATO strategiyasi bilan uyg‘unlashgan

bo‘lsa-da, u mintaqaviy manfaatlarni maksimal darajada himoya qilishga qaratilgan dinamik yondashuvni ko‘rsatadi. Muhokamaning natijasi shuni ko‘rsatadiki, Turkiya Qora dengiz bo‘yicha siyosatini shakllantirishda nafaqat alyansning strategik rejalari, balki o‘z milliy manfaatlarini ham ustuvor tutadi. Bu esa mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash, xavfsizlik muvozanatini saqlash va strategik resurslar bo‘yicha raqobatbardosh pozitsiyani mustahkamlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiyaning Qora dengiz bo‘yicha mintaqaviy siyosati bir nechta asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi:

1. Geosiyosiy pozitsiyani mustahkamlash: Turkiya Qora dengiz mintaqasida geosiyosiy ta’sirini kengaytirish uchun NATO doirasidagi hamkorlik va milliy strategiyasini uyg‘unlashtirmoqda. Tahlil ko‘rsatmoqda ki, Turkiya alyans bilan birgalikda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash va Rossiya, Ukraina va Gruziya kabi aktorlar bilan muvozanatli aloqalarni rivojlantirishga intiladi. Bu esa Turkiyaga mintaqaviy barqarorlikni shakllantirish va strategik pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi.

2. Energetik va iqtisodiy manfaatlar: Qora dengiz orqali o‘tuvchi energetik yo‘llar va dengiz resurslari Turkiya uchun asosiy ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiya nafaqat o‘zining energiya xavfsizligini ta’minlash, balki mintaqadagi iqtisodiy raqobatbardosh pozitsiyasini oshirish maqsadida ham strategik harakatlar qilmoqda. Shu jumladan, yangi transport yo‘llari, port infratuzilmasi va dengiz diplomatiyasi uning siyosiy ta’sirini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Harbiy va diplomatik integratsiya: Tahlil ko‘rsatadi ki, Turkiya Qora dengizdagi harbiy hamkorlikni rivojlantirish orqali NATO strategiyasini qo‘llab-quvvatlaydi, ammo bu harakatlar milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirilgan. Natijada, Turkiya alyans doirasidagi majburiyatlarini bajarib, mintaqaviy siyosiy mustaqillikni saqlashga erishadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiya Qora dengiz bo‘yicha siyosatini shakllantirishda uchta muhim komponentni uyg‘unlashtiradi: geosiyosiy pozitsiyani mustahkamlash, iqtisodiy va energetik manfaatlarni himoya qilish, hamda harbiy-diplomatik integratsiyani rivojlantirish. Bu strategik yondashuv Turkiyaga mintaqaviy ta’sirni kuchaytirish va NATO strategiyasi bilan uyg‘un harakat qilish imkonini beradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot Turkiyaning Qora dengiz bo‘yicha mintaqaviy siyosatini NATO strategiyasi hamda milliy manfaatlar kesimida tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiya ushbu mintaqada nafaqat alyansning muhim strategik hamkori, balki mustaqil mintaqaviy aktor sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Uning Qora dengiz siyosati geosiyosiy muvozanatni saqlash, xavfsizlik tahdidlarini

cheklash va strategik resurslardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuv asosida shakllanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Turkiya NATO doirasidagi majburiyatlarini bajarish bilan birga, o‘z milliy manfaatlarini ustuvor qo‘ygan holda muvozanatli va moslashuvchan siyosat yuritmoqda. Bu holat Turkiyaning mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasidagi rolini kuchaytirib, Qora dengizda barqarorlikni ta’minlashda muhim omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, energetik xavfsizlik, savdo yo‘llari va harbiy-diplomatik hamkorlik Turkiya tashqi siyosatining asosiy tayanch yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Umuman olganda, Turkiyaning Qora dengiz bo‘yicha siyosati NATO strategiyasi bilan o‘zaro uyg‘unlashgan holda, mintaqaviy manfaatlar va milliy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa Turkiyaga nafaqat mintaqaviy, balki kengroq xalqaro siyosiy maydonda ham strategik ahamiyatga ega davlat sifatida faol ishtirok etish imkonini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aydın, M. (2019). Turkey and the Black Sea security environment. Ankara: Center for Strategic Research.
2. Çelikpala, M. (2016). Turkey and the Black Sea: Towards a new regional security architecture. Uluslararası İlişkiler, 13(52), 1–20.
3. NATO. (2022). NATO’s strategic concept. Brussels: NATO Headquarters.
4. Oğuzlu, T. (2015). Turkey and NATO: Political implications of strategic partnership. International Politics, 52(1), 1–18.
5. Sakwa, R. (2021). Russia against the rest: The post-Cold War crisis of world order. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Tol, G. (2020). Turkey’s evolving foreign policy in the Black Sea region. Middle East Institute Reports, 12(4), 1–15.
7. Yılmaz, S. (2017). Energy security and geopolitics in the Black Sea region. Energy Policy, 105, 341–349.
8. Turkish Ministry of Foreign Affairs. (2021). Turkey’s foreign policy principles and regional strategies. Ankara.

YOSHLAR TAFAKKURIDA HARBIY QAHRAMONLIK IDEALLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI

Pulatov Baxodir Abduraupovich
Farg‘ona davlat universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti
Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig’i
+998901636241
Abdumalikov Polvonjon Abdujalil o‘g‘li
Harbiy ta‘lim fakulteti kursanti

Annotatsiya:*Ushbu maqola yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik Ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari Hozirgi muommolariga boy davrda yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam jangavorlik tuyg‘ularini shakllantirishning ob'ektiv shart-sharoitlari to‘g‘risida yanada chuqurroq o‘ylash taktik va strategik maqsadlarimiz haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar:*Vatanparvarlik,ta’lim-tarbiya,vazifalar,jangovor,tafakkur.*

Bugungi kunda dunyoda «tinchlik» degan so‘z va, «osoyishtalik» degan tushuncha g‘oyat omonat bo‘lib qolganiga, bu borada kechagi vaziyat, kechagi tahlil va prognozlar bugunga to‘g‘ri kelmayotgani jamiyatda jangavorlik ruhini rivojlantirish zaruratga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishning ta'limni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko‘tarish talab etiladi. Demak, o‘zligini anglagan, tarixiy xotirasi butun, mustaqil fikrlaydigan inson o‘z vataniga sotqinlik qilmaydi, balki vatan manfaatini hamma narsadan ulug‘ tutib, uning uchun jon berishga tayyor harbiylarda jangavorlik sifatlari yuqori bo‘ladi Bu esa chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo‘nalishi talabalarida vatan himoyasi chindan ham vazifa, balki sharafli burchga aylanib borishiidan yaqqol daolat beradi.

Hozirgi muommolariga boy davrda yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam jangavorlik tuyg‘ularini shakllantirishning ob'ektiv shart-sharoitlari to‘g‘risida yanada chuqurroq o‘ylash taktik va strategik maqsadlarimiz sirasiga kiradi. Jangavorlik ruhiyati harbiydan sabrli, chidamli, qat'iyatli, matonatli, jasurlik va mardlik fazilatlariga ega bo‘lishni shart qilib qo‘yish orqali u mohiyatan insonning kundalik mayda tashvishlardan ulug‘vorlikka olib chiqadi. Ya'ni talaba o‘zining jangavorlik harakteri orqali xudbinona vatanni sevishdan, vatan odidagi axloqiy burchini anglashga o‘tadi, ulg‘ayadi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo‘nalishi talabalarida jangavorlik ruhiyatini rivojlantirish orqali ijtimoiy dunyoqarashda milliy g‘urur, or-nomus kabi axloqiy me'yorlar mustahkamlanadi. Mamlakatni asrab-avaylash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog‘liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional

ko‘nikmalarni ilm-ma'rifat asosida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo‘nalishi talabalari qalbi va ongiga isingdirish orqali O‘zbekistonning sadoqatli fuqarolarini tarbiyalash davlatimizning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mamlakatning barqarorligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy, axloqiy, maishiy, texnologik, axborot kabi omillarning o‘zaro bog‘liqligi va mavjudligi asosida shakllanadi. Bular, birinchi galda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini echish va maqsad sari yo‘naltirishga qaratilgandir. Mazkur tizimning shakllanishi ikkilamchi dialektik jarayon bo‘lib, unda murakkablik, kengqamrovlilik va ziddiyat kabi qonuniyatlar o‘z ifodasini topgan. Barqarorlik tizimi tashkiliy jihatdan tabiiy integrasiyaga tayanib, fuqarolik jamiyati va davlatning tinchligi yuzasidan maqsadli yo‘naltirilgan usul va vositalar asosida muammolarni o‘zaro manfaatdorlikda echishga qaratilgandir. Bunda Qurolli Kuchlarning tutgan o‘rni alohida ahamiyatga molikdir. Chunki uning asosiy vazifasi mamlakatning hududiy yaxlitligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun, etuk harbiy xizmatchi shaxsini tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadiki, bu bevosita harbiy ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liqdir. Garchi harbiy texnika va qurol-yaroqlar asosiy himoya vositasi bo‘lib xizmat qilsa-da, bizga yaxshi ma'lumki, har qanday mukammal harbiy texnika yoki qurol-aslahalarning mavjudligiga qaramasdan, ularni boshqarish uchun harbiy xizmatchilar shaxsi, jangavorlik sifatlari, taktik imkoniyatlari asosiy o‘rinda turadi, ya'ni inson omili hal qiluvchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarlik darajasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur masala, o‘ziga xos harbiy-siyosiy ahamiyatga molik, strategik xarakterdagi vazifalardan biri hisoblanib, etuk harbiy xizmatchilarni amaliyot uchun tayyorlash, ularga zamon talablari darajasida fan va texnikaning yutuqlaridan mukammal foydalangan holda ta'lim-tarbiya berishni taqozo etadi. Vatan himoyachiligini o‘zi uchun kasb sifatida tanlaganlarning harbiy tayyorgarligi hamda kasbiy tarbiyasiga ilmiy nuqtai nazar asosida yondashish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga molik masala hisoblanadi. Qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda o‘qitish-tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya jarayonida qobiliyat darajasini yuqoriroq rivojlanish darajasiga o‘tkazish uchun eng oqilona sharoitlar yaratish mumkin. Buning uchun, birinchidan, yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirish, ilmiy uslublar yordamida tizimli tahlil qilishga o‘rgatish kerak, ikkinchidan ilmiy-ijodiy faoliyatiga qiziqtirish zarur, uchinchidan o‘quv va ijtimoiy vazifalarni hal etishda ko‘proq faollik va mustaqillik ko‘rsatishlari uchun ularga imkoniyat berish lozim.

Harbiy talim-tarbiya tizimida yoshlarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash, jangavorlik ruhiyatini oshirish va taktik tayyorgarlikni rivojlantirishga alohida urg‘u berilishi kerak. Chunki harbiylik faoliyatining mazmuni va maqsadi mana shu ko‘rsatkichning shakllanganlik darajasi asosida tarkib topadi. Shu sababli, harbiy xizmatchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish ta'lim-tarbiya ishi bo‘yicha mas'ullar, ofiserlar oldida turgan ulug‘vor, mas'uliyatli vazifa bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda,

harbiy xizmatchilar o‘rtasida jimoniy tayyorgarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularda ilmiy izlanish, huquqiy savodxonlik, burch va mas'uliyatni chuqur his qilish, poklik, halollik, fidoyilik, mehnatsevarlik, ijodiy tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iymon, insof, diyonat, millatparvarlik, insonparvarlik, haqiqatgo‘ylik, sadoqatlilik, shijoat, botirlik singari fazilatlarni shakllantirish lozim. Shuning uchun, harbiy-ma'rifiy yo‘nalishda o‘tkazilajak mashg‘ulotlarda va tadbirlarda ilmiy pedagogika va psixologiya faning yutuqlariga tayangan holda treninglar, ta'limiy suhbat va uchrashuvlar, kechalar va ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Quyidagilar yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning asosiy vazifalari hisoblanadi:

-yoshlarni milliy rivojlanish strategiyaga va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

-qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, vatan mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

-milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan etuk kadrlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash; yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turishda keng dunyoqarashni shakllantirish; har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga, jangavorlik ruhiyatiga va taktik tayyorgarlik ko‘nikmalariga ega harbiylarni tarbiyalash; O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali singdirib borish.

Tarbiya oldida turgan asosiy maqsad o‘sib kelayotgan avlod ongida keksa avlod dono tajribasini singdirish, insoniy fazilatlarni shakl- lantirish va rivojlantirish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'u- liyatni his qilishga o‘rgatish, qonunlarga rioya etish fazilatlarini qaror toptirishdan iboratdir. Chunki Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik o‘zi- ning qudratli ildizlari bilan oila, avlod-ajdodlarning or-nomusiga chuqur ehtirom bilan qarashga, insonning o‘z vijdoni va burchiga sodiqli- giga borib taqaladi. O‘zbek xalqining yuksak milliy qadriyatlari vatan- parvarlik, milliy g‘ururni ma'naviy yuksaltirish jamiyat ravnaqi yo‘lidagi qiyinchiliklarni engib o‘tishda yordam beradi.

Qahramonlik ideallarni shakllantirishning muhimligi mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa quvvatini mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash zaruriyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli, yosh harbiy xizmatchilarni qahramonlik ideallari

asosida tarbiyalash ta'lim-tarbiya ishlari oldida turgan ulug‘vor, mas'uliyatli vazifa bo‘lib qolmoqda. Mustaqil davlatimizning bugungi bosh vazifalaridan biri – yurtim, elim deb kuyib, yonib yashaydigan vatanparvar komil insonni tarbiyalashdir. Vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish va takomilashtirish insonning tug‘ilishidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Chunki vatanparvarlik tarbiyasi, avvalo, oiladan boshlanadi. Bunda ota-ona o‘z farzandlariga ajdodlarimiz tarixi, ularning qahramonligi, jamiyatdagi obro‘-e'tibori haqida hissiyot bilan gapirib bermog‘i, shu asosida yosh avlodda Vatan tuyg‘usini uyg‘otmog‘i kerak. Haqiqiy sevish, vatanparvarlik – shu ulug‘ Vatanni sevish, xalq uchun xizmat qilish, jonini fido etishdir. Qaerda bo‘lsa ham Vatan, xalq manfaatlari uchun fidokorona kurashuvchi kishigina haqiqiy vatanparvardir. Haqiqiy vatanparvar inson takabburlikka, faqat o‘z manfaatini o‘ylovchi shaxs bo‘lishga mutlaqo yo‘l qo‘ymaydi va xalqidan o‘z manfaatini ustun tutmaydi, hamma vaqt xalq bilan bir jon, bir tan bo‘ladi. Agar harbiy xizmatchilar o‘z ona Vatanini sevmasa, unga sadoqat bilan qaramasa, haqiqiy barkamol inson bo‘la olmaydi. Insoniylikning eng muhim fazilati ham vatanparvarlikdir.

G‘oyaviy to‘qnashuvlarni olib borishdan maqsadlar turlicha, bu faqat- gina g‘oyaviy kurash mahsulotini tayyorlagan va qo‘llayotganga ma'lum. Ammo, ularning zamirida iqtisodiy va siyosiy hamda harbiy maqsadlar mavjudligi aniqdir. Harbiy xizmatchilarimiz ongiga ofiserlarimiz tomonidan bu masala, ya'ni g‘oyaviy kurashlarning salbiy va buzg‘unchilik tomonlari aniq va misollar asosida tushuntirib berilsa, bizning Qurolli Kuchlarimiz uchun g‘oyaviy hujumlarning ta'siri o‘z kuchini yo‘qotib, askarlarimiz yuksak jasorat ko‘rsatib, o‘z burchlarini sharaf bilan bajara oladilar. Shu o‘rinda ta'kidlab o‘tishni lozim deb hisoblardikki, armiya yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni ham jismonan, ham ruhan chiniqtiradi hamda ota-onaga, oilaga bo‘lgan mehr-muhabbatini uyg‘otadi. Xulosa qilganda, yurtimizda professional armiyani shakllantirishga katta e'tibor qaratilayotgan ekan, ushbu soha mutaxassislariga qo‘yilayotgan talablar ham ortib bormoqda. Ham jismonan, ham ruhan etuk nomzodlarni saralash, ularni zamon talabiga mos mutaxassislar etib shakllantirish borasida ko‘p islohotlar olib borilmoqda. Avval harbiy xizmatchi bo‘lish uchun deyarli hech qanday talab qo‘yilmagan bo‘lsa, bugungi kunda ularning ham jismonan sog‘lomligi, ham savodliligi, qolaversa, harbiy mutaxassislik va ixtisosliklar uchun zaruriy o‘rta va o‘rta-maxsus kasb-hunar ta'limida egallagan bilimlari bo‘yicha saralab olinmoqda. Bu haqida yoshlarda tushuncha qanchalik ko‘p shakllangan bo‘lsa, ularning tayyorgarlik sifati ham ortadi va bu Qurolli kuchlarimiz harbiy xizmatchilari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarimiz xodimlarining saviyasining ortishiga, bu sohalarning rivojiga va eng taraqqiy etgan davlatlardan qolishmaydigan armiyaga ega bo‘lishimizda faqatgina ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harbiy fakultet talabalarini harbiy xizmatga tayyorlashda axloqiy tarbiyani axamyati. ijodkor o'qituvchi,

2. Sattorovich, a. u. (2023). Harbiylarning kreativ sifatlarini rivojlantirishda ta‘limning ahamiyati.

3. Abduraupovich, P. B. (2023). O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 203

4. Sattorovich, A. U. (2023). Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoillari.

5. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir

YOSHLARGA MILLIY QADRIYATLAR ORQALI AXLOQIY TARBIYA BERISH.

Sheranova Maryam
Jizzax Davlat Pedagogika Universisiti
Pedagogika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Qadim zamonlardanoq Turon, Turkiston xalqi o'zining ko'hna tarixi, boy merosi, rang-barang va yuksak madaniyati, urf-odat va an'analari bilan ajralib turgani, olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzot aloqalari, inson umrining ma'nosi, mazmuni haqida hamda insoniy fazilatlar, botirlik, oqillik, xokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabilarni ulug'lab qadriyat darajasiga ko'targanlari, Ona Vatanni sevish uni ardoqlash va himoya qilish tuyg'usini yoshlarga singdirish haqida to'g'risida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Ona Vatanni, insoniy fazilatlar, botirlik, oqillik, xokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik, rivoyatlar, afsona, hikoya, dostonlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy –ma'rifiy, axloqiy, estetik va falsafiy qarashlar, umuminsoniy g'oyalar.*

НОРМАТИВНОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ

Шеранова Марьям
Джизакский государственный педагогический университет
Доцент кафедры педагогики

Аннотация: *В данной научной статье описывается, как с древних времен народы Турана и Туркестана отличались своей древней историей, богатым наследием, разнообразной и высокой культурой, обычаями и традициями, ценностью Вселенной, ее бесконечностью, связью между Вселенной и человечеством, смыслом и содержанием человеческой жизни, а также тем, как они прославляли и возвышали такие человеческие качества, как мужество, интеллект, смирение, доброта, верность, патриотизм, и как они прививали молодежи чувство любви, уважения и защиты Родины.*

Ключевые слова: *Родина, человеческие качества, героизм, интеллект, смирение, доброта, верность, патриотизм, легенды, мифы, рассказы, эпосы, социально-политические вопросы, духовное просветление, моральные, эстетические и философские взгляды, универсальные идеи*

MORAL EDUCATION OF YOUTH THROUGH NATIONAL VALUES.

Sheranova Maryam
Jizzakh State Pedagogical University
Associate Professor, Department of Pedagogy

Abstract: *This scientific article describes how since ancient times the people of Turan and Turkestan have been distinguished by their ancient history, rich heritage, diverse and high culture, customs and traditions, the value of the universe, its infinity, the connections between the universe and humanity, the meaning and content of human life, and how they have glorified and elevated human qualities such as courage, intelligence, humility, goodness, loyalty, patriotism to the level of value, and how they have instilled in young people the feeling of loving, honoring and protecting the Motherland.*

Keywords: *Motherland, human qualities, heroism, intelligence, humility, goodness, loyalty, patriotism, legends, myths, stories, epics, socio-political, spiritual-enlightenment, moral, aesthetic and philosophical views, universal ideas.*

Since ancient times, the people of Turan and Turkestan have been distinguished by their ancient history, rich heritage, diverse and high culture, customs and traditions. The great figures of these people have made a significant contribution to the development of all spheres of national and world science and culture. The names of our great ancestors al-Khwarizmi, Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali Ibn Sina, Abu Rayhan al-Beruni, Mirza Ulugbek, Alisher Navoi, the great hadith scholar Ismail Bukhari, the great scholars of Sufism Ahmad Yassawi, Abduhokhalik Gijduvani, Najmiddin Kubro, Muhammad Razzali, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamakhshari and others are still mentioned with respect by the peoples of the world.

The feeling of loving the Motherland, honoring it and protecting it did not arise today or yesterday. It is an ancient, sacred feeling, like the history of mankind. The ideological aesthetic will of this antiquity left its indelible mark in folk songs, legends and epics. They educate people in the spirit of those sacrifices and pass on patriotism from generation to generation as a sacred heritage.

Proverbs, which are an expression of the centuries-old life experience and everyday lifestyle of our people, are considered to be of great artistic value in their essence. Proverbs reflect the people's attitude to life, nature, man, family and society, socio-political, spiritual-enlightenment, moral, aesthetic and philosophical views.

Yusuf Khos Khojib, Akhmat Yassavi, Rabguzi, Lutfi, Alisher Navoi, Babur, Munis, Ogahi, Nodira, Mukimi, Avaz, Sadriddin Ayni, Abdulla Qodiri, Gafur Ghulam and dozens of other creators cited many folk proverbs in their works and used them to express universal ideas.

Mahmud Kashgari's "Divoni Lug'atit Turk" contains about 400 articles and proverbs, and Gulkhani's "Zarbulmasal" contains more than 300 proverbs on education, upbringing, and morality.

The ancient book of our ancestors, the Avesta, gives great importance to universal human values, their importance for human spirituality and practical activity. In the work, such qualities as goodness, perfection, freethinking, and humanity are shown through the image of Ahuramazda. According to Zarathushtra (Zardozi), people should follow the forces of goodness and light, distinguish good from evil, justice from injustice, and be on the side of Ahuramazda throughout their lives. The value of a person in this process is expressed in his non-indifference in the struggle for the victory of good, in his way of life, in his spiritual image, and in his social activities.

Islam did not remain the religion of only Arabs in Asia, it also became the common religion of many Eastern peoples. It should be admitted that the divine values described in the Quran had a huge impact on the history and culture of our peoples. The significance of this impact can be assessed and analyzed in different ways, but it is impossible to deny that it had a certain value in the past. The influence of the divine values of Islam is clearly felt in the work of every thinker, scientist, and scholar who lived on our land. At the same time, it should be noted that during the spread of Islam in our country and the Arab conquest, many of our national values were lost. Al-Biruni wrote about this with regret in his work “Monuments of Ancient Peoples”.

The scholar Abu Nasr Al-Farabi, who played an important role in the history of Eastern culture, also paid great attention to the issue of values. Al-Farabi's thoughts on values can be clearly observed in the doctrine of "Madina al-fazila". As a lexicographer, Al-Farabi Al-Faazila, in his doctrine of society, explained the general system of spiritual and moral values that arise in an era when high ideals and just social relations are established. Al-Farabi is one of the first Eastern philosophers who, at a time when religious views were of paramount importance in the ideological sphere, considered not only the idea of God, but also the values of man, society and science as one of the main topics of philosophical knowledge.

According to Abu Raykhan Beruni, the emergence of spiritual values is inextricably linked with social relations, people's lifestyle, material needs, interests, interests, demands and goals. Abu Ali Ibn Sina's philosophical encyclopedia "Justice", "Eastern Philosophy", "Book of Wisdom", "Solomon and Ibsol" are devoted to the issue of values, in which the scientist pays great attention to the importance of spiritual and moral values. In his opinion, the value of a person lies in his cooperation with others, his desire to have good moral qualities, his wisdom, and his ability to do good to others.

By the process of upbringing, we should understand not only the educational work carried out in the family, school, children's and youth organizations, but also the

process that includes the entire social system, its leading ideas, literature, art, cinema, radio, television and other similar spheres.

Therefore, the main task of us teachers and educators should be to properly instill moral education in the minds and consciousness of our youth, using our national values in every sphere

LIST OF REFERENCES:

1. Mirziyoyev, Sh. M. We Will Build a Free and Prosperous Democratic State of Uzbekistan Together. Tashkent: Uzbekistan, 2016, p. 56.

2. Mirziyoyev, Sh. M. We Will Build Our Great Future Together with Our Brave and Noble People. Tashkent: Uzbekistan NMIU, 2017, p. 488.

3. Hasanboev, J., et al. Explanatory Dictionary of Pedagogy. Tashkent: Science and Technology, 2008, 480 p.

4. Sheranova M.B. Moral views of Eastern scholars. SCIENTIFIC NEWS OF TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY 2025, ISSUE 5, p. 467-470.

DENMARK,COPENHAGEN

CERTIFICATE

of conference participant

BURIYEVA NILUFAR BAXTIYOR QIZI

for participation in the scientific-online conference
<<PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS>> with an article entitled

SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI ROLI

Platform & workflow by OJS / PKP

17.12.2025

Candra Zonyfar
CHIEF EDITOR